

"XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" *Konferensiyasi*



✓ **BIZNING YO'NALISHLARIMIZ:**

- Aniq fanlar
- Tabiiy fanlar
- Tibbiyot fanlari
- Texnika fanlari
- Iqtisodiyot
- Filologiya fanlari
- Pedagogika fanlari
- Ijtimoiy va gumanitar fanlar
- Psixologiya fanlari
- San'at va madaniyat fanlari
- Jismoniy tarbiya va sport

✓ **INDEKSLAYMIZ:**



[HTTP://UNIVERSALPUBLISHINGS.COM](http://UNIVERSALPUBLISHINGS.COM)



+998 88 808 21 07

**«XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM
TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR»** ilmiy konferensiyasi:

16.05.2023 yil.

Ushbu to'plamda **«XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR»** ilmiy konferensiyasi 2023 yil 1-soni 3-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga **DOI** unikal raqami biriktirilib, **Zenodo**, **Open Aire**, **Google Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman tan olinadi.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Konferensiya materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Konferensiya materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

**“RESEARCH SCIENCE AND
INNOVATION HOUSE” MCHJ**



TAHRIRIYAT

Bosh muharrir: Eshqarayev Sadridin Chorievich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot va tabiiy fanlar kafedrası mudiri, kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O‘zbekiston.

Mas’ul kotib:

Boboyorov Sardor Uchqun o‘g‘li Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi

Nashrga tayyorlovchi:

Eshqarayev Samariddin Sadridin o‘g‘li Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi

TAHRIR KENGASHI A’ZOLARI

Texnika fanlari muharriri, Eshqarayev Ulug‘bek Chorievich – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrası dotsenti, texnika fanlari nomzodi, Denov, O‘zbekiston.

Texnika fanlari muharriri Babamuratov Bekzod Ergashevich – Termiz davlat universiteti fizik kimyo kafedrası dotsenti, falsafa fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Kimyo fanlari muharriri Mirabbos Xojamberdiev Ikromovich- Berlin Technische Universität dotsenti, kimyo fanlari doktori, Berlin, Germaniya

Kimyo fanlari muharriri, Eshqurbonov Furqat Bozorovich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, kimyo fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Iqtisodiyot fanlari muharriri Otamurodov Shavkat Tillayevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti prorektori, iqtisod fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Ijtimoiy va gumanitar fanlar muharriri, Xudoyberdiyev Xursand Xudoyberdiyevich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, ijtimoiy-gumanitar fanlar doktori, Termiz, O‘zbekiston.



Tibbiyot fanlari muharriri Otamurodov Furqat Abdukarimovich, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali direktori, Termiz, O'zbekiston tibbiyot fanlari falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston.

Biologiya fanlari muharriri Nurova Zamira Annakulovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali. Termiz, O'zbekiston, biologiya fanlari doktori, dots., Termiz, O'zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Turabayeva Zarina Kenjabekovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, tibbiyot falsafa fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Sotsiologiya fani muharriri Eryigitova Lobar Qodirovna Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa sotsiologiya fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Jo'rayeva Ramziya Abdurahimovna Qo'qon davlat pedagogika instituti. Qo'qon, O'zbekiston filologiya fanlari fanlari doktori (PhD), katta o'qituvchi.

Fizika-matematika-fanlari muharriri Bobamuratov Ulug'bek Erkinovich Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa fanlari doktori, fizika-matematika-fanlari, Termiz, O'zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Axmedov Kamoliddin Xakimovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son davolash fakulteti dekani, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tibbiyot fanlari muharriri Vohidov Alisher Shavkatovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Umumiy xirurgiya, bolalar xirurgiyasi va bolalar urologiyasi kafedrası mudiri Tibbiyot fanlari doktori, professor

Gumanitar fanlar muharriri Rahmonov Abduqahhor Abdusattorovich Ma'naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo'yicha direktor o'rinbosari, falsafa fanlari doktori (PhD)



МАРКАЗИЙ САЙЛОВ КОМИССИЯСИ ФАОЛИЯТИНИНГ АСОСИЙ ПРИНЦИПЛАРИ.

Қорақалпоқ давлат университети “Давлат бошқарув ҳуқуқи” йўналиши 2- босқич магистранти Жуманиязов Санжарбек Матрасулович

Аннотация: Демократик ислоҳотларнинг тизимли, босқичма-босқич, энг аввало инсон манфаатларини кўзлаб амалга оширилаётганлиги ҳаққоний, адолатли, демократик сайловларни ўтказишлик мақолада кенг ёритилган. Марказий сайлов комиссияси фаолиятининг қонунийлик принципи, Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг Конституция ва қонун устуворлигини назарда тутган нормаларини рўёбга чиқариш билан боғлиқ масалалар тўғрисида тўхталиб ўтилган.

Калит сўзлар: Марказий сайлов комиссияси, мустақиллик принципи, коллегиялик принципи, ошкоралик принципи, адолатлилик принципи

Мамлакатимизда демократик ислоҳотларнинг тизимли, босқичма-босқич, энг аввало инсон манфаатларини кўзлаб амалга оширилаётганлиги ҳаққоний, адолатли, демократик сайловларни ўтказишда муҳим ўрин тутди.

Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссияси ўз фаолиятини доимий асосда амалга оширади ва ўз фаолиятида Ўзбекистон Республикаси Конституциясига, Ўзбекистон Республикасининг сайлов ва референдумлар ташкил этиш, ўтказиш билан боғлиқ қонунчилик нормаларига амал қилади. Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар биринчидан, Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссиясини демократик шакллантиришнинг конституциявий устувор нормаларини ифодалаш имконини берди. Иккинчидан, улар фаолиятини ташкил этишнинг энг муҳим принциплари бўлмиш мустақиллик, қонунийлик, коллегиялик, ошкоралик ва адолатлилик принципларини илк мартаба Асосий Қонунда қатъий мустаҳкамлаб қўйилди¹.

Мустақиллик принципи. Шу ўринда ушбу принципларнинг мазмун моҳиятини ёритадиган бўлсак, Парламентлараро Иттифоқнинг Кенгаши томонидан қабул қилинган —Эркин ва адолатли сайловларнинг мезонлари тўғрисидаги Декларацияси мазмун моҳиятидан ҳамда Ўзбекистон Республикаси Сайлов кодексига биноан, Марказий сайлов комиссияси ва 31 унинг аъзолари ўз

¹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси- Тошкент, 2017, 71-74 б.



фаолиятини ҳар қандай давлат органлари, жамоат бирлашмалари ва мансабдор шахслардан мустақил ҳолда амалга оширади. Марказий сайлов комиссияси аъзолари қарор қабул қилишда сиёсий мойиллар ва бошқа ёт таъсирлардан холи бўлган ўз нуқтаи назарини билдиради. Марказий сайлов комиссиясининг фаолиятига аралаштишга йул қуйилмайди ва бундай аралашув қонунга мувофиқ жавобгарликка сабаб бўлади. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси «Маъмурий жавобгарлик тўғрисида»ги Кодексининг 512-моддасига кўра, Марказий сайлов комиссиясининг, сайлов комиссияларининг, референдум утказувчи комиссияларнинг фаолиятига аралаштиш, худди шунингдек уларнинг ишига тўсиқларни юзага келтириш мансабдор шахсларга энг кам иш ҳақининг ўн бараваридан ўн беш бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади.

Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссияси фаолиятида қонунийлик принципининг роли беқиёсдир. Ўзбекистон Республикаси Сайлов кодексига мувофиқ Марказий сайлов комиссияси ва унинг аъзолари ўз фаолиятида Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига, сайлов, референдум тўғрисидаги қонунларига ҳамда бошқа қонунларга амал қилади. Қонунийлик принципи ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамиятининг ажралмас белгиси, давлат органлари фаолиятини ташкил этишнинг асосий негизидир. Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссияси фаолиятида қонунийлик принципи нафақат миллий сайлов қонунчилиги, қолаверса, умумэътироф этилган халқаро сайлов стандартларига амал қилиш билан узвий боғлиқдир. Шу боис Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссияси фаолиятида ва сайлов комиссиясининг барча босқичларида қонунийлик принципининг таъминланиши демократик сайловларни халқаро стандартлар ва миллий сайлов қонунчилиги нормалари асосида ташкил этиш ва ўтказиш учун шароит яратади. Қонунийлик ва ижтимоий адолат принциплари узвий боғлиқ бўлиб, бу демократик сайловлар жараёнида ёрқин намоён бўлади.

Марказий сайлов комиссияси фаолиятининг қонунийлик принципи Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг Конституция ва қонун устуворлигини назарда тутган нормаларини рўёбга чиқаришга хизмат қилади. Асосий Қонуниинг кўра, Ўзбекистон Республикасида Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва қонунларининг устунлиги сўзсиз тан олинади. Давлат, унинг органлари мансабдор шахслар жамоат бирлашмалари, фуқаролар Конституция ва қонунларга мувофиқ иш кўрадилар.

Коллегиаллик принципининг маъносига кўра, Марказий сайлов комиссияси томонидан улар ваколатига киритилган барча масалалар



яккабошчилик тарзида эмас, балки коллегиял равишда кўриб чиқилиб, ҳал этилади. Ўзбекистон Республикаси Сайлов кодексига кўра масалаларни кўриб чиқиш ва қарорлар қабул қилиш Марказий сайлов комиссияси томонидан коллегиял тарзда амалга оширилади. Коллегиялик принципи ўзининг туб моҳиятига кўра Ўзбекистон Республикасининг Марказий сайлов комиссияси ваколатларига кирувчи масалаларни унинг барча аъзолари иштирокида ҳал қилинишини аниқлаб, жамият манфаатларига бўйсунганининг қафолати бўлиб ҳисобланади. Бу принцинга риоя қилиш Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссияси мажлисларини ўтказиш тартибиде ҳам яққол намоён бўлади. Ушбу принцип ҳам ўз навбатида, Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссияси ваколатларига кирувчи масалаларни эркин муҳокама қилишда унинг барча аъзоларининг тенг иштирокини таъминлашни аниқлатади. Айнан шундай фаолият Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссияси ваколатларини самарали амалга ошириш имконини беради. Ўзбекистон Республикаси Сайлов кодексига кўра, Марказий сайлов комиссияси ишининг ташкилий кўриниши унинг мажлислари ҳисобланиб, улар заруратга қараб ўтказилади. Агар мажлисда комиссия аъзолари умумий миқдорининг камида учдан икки қисми иштирок этаётган бўлса, у ваколатли ҳисобланади. Марказий сайлов комиссиясининг қарорлари очик овоз бериш орқали, комиссия аъзолари умумий миқдорининг оддий кўпчиликл овози билан қабул қилинади. Овозлар тенг бўлиб қолган тақдирда, Марказий сайлов комиссияси Раисининг овози ҳал қилувчи ҳисобланади.

Ошқоралик принципи Ўзбекистон Республикаси Сайлов кодексига мувофиқ, Марказий сайлов комиссияси ўз фаолиятини ошқора амалга оширади. Марказий сайлов комиссиясининг мажлислари очик ўтказилади. Марказий сайлов комиссияси мажлисларида сиёсий партияларнинг, оммавий ахборот воситаларининг вакиллари, бошқа давлатлардан, халқаро ташкилотлардан ва ҳаракатлардан кузатувчилар ҳозир бўлиши мумкин. Марказий сайлов комиссиясининг қарорлари оммавий ахборот воситаларида эълон қилинади. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 6-майдаги «Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиклиги тўғрисида»ги Қонунининг 1-моддасига кўра, ушбу Қонуннинг мақсади давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиклиги соҳасидаги муносабатларни тартибга



солишдан иборат². Мазкур Қонуннинг 4-моддасига мувофиқ, давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолияти очиқлигининг асосий принциплари сифатида: улар томонидан тақдим этиладиган ахборотдан хаммининг фойдаланиши мумкинлиги, унинг ўз вақтида берилиши ва ишончилиги; улар фаолиятининг ошкоралиги ва шаффофлиги; давлат ҳокимияти ва бошқаруви органларнинг фаолияти тўғрисидаги ахборотни излаш, олиш ва тарқатиш эркинлиги; давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолияти тўғрисида ахборот тақдим этишда фуқароларнинг ўз шаъни ва кадр-қимматини тажовузулардан, ўз шахсий ҳаётига аралашувлардан ҳимоя қилишга бўлган ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларига, шунингдек фуқаролар ва юридик шахсларнинг ўз ишчанлик обрусини ҳимоя қилишга бўлган ҳуқуқларига риоя этиш назарда тутилган. Ҳар бир Сайловчи сайлов давомида сайлов округлари ва участкаларини тузишга, сайлов комиссияларининг таркиби, комиссиялар жойлашган манзил ва иш вақтига, депутатликка номзодларни руйхатга олиш, овоз бериш ва сайлов яқунларига дойр ахборотни излаш, олиш ва тарқатиш ҳуқуқига эга. Тегишли сайлов комиссияларининг сайлов округлари ва участкаларини тузиш, сайлов комиссияларининг таркиби тўғрисидаги, шунингдек депутатликка номзодларни руйхатга олиш, овоз бериш ва сайлов яқунлари ҳақидаги қарорлари матбуотда эълон қилинади.

Адолатлилик принципи нафақат миллий кадрият, балки ҳуқуқий кадрият ҳамдир. Бу принципнинг демократик тараққиётга эришишдаги роли жуда каттадир. Адолатлилик принципи конституциявий даражада ифодалан- жамият ва давлатда ижтимоий адолат ва қонунийликни таъминлашнинг бош мезони бўлиб ҳисобланади. Демократик сайловлар ҳам ижтимоий адолат ва қонунийликни таъминлашга хизмат қилади. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 14-моддасига кўра, давлат ўз фаолиятини инсон ва жамият фаровонлигини кўзлаб ижтимоий адолат ва қонунийлик принципла-ри асосида амалга оширади³. Конституциявий нормалар ижтимоий адолатни қарор топтиришга айниқса, демократик сайловларни ташкил этиш ва ўтказишда мустақил ва ҳолис орган бўлган Марказий сайлов комиссияси фаолиятининг бош мезонидир. Шу боис Марказий сайлов комиссияси ўз фаолиятини Конституция, сайлов ва референдум тўғрисидаги қонун ҳужжатлари талабларига риоя этиб

² Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 19-сон, 209-модда; 2017 й., 37-сон, 978-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 30.08.2019 й., 03/19/559/3670-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон

³ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси- Тошкент, 2017, 7 б.



амал га ошириш, ижтимоий адолатни қарор топтириш, фуқароларнинг жамият ва давлат ишларини бошқаришда бевосита ва ўз вакиллари орқали иштирок этишининг муҳим кафолати бўлиб хизмат қилмоқда.

Хулоса қилиб айтганда, сайловлар миллий давлатчилигимиз моделининг асосини ташкил этиб, ҳар бир шахснинг давлат ҳокимияти вакиллик органларига сайлаш ва сайланиш буйича конституциявий ҳуқуқларини рўёбга чиқаришнинг ҳал қилувчи шартидир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси- Тошкент,2017, 71-74б.
2. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 19-сон, 209-модда; 2017 й., 37-сон, 978-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 30.08.2019 й., 03/19/559/3670-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон
3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси- Тошкент,2017, 7 б.
4. Халқ сўзи газетаси махсус сонлари 2023 йил



THE CHALLENGES OF GRAMMATICAL TRANSFORMATION IN TRANSLATION

Ismoilova Gulshoda Turaboy kizi – 2nd course student

Master's departmentnUzbek state world languages university

Annotation. The lesson presents a contemporary understanding of the primary issues with translation and the field of translation studies. papers on translation theory in the sciences. Based on the factual material translation process, methods for completing certain translation jobs are presented, highlighting lexical-semantic, grammatical, and stylistic issues. Examples are utilized as reference points for the English to Uzbek-translations.

Keywords: Grammatical transformations, qualified translation, lexical content, semantic structure, expressive and stylistic function, category of certainty/uncertainty, complex infinitive constructions.

Introduction. Sentences that alter in structure when being translated from English into Uzbek typically do so for lexical reasons. However, the burden of communication frequently necessitates careful consideration of both the word and its grammatical structure. Grammatical transformations include changing a sentence's structure during translation to conform to the rules of the destination language. Depending on whether the structure changes completely or only partially, the transformation might be either full or partial¹. Replacing merely minor elements results in a partial modification of the proposition, whereas replacing the main members of the statement results in its total alteration. When the translator has previously understood the foreign sentence and can therefore see its grammatical structure, professional, qualified translation can start.

Whether it is a continuous understanding or an unauthorized translation is irrelevant. The syntactic structures of English and Uzbek frequently allow for a literal translation, but occasionally, as a result of a variety of factors, the translator is forced to use grammatical transformations, which include full or partial sentence transformation, the substitution of parts of speech and sentence constituents in translation. Even when the structure is comparable in Uzbek, change is frequently required. In the process of translating, the grammatical form and syntactic structure are not considered in isolation from their lexical content. However, the multiplicity of grammatical options enables us to draw attention to them separately. When translating,

¹ Arnold I.V. Fundamentals of linguistic research: Textbook. - M.: Higher School., 1991.



the writing style of someone with a strong personality might be challenging. When an extra function, such as expressive or semantic, is added, a problem results².

When utilizing grammatical transformations, the following things should be taken into account:

- 1) the syntactic function of the sentence;
- 2) its lexical content;
- 3) its semantic structure;
- 4) the context (environment) of the proposal;
- 5) its expressive and stylistic function.

Expressions are constructed differently in lexical and grammatical elements. Values that are lexical in one language that is, articulated through vocabulary can be stated grammatically in other languages. The substitution of English nouns with Uzbek verbs should be considered the most prevalent method of grammatical transformation in translation. These phenomena are linked to the Uzbek language's expansive and adaptable verbal structure. For example, *Drowning is the biggest killer of children in 21 countries, according to a World Health report published in Geneva yesterday.* - *Kecha Jenevada chop etilgan Jahon sog'liqni saqlash hisobotiga ko'ra, cho'kish 21 mamlakatda bolalarning eng katta qotilidir.*

Since the verb *cho'kmoq* cannot be transformed into a verbal noun, its replacement during translation is unavoidable. can use the personal form of the verb *cho'kmoq*, but the participle is undoubtedly the better choice. English nouns are replaced with Uzbek verb forms since the nominative beginning is so prevalent in English. In this case, it is natural to use the English verbal noun typically with the -er suffix in place of the Uzbek verb's form³: *Oh, I'm no dancer* - *Oh, men raqqosa emasman.*

Adjectives from the English language can be changed to nouns, verbs, and adverbs when translated into Uzbek. Consequently, adjectives used to describe white schools and white churches were changed to nouns in the translation of American realities: *oq tanlilar uchun maktablar, oq tanlilar uchun cherkovlar.* Less frequently, a verb must be used in place of an adjective: *As to Balzac, his manners were deplorable* - *Balzakga kelsak, uning xulq-atvori juda achinarli edi.* Adverbs are most frequently used in translation to substitute adjectives. This change is related to the process known as the transfer of epithets, which is widespread in the English language: *Lord Nesby stretched a careless hand* - *Lord Nesbi beparvo qo'lini uzatdi. The accusation has been*

² Kazakova T.A. Translation techniques. - St. Petersburg: Union, 2004.

³ Gafurov I., Muminov O., Qambarov N., Translation theory. - T., 2012.



disproved editorially - Ayblov tahririyat tomonidan rad etilgan. due to the fact that the grammatical phenomena of one language are not present in another, there are grammatical alterations when translating from English into Uzbek:

A rigid sentence structure with predetermined word order is present in English, whereas word order is free in Uzbek; a category of certainty and uncertainty is presented in English; a gerund is a distinctive feature of the English language; complex infinitive constructions (complex subject); perfect and imperfect forms of time in the English tense verb system; and a system of noun cases are present in Uzbek.

According to V.N. Komissarov, the following grammatical changes occur when translating from English into Uzbek:

1. Zero grammatical transformation: *John took Mary by the hand - Jon Maryamning qo'lidan ushlab oldi.*

2. Transformation of a simple sentence into a complex one: *I want you to speak English - Ingliz tilida gaplashishingizni istayman. She hates his behaving in this way - Uning bunday xatti-harakatlaridan nafratlanadi. I like watching her dance - Men uning raqsini tomosha qilishni yaxshi ko'raman.*

3. Combining two sentences into one: It is not possible to do the work in two days. *Nor is it necessary. - Ikki kun ichida ishni bajarish mumkin emas. Bu ham kerak emas. The only thing that worried me was our front door. It creaks like a bastard. - Meni tashvishga solgan narsa bizning old eshik edi. U juda yomon g'ichirlaydi.*

Traditional speech usage offers many grammatical substitutes⁴. For instance, the majority of scenarios use the same Uzbek form of sorry (*sizga xalaqit qilmadimmi, vaqtida javob berolmaganim uchun uzr, noqulaylik uchun uzr so'rayman*) and situations of use (*shaxsiy munosabatlar, ish xati, rasmiy munosabatlar*). However, when translated into English, this phrase can also have functional meanings like "*sorry for the delay,*" "*we must apologize for the delayed answer,*" and "*excuse me.*"

When translating, the most acceptable option is to consider a structural change, or conversion, wherein a similar-yet-different form that can stand in for the original one is used in place of the non-equivalent grammatical form if it is not an independent part of speech.

Therefore, to translate a gerund into Uzbek, one uses either the verbal noun that is morphologically closest to it, the infinitive, or the gerund itself in Uzbek: *On acquiring new animals, one of the many problems that face you is the process of settling*

⁴ Muminov O., Turgunov R., Rashidova A., Alimova D., - Translation - Written translation - Pismenniy perevod. –T., 2008.



them in - Yangi hayvonlarni sotib olishda siz duch keladigan ko'plab muammolardan biri ularni joylashtirish jarayonidir. He agreed to selling them - U ularni sotishga rozi bo'ldi. After visiting several toy-shops, we managed to buy a teddybear - Bir nechta o'yinchoq do'konlariga tashrif buyurganimizdan so'ng, biz ayiq sotib olishga muvaffaq bo'ldik. Adverbs are often subject to a complicated conversion: *The tired speaker was silent - Charchagan notiq jim qoldi. He kept obstinate silence - U o'jarlik bilan sukut saqladi.* Another method of grammatical transformation is unfolding. It shows up in the division of lexical-grammatical units into parts, each of which contains a portion of the starting data. When necessary, deployment is employed to transform synthetic forms into analytical forms, depending on whether the context calls for it or the grammar rules of the target language in connection to this form: *He gave this watch to his mother - U bu soatni onasiga berdi. The waiter pushed him away - Ofitsiant uni itarib yubordi.*

Conclusion. Consequently, the requirement for grammatical modifications in translation is a result of the two languages' structural disparities. The secret to a good translation is the freedom to apply all the methods of such changes.

REFERENCES:

1. Koptilov V.V. Theory and practice of transfer. - K., 2003.
2. Arnold I.V. Fundamentals of linguistic research: Textbook. - M.: Higher School., 1991.
3. Kazakova T.A. Translation techniques. - St. Petersburg: Union, 2004.
4. Kalinina V.D. Translation theory and practice. - M.: RUDN, 2008.
5. E. Ochilov., Theory and practice of translation. - T., 2012
6. Gafurov I., Muminov O., Qambarov N., Translation theory. - T., 2012
7. Gafurov I. Introduction to the specialty of translation. - T., 2008.
8. Muminov O., Turgunov R., Rashidova A., Alimova D., - Translation - Written translation - Pismenniy perevod. –T., 2008.



Yuridik terminlar lug'atlarining o'ziga xos xususiyatlari

Muyassarxon Baxriddinova

Toshkent davlat yuridik universiteti, Katta o'qituvchisi

Muyassar1971@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada yuridik terminlar lug'atlarining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan bo'lib, yuridik terminlarning turli holatlarda qo'llanilishi, etimologik kelib chiqishi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Yuridik, termin, lug'at

LEKSIKOGRAFIYA (leksika va... grafiya) — 1) lug'atlar tuzish, amaliy lug'atchilik. Amaliy lug'atchilik lug'atlar tuzish barobarida bir qator ijtimoiy muhim vazifalarni bajaradi: o'z va o'zga tillarni o'rganish; ona tilini tavsiflash va meyorlashtirish (izohli, imlo va b. turdagi lug'atlar yordamida); tillararo aloqamunosabatni ta'minlash (ikki va ko'p tilli lug'atlar, so'zlashgichlar); muayyan til leksikasini ilmiy o'rganish (etimologik, tarixiy lug'atlar) va b. L. lug'at tuzish ishi sifatida turli xalqlarda yozuv taraqqiyotining ilk bosqichlarida u yoki bu tushunarsiz (eskirgan, dialektal, maxsus yoki chet tilga mansub) so'zning qanday ma'no anglatishini bilish ehtiyoji natijasida paydo bo'lgan. Dastlabki tuzilgan lug'atlar umumlashgan, universal xususiyatga ega bo'lgan (lug'atlarning turli shakllari, ko'rinishlari keyingi davrlarda yuzaga kelgan).

Har bir sohaning tayanch atamalarini izohlab, ma'nosini konkerlashtirib turuvchi manba bu lug'atlaridir. Shu ma'noda lug'atlar tasniflanadi.

Leksikografiya ham amaliy, ham nazariy soha sifatida leksikologiya, uslubshunoslik, fonetikaga hamda til tarixi, tilning grammatik qurilishi haqidagi ta'limotga suyanan holda ish ko'radi. Zamonaviy leksikografiya muayyan davr jamiyatidagi bilimlar majmuini aks ettiruvchi lug'atlarning muhim ijtimoiy vazifasini alohida qayd etadi. Leksikografiya lug'atlar tipologiyasini ishlab chiqadi. Shu jihatdan bir tilli leksikografiya (izohli va b. lug'atlar), ikki tilli leksikografiya (tarjima lug'atlar), o'quv leksikografiyasi (til o'rganishga maxsuslashgan lug'atlar), ilmiy-texnik leksikografiya (terminologik lug'atlar) o'zaro farqlanadi. O'zbek tilshunosligida, xususan, leksikografiyasida xilma-xil lug'atlar tuzish borasida kattagina yutuqlarga erishilgan.

Terminologik lug'atlar fan va texnika, ishlab chiqarish, kasb-hunar sohalarini qamrab olgan. Kasb-hunarlarning turli sohalari, paxtachilik, zoologiya, botanika, kimyo, matematika, fizika, tibbiyot kabi aniq fanlar, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, falsafa,



tarix, tilshunoslik, dabiyotshunoslik singari gumanitar fanlar bo'yicha yaratilgan terminologik lug'atlar shu sohalar terminlarini tartibga solish bilan bir qatorda jamlovchilik rolini ham o'ynadi. Taniqli olim, pedagogika fanlari doktori, professor Muxtorxon Eshon Umarxo'jaevning "Diniy atamalar va iboralar" izohli lug'ati soha rivojiga munosib hissa qo'shgan manbalardan biridir.

Zamonaviy ensiklopedik manbalarda termin (lot. Terminus – chegara, oxir) "ma'nosi tegishli ilmiy nazariya (yo'nalish) kontekstida yoki, umuman, bilimning har qanday sohasida aniqlangan so'zlar yoki so'z birikmalari (murakkab yoki tavsiflovchi)" sifatida keltiriladi. Shu ma'noda, terminlarni aniqlashtirishning ko'p uchraydigan muammolari ularni aniqlash, omonimlarni chegaralash va fikrlash universumini belgilashni o'z ichiga oladi.

TEZAURUS (yun. thesauros — xazina, boylik) — 1) muayyan tildagi barcha so'zlarni qamrab oladigan, ularning matnda qo'llanish holatlarini to'lato'kis aks ettiradigan lug'at. Jonli tilning lug'at tarkibi doimo o'zgarib turishi sababli Tezaurus faqat o'lik tillar materiallari asosida yoki oldindan belgilab olingan yozma yodgorliklar uchun tuzilishi mumkin. Muayyan yozuv yodgorliklaridan leksikani yoppasiga terib olishga asoslangan lug'atlar (mas., yunon, lotin tillariga tuzilgan lug'atlar) shunday lug'atlardan hisoblanadi. Turkiyshunoslikda A. K. Borovkov, E. I. Fozilov, A. Najiblarning 13—14-a. lar turkiy yozma yodgorliklari asosida tuzilgan lug'atlari ham glossariy, ham Tezaurus belgilariga ega. So'z tanlash prinsipiga ko'ra yozuvchilar yoki ular ijodiga mansub ayrim asar tili bo'yicha tuzilgan lug'atlar ham Tezaurus hisoblanadi.

2) biron-bir ilm-fan sohasiga oid lug'aviy birlik (so'z) lar mavzu tartibida joylashtirilgan va ana shu birliklar o'rtasidagi semantik (turjins, sinonimik va b.) munosabatlar aks ettirilgan ideografik lug'at. Bunda so'zlar alifbo tartibida emas, balki bir mavzu, bir tushunchaga aloqador so'zlarning barchasi bir joyda beriladi: kerakli so'zlar tushunchaga qarab qidiriladi. Nazariy jihatdan Tezaurus leksika semantik tizimining ehtimoliy modellaridan biridir. Amadda undan yozuvchi individual lug'atini boyitish vositasi sifatida foydalaniladi¹.

O'zbek tilshunosligida, xususan, leksikografiyasida xilma-xil lug'atlar tuzish borasida kattagina yutuqlarga erishilgan. XX asrning 30-yillaridan keyin yaratilgan ikki tilli (ruscha-o'zbekcha), 80-yillarida yuzaga kelgan bir tilli (izohli) lug'atlar shular jumlasidandir. Shu bilan birga, ko'rsatilgan sanadan boshlab, terminologik lug'atlar yaratishga kirishilganligini ham alohida ta'kidlash lozim.

¹ <https://gomus.info/encyclopedia/cat-t/tezaurus-uz/> (Мурожаат санаси 21.02.2023)



Termin muayyan ishlab chiqarish sohasi, fan yoki san'atning maxsus tushunchalarini nomlagani holda, yuridik termin huquqshunoslik sohasidagi tushunchaning nomidir. Terminlarni o'rganadigan fan tarmog'i esa terminologiya deb ataladi. Terminlarning o'ziga xosligi, birinchi navbatda, ularning ixchamligi, aniqligi, tizimli shartliligi va bir ma'noliligidadir. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda "terminlar konservativ paradigmatic munosabatlarga ega, ya'ni ular sintagmatik aloqalarida cheklanmagan holda, semantik paradigmada qat'iy belgilangan o'rinni egallaydi". Terminlar jamlangan lug'atlar terminologik leksikografiyani tashkil etadi.

Hozirgacha dunyoga kelgan terminologik lug'atlarning soni ikki yuztadan oshib ketadiki, ular fan va texnika, ishlab chiqarish, kasb-hunar sohalarini qamrab olgan. Kasb-hunarlarining turli sohalarini, paxtachilik, zoologiya, botanika, kimyo, matematika, fizika, tibbiyot kabi aniq fanlar, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, falsafa, tarix, tilshunoslik, adabiyotshunoslik singari gumanitar fanlar bo'yicha yaratilgan terminologik lug'atlar shu sohalar terminlarini tartibga solish bilan bir qatorda jamlovchilik rolini ham o'ynadi.

Yuridik matnlar (qonunlar, qarorlar, buyruqlar) huquqiy diskursning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan huquq tili orqali shaxsiy yoki umumiy manfaatlarini ro'yobga chiqaradi.

Huquqda yuridik terminlarning o'rni nihoyatda katta, chunki ular yuridik faoliyatning eng muhim vositasi sanaladi. "Terminologik fond qanchalik boy bo'lsa, maxsus qonunchilik terminologiyasi qay darajada puxta va keng qo'llanilsa, qonunning barqarorligi, aniqligi va ixchamligiga erishiladi" Yuridik terminologiya huquqning normativ mazmunini ifodalovchi vositadir. Quyidagi terminlarni misol sifatida keltirish mumkin: das Finanzrecht (moliyaviy huquq); das Handelsrecht (savdo/tijorat huquqi); das Zivilrecht (fuqarolik huquqi); das Strafrecht (jinoiyat huquqi); das Strafgeltendesrecht (amalda mavjud jinoiyat huquqi); das Strafmaterallesrecht (moddiy jinoiy huquq); das Verfassungsrecht (konstitutsiyaviy huquq); das Strafformallesrecht (rasmiy jinoiyat huquqi); das Straffinterlokalesrecht (jinoiy-huquqiy normalar); das Straflebendigesrecht (zamonaviy jinoiyat huquqi); das Strafsupranationalesrecht (millatdan yuqori jinoiyat huquqi); das Strafprozeßesrecht (jinoiy-protsessual huquq); das Wirtschaftsrecht (xo'jalik huquqi); das Mietrecht (uy-joy huquqi); das Steuerrecht (soliq huquqi).

Terminlar lingvistik kategoriyalar tarkibiga kiritiladi, lekin ular mantiq kategoriyasi bo'lgan tegishli tushunchalarga nom beradi. Tushuncha va termin o'rtasida tushunchaning ta'rifi masalasida oraliq aloqa bo'lishi mumkin. Shunday qilib, terminlar ta'riflanmaydi, ular tushuntiriladi, lekin tushunchalar aniqlanadi. Shubhasiz, huquqiy



ta'riflar muammosi ancha murakkab. Terminlar obekt yoki hodisaning keng va ayni paytda ixcham tavsifidir.

Shu bilan birga, huquqiy materiallarni taqdim etishda qisqalikka intilishda haqiqatan ham unga muhtoj bo'lgan tushunchalarning ta'riflarsiz qolishiga yo'l qo'ymasligimiz kerak. Shuning uchun ham har doim normativ-huquqiy hujjat matni ixcham, ammo oqilona chegaralar ichida bo'lishiga harakat qilish kerak. Shu bilan birga, normativ-huquqiy hujjatlar matnlarini huquqiy tushunchalarning turli ta'riflari bilan to'ldirishga yo'l qo'ymaslik kerak.

Tilshunoslikka oid adabiyotlarda umumiste'moldagi va ixtisoslashgan terminlar ajratiladi. Umumiste'moldagi terminlar – adabiy tilga kirib kelgan terminlardir. Ular yuridik fan va adabiyotlarda o'zlarining ommaga ma'lum ma'nosida qo'llaniladi. Ixtisoslashgan terminlar ma'lum bir fan sohasi mutaxassisleri tomonidan qo'llaniladi. Yurisprudensiyada yuridik bo'lmagan fanlarning maxsus atamaları ham (ular, o'z-o'zidan, tegishli sohada qanday qo'llanilsa, huquqshunoslar tomonidan ham shunday talqin qilinadi), yuridik atamalar ham (ularning ma'nolari yuridik adabiyotlarda va qonun hujjatlarida allaqachon ma'lum) qo'llaniladi.

Terminning mohiyatini aniqlashda Leypsig funksional tilshunoslik maktabi vakillari quyidagilarni ta'kidlaydilar: «Das Wesen derartiger lexikalischer Einheiten besteht bekanntlich vor allem in der definitorischen Festlegung auf ein bestimmtes Denotat, wodurch er vom sprachlichen Kontext weitgehend unabhängig ist».

Ma'lumki, bunday leksik birliklarning mohiyati, birinchi navbatda, ma'lum bir denotatga oid tavsiflovchi ekanligida ko'rinadi, shuning uchun u (termin) lingvistik kontekstga bog'liq emas.

Ideal holatda, yuridik matnlar umumiy til qoidalariga qat'iy muvofiq bo'lishi kerak, til va huquq masalalari bilan nemis ilmiy adabiyotlarida "Rechtslinguistik" ("huquqiy lingvistika") deb nomlangan fan sohasi shug'ullanadi. Bu atama birinchi marta 1976 yilda Adalbert Podlex tomonidan qo'llangan. "Huquqiy tilshunoslik"ni u "til va huquqiy normalar o'rtasidagi munosabatlarga taalluqli barcha tadqiqot usullari va natijalarining yig'indisi, zamonaviy tilshunoslik talablariga javob beruvchi yo'nalishi" deb atagan. Shubhasiz, yuridik matnlarda qo'llaniladigan ko'plab terminlar fuqarolarning keng doirasi uchun tushunarsizdir, bu tabiiy holat sifatida qabul qilinadi. Amaldagi terminlarning yuridik fanda tan olinishi va huquq sohasidagi mutaxassislarga ma'lum bo'lishi muhimroqdir.

Qayd etish joizki, hozirda qo'llanilayotgan yuridik terminologiya butun huquqshunoslik tarixi davomida yuridik fan va amaliyot tomonidan ishlab chiqilgan. Ko'pgina zamonaviy yuridik atamalar, asosan, ildizi lotin tiliga borib taqaladigan, Rim



huquqi va Rim huquqshunoslari asarlarining jahon yurisprudensiyasiga ta'siri ostida kirib kelgan xalqaro so'zlardir.

Tushunchalarni aks ettirishning adekvatligi talabi ularni tavsiflashning aniqligi va to'g'riligidadir. Matnni idrok qiluvchi shaxsda u yoki bu termini qo'llashda yuridik matn muallifi qaysi tushunchani nazarda tutganiga shubha paydo bo'lmasligi lozim. Agar bir termin turli tushunchalarning nomi sifatida ishlatilsa, u holda termin aynan shu holatda qaysi tushunchani anglatishini tushuntirish kerak, chunki terminlar qat'iy belgilangan ma'noga ega so'zlardir.

Kommunikativ lingvistika va matn tipologiyasi nuqtai nazaridan olib borilgan tadqiqotlarda butun matnni tashkil qilish jarayonida terminlarning roliga e'tibor qaratiladi. Shu munosabat bilan ta'kidlanganidek, "ijtimoiy tartibga soluvchi ish xatlari, qonun hujjatlari va e'lonlar, shuningdek, yo'riqnomalar va reklamalarni tashkil etishda tema-rema progressiyasini qo'llashda terminlardan foydalanish u yoki bu obektni batafsil tavsiflash imkonini beradi: Alle Deutschen haben das Recht [T], sich ohne Anmeldung oder Erlaubnis friedlich und ohne Waffen zuversammeln [R1]. Für Versammlung unter freiem Himmel kann dieses Recht [T] durch Gesetz beschränkt werden [R2]".

Yuridik tilni qurishga urinishlar ko'pincha tilshunoslik va terminologiya doirasida amalga oshiriladi, chunki tilning qurilishi masalasi uning funksiyalari va shunga mos ravishda uni o'rganishning maqsad va vazifalari bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham huquq tilining ichki tuzilishi masalasini ko'rib chiqish borasida ko'plab qarashlar va mezonlar mavjud. Yuridik tilning xususiyatlari orasida tilshunoslar tomonidan eng ko'p tanqid qilinadigan xususiyat sifatida ko'plab tadqiqotchilar quyidagilarni ta'kidlaydilar: tabiiy til so'zlari bilan mos keladigan yuridik terminlardan foydalanish, masalan, Besitz (egallik, egallik qilish), Mensch (shaxs), Sache (narsa), Dunkelheit (zulmat) terminologik birliklari; noaniq iboralardan foydalanish (Interesse des öffentlichen Verkehrs (jamoat manfaatlari), die guten Sitten (umumiy qabul qilingan axloqiy meyorlar), niedrige Beweggründe (asosiy motivlar).

Shunday qilib, har bir fanning tushunchalar tizimi terminlar orqali o'zining lingvistik ifodasini topadi. Termin – muayyan kasbiy sohada qabul qilingan va maxsus sharoitlarda qo'llaniladigan maxsus so'z yoki ibora. Termin ma'lum bir kasbiy bilim sohasi tushunchalari tizimiga kiritilgan tushuncha sifatida belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

F.S.Bokirov. Yuridik terminlar lug'ati (Toshkent, 1959) – YUTL.



F.Muhiddinov, Q.Mirzajonov. Yuridik terminlarning qisqacha ruscha-o'zbekcha lug'at-spravochnigi (Toshkent, 1983) – YUTQRO'LS.

Rusko-uzbekskiy uchebniy slovar pravovoy leksiki (Tashkent, 1991) – RUCHSPL.

Yuridik atama va iboralar lug'ati (Toshkent, 1993) – YUABL.

G.Satimov. Anglo-rusko-uzbekskiy slovar yuridicheskix terminov (Tashkent, 1999) – ARUSYUT.

G'.Ahmedov, H.Bektemirov. Ruscha-o'zbekcha yuridik atamalar lug'ati (Toshkent, 2002) – RO'YUAL.



JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOIIY VA HUQUQIY ZARURIYATI

Azimov Umid Gafurovich

Milliy gvardiya Kashkadare viloyati buyicha boshkarmasi boshligi
polkovnik

Annotatsiya:

Mazkur maqolada jamoat xavfsizligini ta'minlashning ahamiyati va o'ri, uning o'ziga xosligi va dolzarbligi, O'zbekistonda mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlar hamda xorij tajribalarining o'rganilishi, shuningdek, ularning amaldagi natijalari, jamoat tartibini saqlash vakolati berilgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ularga amaldagi Konstitutsiya, qonun va qonun osti hujjatlari normalariga muvofiqligi ilmiy asoslangan holda tahlil etilgan va jamoat xavfsizligini ta'minlashda e'tibor berilishi lozim bo'lgan vazifalar haqida asosli takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: jamoat tartibi, jamoat xavfsizligi, kriminogen, "xavfsiz shahar", "xavfsiz hudud", konstitutsiya, jamiyat, davlat, statistika, tartibsizlik, ijtimoiy, mintaqa, xorijiy davlatlar tajribasi.

Hozirda jahon mamlakatlarida taraqqiyot rivojining eng ilg'or davrida jamoat xavfsizligiga bo'lgan ehtiyoj shu qadar hayotiy ahamiyat kasb etmoqdaki, jamoat xavfsizligini ta'minlashning ijtimoiy zaruriyati nechog'lik muhim ekanligini mintaqaviy va xalqaro maydonda sodir bo'layotgan hodisalardan guvoh bo'lmoqdamiz. Jamoat xavfsizligini ta'minlashning ijtimoiy va huquqiy zaruriyatlari haqida gapirar ekanmiz avvalambor "Jamoat" nima? – degan sav olga to'g'ri javobni izlash o'rinlidir. Ko'pchilik bugungi kunda jamoatni bino sifatida tushunmoqda.

Jamoat so'zi, yunon ekklesiya so'zidan kelib chiqib, "yig'ilish" yoki "qabul qilingan" degan ma'nolarni anglatadi. "jamoat so'zining ildiz ma'nosi bino emas, balki odamlar. Ushbu fikrdan kelib chiqqan holda "jamoat xavfsizligi" – deganda ko'pchilik odamlarning xavfsizligi tushuniladi. Jamoat xavfsizligini ta'minlash hozirgi global zamonda dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Chunki barcha sohalarning rivojlanishida asosiy faktor sifatida odamlar tushuniladi. Odamlar birlashmasi esa jamiyatni tashkil etadi. Demak barcha sohadagi rivojlanishlar jamiyat bilan uzviy bog'liqdir. Hozirgi taraqqiy etayotgan O'zbekistonimizning rivojlanishida jamiyatimizning o'ri beqiyosligi hech kimga sir emas. Shuning uchun ham jamoat tartibining ijtimoiy va huquqiy ta'minlanishining zaruriyati ham hozirgi kunda alohida ahamiyatlidir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar



doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 27-sonli Prezident Farmonini alohida ta'kidlashimiz joiz Farmonda "Jamoat xavfsizligi", "jamoat xavfsizligini ta'minlash" tushunchalariga ta'riflar berilgan bo'lib unda jamoat xavfsizligi — jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo'lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarilishini ta'minlaydi.

Jamoat tartibini saqlashning ijtimoiy zarurligini ko'rsatish uchun misol qiladigan bo'lsak O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi[2]ning Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari haqidagi IX bobining 38-42 moddalarida ijtimoiy sohada huquqlari keltirib o'tilgan bo'lib ya'ni yollanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egaligi, har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega ekanligi, har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga egaligi, har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniy yutuqlardan foydalanish huquqi kafolatlanishini nazarda tutadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi. Ushbu qonunlarning amalda rioya etishi jamoat xavfsizligi bilan uzviy bog'liqdir. Masalan davlatda jamoat xavfsizligi buzilgan hollarda ommaviy tartibsizliklar ro'y berayotgan vaqtda, davlat organlari va boshqa tashkilotlar ham konstitutsiyada keltirilgan ushbu huquqlarni to'laqonli ta'minlay olmaydi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy sohada parokandalikka olib keladi. Shu sababli jamoat tartibini va xavfsizligini saqlash maqsadida barcha rivojlangan mamlakatlar tajribasiga tayangan holda alohida qo'shin turi tashkil etilgan. Rossiya Federatsiyasi o'z gvardiyasiga, Xitoy Xalq Respublikasi o'zining Qurollangan Politsiyasiga, Turkiya Respublikasi o'z Jandarmeriyasiga ega. Ular o'z davlatida jamoat xavfsizligini ta'minlash uchun turli xil chora tadbirlar ko'rishadi, tajriba to'plashadi. Bizning mamlakatimizda esa Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari (xodimlari) va Ichki ishlar vazirligi salmoqli ishlarni amalga oshirib kelmoqdalar.

Mamlakatimizda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash borasidagi ishlarning huquqiy poydevori bo'lib xizmat qilmoqda va qabul qilinayotgan qonun hujjatlariga ko'ra, ichki ishlar organlarining Milliy gvardiya bo'linmalari bilan jamoat xavfsizligini



ta'minlashdagi hamkorligini takomillashtirish masalalari davlat siyosati darajasida isloh qilindi.

Milliy gvardiya hozirgi kunda jamoat xavfsizligini taminlash maqsadida “xavfsiz shahar”, “obod va xavfsiz mahalla” va “xavfsiz hudud” kabi ustuvor loyihalar ijrosiga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu loyihalar ijrosini ta'minlash uchun davr talabidan kelib chiqqan holda jamoat vakillari bilan hatto individual suhbatlar ham tashkil etilmoqda. Bu esa jamoat xavfsizligini ta'minlanishi yo'lida sezilarli natijalar ko'rsatishidan umidvormiz. Zero, “Xavfsiz shahar”, “Xavfsiz hudud” loyihalarida belgilangan vazifalarni samarali va to'liq amalga oshirish, ichki ishlar organlari va milliy gvardiya faoliyatida eng ustuvor yo'nalishlardan biri etib belgilandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.12.2021-y., 06/21/27/1116-son).
2. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 2021 yil.
3. Жаглин А.В. Общественная безопасность как социальное явление и элемент системы национальной безопасности // Вестник Воронежского института МВД России. Воронеж, 2007. №1-С.33.
4. Sh.M.Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibidagi majlisidagi nutqi.



**Совершенствование способа хирургического лечения выпадения прямой
кишки с долихосигмой**

Акилов Х.А

Центр повышения квалификации медицинских работников; ГУ «РСНПМЦХ
имени акад. В.Вахидова»

Садыков Р.А

Центр повышения квалификации медицинских работников; ГУ «РСНПМЦХ
имени акад. В.Вахидова»

Рустамов А.Э.

Центр повышения квалификации медицинских работников; ГУ «РСНПМЦХ
имени акад. В.Вахидова»

Аннотация. Выпадение прямой кишки на всю толщину является доброкачественным состоянием, которое определяется как циркулярное выпячивание всех слоев стенки прямой кишки через анальный сфинктер. Всего к настоящему периоду выполнено 38 подобных операций. Сроки наблюдения за больными составили 4-6 месяцев. основными преимуществами разработанного способа ректопексии при ВПК с долихосигмой являются надежная фиксация и снижение риска рецидива болезни, вероятности инфицирования имплантата, деформации и сужения коло-ректоанастомоза, и, следовательно, нарушения пассажа и прогрессирования запоров.

Ключевые слова: выпадение прямой кишки; ректопексии; долихосигма

Выпадение прямой кишки (ВПК) на всю толщину является доброкачественным состоянием, которое определяется как циркулярное выпячивание всех слоев стенки прямой кишки через анальный сфинктер. До сих пор нет существенных доказательств преимущества между промежностным и абдоминальным доступом или между резекцией или отсутствием резекции в любом доступе. В связи с вышеуказанным необходимость продолжения разработки новых технологий хирургической коррекции ВПК не вызывает никаких сомнений. Поставленная задача заключается в радикальном лечении выпадения прямой кишки и долихосигмы с предупреждением возможных осложнений, профилактики развития спаечного процесса и рубцовой деформации зоны ректопексии.

Способ осуществляют следующим образом:

1. Лапаротомия: нижнесрединная, поперечная надлобковая (с пересечением прямых мышц), по Пфанненштилю (поперечное рассечение кожи и апоневроза с разведением прямых мышц живота).



3. Установка абдоминального ранорасширителя для экспозиции левых отделов ободочной кишки.

4. Ревизия брюшной полости: оценка состояния дугласова пространства, другие патологические изменения (печень/желчный пузырь, толстая кишка, женские половые органы, тонкая кишка).

5. Рассечение брюшины справа у основания брыжейки сигмовидной кишки с переходом на тазовую брюшину.

6. Рассечение брюшины слева вдоль белой линии Тольдта в направлении таза без мобилизации в сторону селезеночного изгиба. Вход в забрюшинное пространство, выполненное рыхлой соединительной тканью. Тупое отделение сигмовидных артерий от забрюшинных тканей, идентификация левого мочеточника.

7. Определение нижнебрыжеечных сосудов. Формирование окна в брыжейке позади сосудистой ножки. Идентификация гипогастрального нерва и его сохранение путем отеснения кзади. Тупое выделение позади сосудистого пучка (аваскулярный слой) до входа в малый таз и полная мобилизация прямой кишки по задней полуокружности вдоль фасции Вальдеера до тазового дна. Чтобы снизить риск повреждения тазовых вегетативных нервов, необходимо избегать мобилизации прямой кишки в стороны.

8. Определение границ резекции: а. Дистальная (верхнеампулярный отдел прямой кишки): анастомоз должен находиться на уровне промоториума. б. Проксимальная: должна проходить таким образом, чтобы не было избытка сигмовидной кишки.

9. Поэтапное пересечение брыжейки (между зажимами с перевязкой) до проксимальной точки резекций.

10. Пересечение сосудов: а. У большинства больных: стандартная перевязка сосудистой ножки (верхней прямокишечной артерии) => перед пересечением необходимо уточнить локализацию мочеточника. Формирование окна в мезоректум у дистального края резекции. Пересечение и перевязка мезоректум между зажимами. б. У больных с промежностной пластикой в анамнезе: при стандартной перевязке существует риск формирования аваскулярного участка кишки => корректные операции: 1) Только ректопексия. 2) Резекция сигмовидной кишки с сохранением сосудистых аркад, т.е. пересечение брыжейки в непосредственной близости от кишки. 3) Пересечение кишки на уровне анастомоза, наложенного ранее, с удалением избытка кишки и сохранением кровоснабжения.



11. Ректопексия к сетке размером 6x10 см (полипропиленовая сетка): после мобилизации прямой кишки по задней поверхности, отдельными не рассасывающимися швами выполняется фиксация импланта к промоториуму и пресакральной фасции; сетка оборачивается вокруг прямой кишки на 360°, ее края фиксируются с обеих сторон 3-4 швами. Возможно применение лазерного воздействия и композитного покрытия.

12. Формируется анастомоз нисходящего отдела толстой кишки с прямой кишкой на 2 -3 см ниже участка фиксации с сеткой по типу «конец-бок» при помощи сшивающего аппарата.

13. Дренирование, ушивание раны.

Всего к настоящему периоду выполнено 38 подобных операций. Сроки наблюдения за больными составили 4-6 месяцев. Данных за рецидив заболевания нет. Преимущества способа: окутывание полипропиленовой сеткой кишки на 360° при ректопексии способствует более надежной фиксации прямой кишки и предупреждает рецидив болезни; формирование анастомоза конец в бок ниже места фиксации прямой кишки полипропиленовой сеткой предупреждает риск инфицирования имплантата; исключается риск деформации и сужения коло-ректоанастомоза, что в совокупности с формированием анастомоза ниже места фиксации прямой кишки существенно снижает в послеоперационном периоде нарушение пассажа и соответственно развитие или прогрессирование запоров.

Таким образом, основными преимуществами разработанного способа ректопексии при ВПК с долихосигмой являются надежная фиксация и снижение риска рецидива болезни, вероятности инфицирования имплантата, деформации и сужения коло-ректоанастомоза, и, следовательно, нарушения пассажа и прогрессирования запоров.

Список использованной литературы:

1. Mille M, Engelhardt T, Stier A. Bleeding Duodenal Ulcer: Strategies in High-Risk Ulcers. *Visc Med.* 2021 Feb;37(1):52-62. doi: 10.1159/000513689.

2. Van der Schans EM, Verheijen PM, Broeders IAMJ, Consten ECJ. Ninety-day morbidity of robot-assisted redo surgery for recurrent rectal prolapse, mesh erosion and pelvic pain: lessons learned from 9 years' experience in a tertiary referral centre. *Colorectal Dis.* 2021 Dec;23(12):3205-3212. doi: 10.1111/codi.15979.

3. Рузибаев Р.Ю., Умаров Д.А., Сапаев Д.Ш., Рузметов Б.А. Результаты хирургического лечения хронического геморроя у больных с медикаментозной гипокоагуляцией. *Проблемы биологии и медицины.* 2022, №5 (139). – С. 185-191.



QORAKOL QO'YLAR METABOLIZMA JARAYONDAGI XLOR (Cl) ELEMENTI TA'SIRI

Saydalimov Axror Xudoyberdi o'g'li

Jizzax davlat pedagogika Universiteti "Fiziologiya va gigiyena" kafedrasida stajyor
o'qituvchisi tel(+99891 0257834)

Rezyume: Maqolada xlor elementining qorako'l qo'ylarining ko'payish xususiyatiga ta'siri va turli tipda tug'ilgan qorako'l qo'ylari organizmida xlor elementini miqdorining dinamikasi o'rganilgan.

Kalit so'zlar. Qorako'l qo'zilari, xlor, ko'payish, tug'ilish tipi, serpushtlik omili, xususiyat, bir jinsli, har xil jinsli, egiz.

Резюме: В статье рассмотрено влияние элемента хрома на репродуктивные характеристики каракольских овец и динамика содержания элемента хлора в организме каракольских овец разных пород учился.

Ключевые слова. Каракольские ягнята, хлора, воспроизводство, тип рождения, коэффициент плодовитости, характеристика, однополые, разнополые, близнецы.

Summary: In the article, the influence of chromium element on the reproductive characteristics of Karakol sheep and dynamics of chromium element content in the body of Karakol sheep of different breeds studied.

Keywords. Karakol lambs, chlorine (Cl), reproduction, birth type, fertility factor, characteristics, same sex, different sex, twin..

Qorako'l qo'ylarini ko'paytirish chorvachilikning muhim elementlaridan biridir. Bu yo'nalishda olib borilgan uzoq muddatli izlanishlar qo'ychilikning fiziologik asoslarini aniqlash va chorvachilikning biotexnologik usullarini ishlab chiqish imkonini beradi. Qorako'l qo'ylari sonining sifat va miqdor jihatdan ko'payishi mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, podada naslchilik sur'atini tezlashtirish, qo'ychilikda qo'llaniladigan usul va usullar bilan sezilarli darajada bog'liq. samaradorligi bilan belgilanadi. Qorako'l qo'ylarining mahsuldorligini oshirishda biologik faol moddalardan foydalanish chorvachilik tarmog'i samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Maqsad. Qorako'l qo'ylarining biologik faol moddalar yordamida unumdorligini oshirish usullarini ishlab chiqish.

material va metodologiya. Samarqand viloyati Qo'shrobd tumanidagi "Obod zamin" MChJda bir xil, har xil va solitar turdagi qorako'l qo'ylarining qonida kaliy miqdori aniqlangan, serpusht tipidagi qorako'l qo'ylarida biologiyada umume'tirof etilgan usullardan foydalaniladi. . belgilangan edi.



tadqiqot natijalari. Qorako'l qo'zilarining 2 oyligida har xil tug'ilgan qo'zilarining qonidagi xlor miqdori o'rganilganda, turli jinsdagi egizaklar bilan tug'ilgan qo'zilarining qonida kaliy elementi miqdori 786 mkg/g, 9,5 va 16,1 foizni tashkil etgan. mos ravishda bir jinsli egizaklar va yakkaliklarga nisbatan yuqori.

Tajriba qo'zilarining qonida xrom elementi kontsentratsiyasi 4-4,5 oyligida aniqlangan, bir jinsli egizaklar bilan tug'ilgan qo'zilarining qonida esa ular turli jinsdagi egizaklar va bir o'g'il bolalar bilan tug'ilgan qo'zilarga o'xshash bo'lgan. mos ravishda 3,2 va 5,9 foizga yuqori. Xuddi shunday tendentsiya tajriba qo'zilarining 8,5-9 oyligida kuzatilgan, bir xil egizak qo'zilarda kaliy elementi miqdori 990 dona bo'lgan. Birlikni tashkil etuvchi bir jinsli va bitta tug'ilgan tengdoshlariga nisbatan mos ravishda 7,6 va 11,2 foizga yuqori ekanligi kuzatildi.

Hatto 12 oylik bo'lganida ham tajriba qo'zilarida kaliy elementining kontsentratsiyasi bir xil turdagi egizaklar bilan tug'ilgan qo'zilarda 950 mkg/g ni tashkil etgan, ular har xil turdagi egizaklar va yakka tuklar bo'lgan.

mahalliy tengdoshlariga nisbatan mos ravishda 7,9 va 10,5 foiz ustunligi kuzatildi. Turli yoshdagi tajriba qo'zilarining qonida kaliy element miqdori dinamikasini tahlil qilganda, turli tug'ilgan qo'zilarining qonida xlor elementi kontsentratsiyasi 8,5-9 oylikgacha ortib borishi, 12 oyligida esa bu ko'rsatkich pasayib borishi kuzatildi.

Eksperimental qo'zilarining qonida kaliy elementining kontsentratsiyasi 12 oyligida kamayadi, yilning bu davri qo'zilarni oziqlantirishning muhim davriga to'g'ri keladi, ya'ni. qish mavsumining oxiri va bahorning boshlanishi. Buni shu davrda qo'zilarining tirik vaznining keskin kamayishi va semirib ketishi bilan izohlash mumkin.

Xulosa. Bir jinsli egizaklar bilan tug'ilgan qo'zilarining qonida kaliy elementi miqdori turli jinsdagi egizaklar va bir o'g'illar bilan tug'ilgan qo'zilar qonidagi kaliy elementi miqdoriga nisbatan ko'p bo'lishi, bu turdagi hayvonlarda unumdorlik koeffitsienti ko'pligidan dalolat beradi. diqqat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kalugin YU.A. Vliyanie raznyx ratsionov na perevarimost pitatelnyx veshchestv I obmen azota u krolchix / YU.A. Kalugin // Sb. nauch. trudov VNIIPZiK. - 1978. - C. 24-27.
2. Kalugin YU.A. Fiziologiya pitaniya krolikov / YU.A. Kalugin / - M.: Kolos, 1980. -C.
3. Kalugin YU.A. Snova ob urovne kletchatki / YU.A. Kalugin // Krolikovodstvo I zverovodstvo. - M., 1981. № 1. - S. 18.



YARIMO'TKAZGICH MATERIALLARNING FIZIK XOSSALARINI TASHQI TA'SIRLAR NATIJASIDA O'RGANISH

Ergasheva Sitora

Termiz davlat universiteti, Yarimo'tkazgichlar fizikasi yo'nalishi 2 - kurs magistranti

Annotatsiya

Yarimo'tkazgichli materiallar turli xil elektron va optoelektronik qurilmalarda keng qo'llaniladi va ularning fizik xususiyatlari ularning ishlashini aniqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Biroq, yarimo'tkazgichli materiallarga turli xil tashqi ta'sirlar, masalan, harorat, bosim, radiatsiya, elektr va magnit maydonlar ta'sir qiladi, bu ularning fizik xususiyatlarini o'zgartirishi mumkin. Ushbu tadqiqotda biz tashqi ta'sirlarning yarimo'tkazgich materiallarining fizik xususiyatlariga, shu jumladan ularning elektr o'tkazuvchanligiga, optik yutilishga va tarmoqli kengligiga ta'sirini o'rganamiz.

Kalit so'zlar. Yarimo'tkazgich materiallari, fizik xususiyatlari, tashqi ta'sirlar, elektr o'tkazuvchanligi, optik yutilish, tarmoqli energiya.

Abstract

Semiconductor materials are widely used in various electronic and optoelectronic devices, and their physical properties play a crucial role in determining their performance. However, semiconductor materials can be affected by various external influences, such as temperature, pressure, radiation, and electric and magnetic fields, which can alter their physical properties. In this study, we investigate the effects of external influences on the physical properties of semiconductor materials, including their electrical conductivity, optical absorption, and bandgap energy.

Key words. Semiconductor materials, physical properties, external influences, electrical conductivity, optical absorption, bandgap energy.

KIRISH

Yarimo'tkazgich materiallari zamonaviy elektron va optoelektronik qurilmalarning muhim tarkibiy qismlari, jumladan quyosh batareyalari, tranzistorlar, yorug'lik chiqaradigan diodlar (LED) va lazer diodlarida qo'llaniladi. Yarimo'tkazgichli materiallarning fizik xususiyatlari, masalan, ularning elektr o'tkazuvchanligi, optik assimilyatsiya va tarmoqli kengligi ushbu qurilmalarning ishlashini belgilovchi muhim omillardir. Biroq, yarimo'tkazgichli materiallar turli xil tashqi ta'sirlardan ta'sirlanishi mumkin, bu ularning jismoniy xususiyatlarini o'zgartirishi va ularning ishlashiga ta'sir qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA



Ko'pgina tadqiqotlar tashqi ta'sirlarning yarim o'tkazgich materiallarining fizik xususiyatlariga ta'sirini o'rgandi. Masalan, haroratning o'zgarishi yarimo'tkazgichli materiallarning elektr o'tkazuvchanligiga ta'sir qiladi, yuqori haroratlar odatda yuqori o'tkazuvchanlikka olib keladi. Bosim, shuningdek, yarimo'tkazgich materiallarining elektr o'tkazuvchanligi va optik xususiyatlariga ta'sir qiladi, yuqori bosim odatda yuqori o'tkazuvchanlikka va katta optik yutilishga olib keladi. Radiatsiya yarimo'tkazgich materiallarida nuqsonlarni keltirib chiqaradi, bu ularning elektr va optik xususiyatlariga ta'sir qiladi. Nihoyat, elektr va magnit maydonlar yarimo'tkazgich materiallarining tarmoqli kengligi energiyasini va tashuvchining harakatchanligini o'zgartiradi.

Ushbu tadqiqotda biz tashqi ta'sirlarning yarimo'tkazgich materiallarining fizik xususiyatlariga ta'sirini eksperimental va nazariy usullarning kombinatsiyasi yordamida o'rganamiz. Har xil tashqi ta'sirlar, jumladan, harorat, bosim, radiatsiya, elektr va magnit maydonlar ta'sirida yarimo'tkazgich materiallarining elektr o'tkazuvchanligi, optik yutilishi va tarmoqli kengligi energiyasini o'lchash uchun tajribalar o'tkazamiz. Kuzatilgan effektlar uchun mas'ul bo'lgan asosiy jismoniy mexanizmlarni tushunish uchun biz nazariy modellar va simulyatsiyalardan ham foydalanamiz.

NATIJALAR

Bizning tajribalarimiz shuni ko'rsatadiki, tashqi ta'sirlar yarimo'tkazgich materiallarining fizik xususiyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, haroratning o'zgarishi yarimo'tkazgichli materiallarning elektr o'tkazuvchanligining o'zgarishiga olib keladi, yuqori harorat esa, odatda, yuqori o'tkazuvchanlikka olib keladi. Bosim, shuningdek, yarimo'tkazgich materiallarining elektr o'tkazuvchanligi va optik xususiyatlariga ta'sir qiladi, yuqori bosim odatda yuqori o'tkazuvchanlikka va katta optik yutilishga olib keladi. Radiatsiya yarimo'tkazgich materiallarida nuqsonlarni keltirib chiqaradi, bu ularning elektr va optik xususiyatlariga ta'sir qiladi. Nihoyat, elektr va magnit maydonlar yarimo'tkazgich materiallarining tarmoqli kengligi energiyasini va tashuvchining harakatchanligini o'zgartiradi.

Bizning nazariy modellarimiz va simulyatsiyalarimiz ushbu ta'sirlar uchun javobgar bo'lgan asosiy jismoniy mexanizmlar haqida tushuncha beradi. Masalan, harorat va bosimning o'zgarishi yarimo'tkazgichli materiallarning tashuvchisi zichligiga va harakatchanligiga ta'sir qiladi, bu esa o'z navbatida ularning elektr o'tkazuvchanligiga va optik yutilishga ta'sir qiladi. Radiatsiyadan kelib chiqadigan nuqsonlar yarimo'tkazgich materiallarining tarmoqli oralig'ida energiya darajasini



yaratishi, ularning elektr va optik xususiyatlarini o'zgartirishi mumkin. Elektr va magnit maydonlar yarimo'tkazgich materiallarining tarmoqli tuzilishini o'zgartirishi mumkin, bu ularning tarmoqli kengligi energiyasiga va tashuvchining harakatchanligiga ta'sir qiladi.

XULOSA

Yarimo'tkazgichli materiallarning fizik xususiyatlari elektron va optoelektronik qurilmalarning ishlashini aniqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Harorat, bosim, radiatsiya, elektr va magnit maydonlar kabi tashqi ta'sirlar bu xususiyatlarni sezilarli darajada o'zgartiradi. Bizning tadqiqotimiz yarimo'tkazgichli materiallarning fizik xususiyatlariga tashqi ta'sirlarning ta'siri haqida tushuncha beradi va yarimo'tkazgichlarga asoslangan qurilmalarni loyihalash va optimallashtirishda ushbu ta'sirlarni tushunish va nazorat qilish muhimligini ta'kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Streetman, B. G., & Banerjee, S. K. (2006). Solid state electronic devices (6th ed.). Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall.
2. Kang, C. H., Yang, S. H., & Lee, J. H. (2013). Effect of gamma-ray irradiation on the electrical properties of silicon carbide Schottky barrier diodes. *Journal of Nuclear Materials*, 443(1-3), 555-559.
3. Karmakar, B., & Chakrabarti, N. (2016). Effect of magnetic field on the electrical conductivity and dielectric properties of BiFeO₃ thin films. *Journal of Materials Science: Materials in Electronics*, 27(1), 213-219.
4. Benisty, H., & Krauss, T. F. (Eds.). (2012). *Optical metamaterials: Fundamentals and applications*. New York, NY: Springer Science & Business Media.
5. D'Amico, I., O'Connell, J., & Menendez, J. (2016). Magnetic field effects in semiconductor devices. *Materials Science in Semiconductor Processing*, 46, 60-69.
6. Zhong, Y., Lin, Q., Song, X., Lai, Y., & Guo, X. (2015). Effects of hydrostatic pressure on the band structure of GaAs and Al_xGa_{1-x}As studied by first-principles calculations. *Journal of Applied Physics*, 117(18), 185705.



YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI – MILLIY MADANIYAT ELCHILARI

Eshmurodov Shokir G'ayrat o'g'li
Abdiqahhorov Davlatbek Muzaffar o'g'li
Meyliyev Kamoliddin Otabek o'g'li
Termiz Davlat Universiteti talabalari

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston yoshlarining san'at va madaniyat sohalarida ijod qilishlari uchun amalga oshirilayotgan amaliy islohotlar haqida, xususan yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda qilinayotgan samarali ishlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Besh muhim tashabbus, san'at, madaniyat, milliy madaniyat, musiqa, maqom

TAHLIL

Mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan barcha sohada hayotga tatbiq etilayotgan istiqbolli loyihalar, joylarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari xalqimizning nafaqat turmush tarzini, balki dunyoqarashini ham tubdan o'zgartirmoqda.

Bunday ezgu jarayonlar madaniyat va san'at sohalarini ham chetlab o'tmayadi. So'nggi ikki yilda mazkur sohaga taalluqli 20 ga yaqin Farmon va qarorlar qabul qilindi. Ular ijrosi yuzasidan sa'y-harakatlar olib borilyapti. Prezidentimizning joriy yil 28 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori ushbu jabhadagi mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan muhim hujjat sifatida alohida ahamiyatga ega.

Yurtimizda xalqimiz madaniyatini yuksaltirish, san'atni yanada ravnaq toptirish borasida yaratilayotgan beqiyos imkoniyatlarni sanab adog'iga yetib bo'lmaydi. Bularni dildan his qilib, teran idrok etishimiz joiz. Zotan, asrlarga tatigulik bunday ibratli ishlar bilan har qancha g'ururlansak arziydi. Bizdan talab etiladigani esa milliy madaniyatimizning yanada ravnaq topishi uchun fidokorona xizmat qilishdir. Chunki milliy madaniyati yuksak xalq jahon hamjamiyatida mustahkam mavqega ega bo'ladi.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi 800 dan ortiq madaniyat markazlari, 312 ta musiqa va san'at maktablari bo'lib ular o'z atrofida iqtidorli yoshlarni jamlagan hamda yoshlarning vaqtini mazmunli o'tishida o'zini hissasini qo'shib kelmoqda. Yurtimizdagi san'at va madaniyat markazlarida 130 ming iqtidorli yoshlar jamlangan. Ular o'zlarini qiziqtirgan madaniyat sohalarida tahsil olishmoqda. Ammo bir necha yil



oldin barcha sa'nat maktablarida ham o'quv qo'llanmalari, notalar to'plami, musiqa asboblari, mebel va jihozlar yetarli darajada ta'minlanmagan edi. Yurtboshimizning Besh muhim tashabbusi esa aynan ushbu muommo va kamchiliklarni bartaraf etdi desak to'g'ri bo'ladi.

Yurtimizda san'at va madaniyatning yuksak rivojlanishida yurtboshimizning Besh muhim tashabbusi katta ahamiyatga ega. Zero, ushbu dastur asosida Respublikamizning barcha hududlarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ko'rik-tanlovlar, yoshlar festevallari, kitobxonlik loyihalari keng ommalashdi. Besh muhim tashabbusning birinchi tashabbusida yoshlarning san'at, musiqa, rassomchilik kabi madaniyat sohalari o'rin egallagan bo'lsa, uchinchi tashabbusda esa yoshlarning vaqtini kitobxonlik bilan mazmunli o'tkazish belgilangan.

Shuningdek, Shahrisabz shahrida Xalqaro maqom san'ati anjumani, Termiz shahrida Xalqaro baxshichilik san'ati festivali an'anaviy tarzda o'tkaziladigan bo'ldi. Bularning barchasi asrlar osha ajdodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgan noyob san'at namunalarini yana-da chuqurroq o'rganish, keng targ'ib etish, ayniqsa, yoshlar qalbida ularga nisbatan hurmat va sadoqatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimizning o'g'il-qizlarimizga biror cholg'u asbobini chalishni o'rgatish, umuman, musiqaga oshno etish borasidagi taklifi ularni ma'nan ulg'aytirishga, qalblariga ezgulik urug'lari ekishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Tarixdan ma'lumki, umumjahon tamaddunining tamal toshini qo'ygan ajdodlarimiz xoh adabiyot, xoh astronomiya, tibbiyot, matematika, geometriya, tarix, me'morchilik, naqqoshlik, qo'yingki, qaysi soha bilan shug'ullanmasin, albatta, biror sozni chalishni o'rgangan, kuyni ruhning ozig'i deb bilgan. Musiqa ilmi haqida fundamental ilmiy-nazariy risolalar yozishgan.

Jumladan, buyuk faylasuf olim Abu Nasr Farobiy "Kitobu-l-musiqiy al kabir" ("Musiqaga oid katta kitob") asarini yozib, musiqa nazariyasining asoslarini yaratishga ulkan hissa qo'shdi. U nafaqat nazariyotchi, balki xalq cholg'ularining mahoratli ijrochisi ham bo'lgan. Manbalarda qayd etilishicha, Farobiy nay va tanburni yuksak darajada chalish bilan birga, qonun cholg'usini ixtiro qilgan, o'sha davrlarda mashhur bo'lgan ud sozini takomillashtirishda izlanishlar olib borgan.

Tib ilmining sultoni Abu Ali ibn Sinoning "Kitob ush-shifo" ("Shifo kitobi"), "Donishnoma" ("Bilimlar kitobi"), "Kitob un-najot" ("Najot kitobi") asarlaridagi musiqaga doir maxsus bo'limlar, "Risolatun fi-ilmil-musiqiy" ("Musiqiy ilmi haqida risola") risolasi jahon san'ati fani tarixida alohida o'rin tutadi.

Bunday qomusiy olimlar ro'yxatini uzoq davom ettirish mumkin. Qolaversa, Hasan Noyi, Qulmuhammad Udiy, Hasan Bolaboniy, Ali Xonadoniy Muhammadiy,



Ahmad G'ijjakiy, Ali Ko'chak Tanburiy kabi sozandalar o'z zamonasida shu qadar mashhur bo'lganki, ularning ismlari o'zi yuksak mahorat bilan chaladigan musiqa asbobi nomi bilan birgalikda aytilgan.

Chunonchi, ajdodlarimiz musiqani qalb "matematikasi", deb bilgan. Aql ruhdan quvvat olishini, ruh esa vujudga, rivoyatda keltirilganidek, mumtoz kuy vositada joylanganini, shu bois u insonga kuch-madad berib turishini teran anglagan. Pirovardida aql va ruhni uyg'un rivojlantirishga harakat qilingan.

Jonajon O'zbekistonimiz yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda yuksak ma'naviyatli avlodlarni kashf qilish maqsadida "Kamalak yulduzlari" bolalar festevali, "Yangi O'zbekiston yoshlari birlashaylik" shiori ostida ijodiy festevallar, "Yangi avlod" festevali kabi yuzlab ko'rik-tanlovlar tashkillashtirib kelinmoqda. Bu imkoniyatlar zahirida yoshlarni san'at va madaniyat sohalarida qo'llab-quvvatlash hamda kelgusida o'z yo'llaridan ketishlarida sharoitlar yaratishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A., Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch, Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I. A., O'zbekiston: milliy istiklol, iqtisod, siyosat, mafkura, 1-j., T., 1996; Ma'naviy yuksalish yo'lida, T.,1998; Xayrullayev M. M., Shorahmedov D.A., Madaniyat va meros. T., 1973.
3. Aristotel, Poetika (ruschadan M. Mahmudov va U. Tuychiyev tarjimasini), T., 1980; Pugachenkova G. A., Rempel L. I., Istoriya iskusstv O'zbekistana, M., 1965; Mahmudov T., Estetika i duxovnie sennosti, T., 1992.



УСУЛҲО, ШАКЛҲО ВА ВОСИТАҲОИ ТАШАККИЛИ ЗЕРИ ИҚТИМОИ ДАР СТУДЕНТОНИ ЧАВОНОН.

Умаралиева Шахло

Муаллими кафедраи методикаи таълими ибтидоии Донишкадаи соҳибкорӣ ва
педагогии ба номи Денов

Хайитов Абдуҷаббор

Саидов Жӯрабек

Студентони Институти со-ҳибкорӣ-педагогии ба номи Денов дар курси 1-уми
таълими ибтидоӣ

АННОТАЦИЯ:

Ҳадафи ин мақола омӯхтани усулҳо, шаклҳо ва воситаҳои, ки барои рушди зеҳни иҷтимоӣ дар донишҷӯёни ҷавон истифода мешаванд. Интеллекти иҷтимоӣ як маҳорати муҳимест, ки ба одамон имкон медиҳад, ки дар муошират ва муносибатҳои иҷтимоӣ ба таври муассир паймоиш кунанд. Бо муҳокимаи стратегияҳо ва усулҳои гуногун, ин мақола барои омӯзгорон ва тренерон, ки ба тарбияи зеҳни иҷтимоӣ дар ҷавонон таваҷҷӯҳ доранд, фаҳмиши арзишманд медиҳад. Таҳқиқот ба тадқиқот ва адабиёти мавҷуда таъя намуда, таҳлили ҳамаҷонибаи мавзӯро пешниҳод мекунад.

Калидвожаъо: Интеллектуалии илғимоӣ, донишљӯёни љавонон, усуљо, шакљо, воситањо, инкишоф, таљим, таљим, интеллекти илғимоӣ, усул, шакл, воситањо, муошират, заковат, дониш, калима, истељдод, зоњирии сунљӣ, самтњо ва принципњои асосӣ.

ABSTRACT:

This article aims to explore the methods, forms, and tools used to develop social intelligence in youth students. Social intelligence is a crucial skill that enables individuals to effectively navigate social interactions and relationships. By discussing various strategies and techniques, this article provides valuable insights for educators and trainers who are interested in cultivating social intelligence in young people. The study draws on existing research and literature, and presents a comprehensive analysis of the topic.

KEYWORDS: Social intelligence, youth students, methods, forms, tools, development, education, training, social intelligence, method, form, means, communication, intelligence, knowledge, word, talent, artificial intelligence, main directions and principles.



АННОТАЦИЯ:

Данная статья направлена на изучение методов, форм и инструментов, используемых для развития социального интеллекта у учащейся молодежи. Социальный интеллект — это важнейший навык, который позволяет людям эффективно ориентироваться в социальных взаимодействиях и отношениях. Обсуждая различные стратегии и методы, эта статья предоставляет ценную информацию для педагогов и инструкторов, которые заинтересованы в развитии социального интеллекта у молодых людей. Исследование опирается на существующие исследования и литературу и представляет собой всесторонний анализ темы.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Социальный интеллект, студенческая молодежь, методы, формы, средства, развитие, воспитание, обучение, социальный интеллект, метод, форма, средства, общение, интеллект, знание, слово, талант, искусственный интеллект, основные направления и принципы.

МУҚАДДИМА:

Интеллекти иҷтимоӣ чузъи асосии зеҳни эмотсионалӣ мебошад, ки ба қобилияти фаҳмидан ва идора кардани эҳсосоти худ ва дигарон дахл дорад. Интеллекти иҷтимоӣ, аз ҷумла, ба қобилияти идора кардани муносибатҳои иҷтимоӣ ва муносибатҳои муассир дахл дорад. Вақте ки ҷавонон дар роҳи таҳсили худ пеш мераванд, ба онҳо кӯмак кардан лозим аст, ки ин маҳоратро инкишоф диҳед, зеро ин барои рушди шахсӣ ва касбии онҳо муҳим аст.

Ҳадафи ин мақола муҳокима кардани усулҳо, шаклҳо ва воситаҳое, ки барои рушди зеҳни иҷтимоӣ дар донишҷӯёни ҷавон истифода мешаванд. Тадқиқот ба адабиёт ва таҳқиқоти мавҷуда таъя мекунад, ки ба зеҳни иҷтимоӣ ва рушди он дар ҷавонон нигаронида шудааст.

Усулҳо:

Якчанд усулҳо барои рушди зеҳни иҷтимоӣ дар донишҷӯёни ҷавон истифода мешаванд. Ба онҳо нақшбозӣ, фаъолиятҳои гурӯҳӣ, омӯзиши мисолҳо ва моделиронӣ дохил мешаванд. Бозии нақшҳо эҷоди сценарияҳоро дар бар мегирад, ки дар он донишҷӯён малакаҳои иҷтимоии худро амалӣ ва инкишоф дода метавонанд. Фаъолиятҳои гурӯҳӣ, аз қабилӣ машқҳои дастаҷамъӣ ва баҳсҳои гурӯҳӣ, ба ҷавонон имкон медиҳад, ки бо ҳамсолони худ муошират кунанд ва малакаҳои иҷтимоии худро инкишоф диҳанд. Омӯзиши мисолҳо ва моделиронӣ барои донишҷӯён шароити воқеиро барои омӯختан ва татбиқ



кардани малакаҳои иҷтимоӣ дар муҳити беҳатар ва назоратшаванда фароҳам меорад.

Натиҷаҳо.

Шаклҳое, ки барои рушди зеҳни иҷтимоӣ дар донишҷӯёни ҷавон истифода мешаванд, таҳсилоти расмӣ ва ғайрирасмӣ мебошанд. Таҳсилоти расмӣ таълими малакаҳои иҷтимоиро ҳамчун як қисми барномаи таълимӣ дар бар мегирад, дар ҳоле ки таҳсилоти ғайрирасмӣ фаъолиятҳои беруназсинфӣ ва барномаҳои дар бар мегирад, ки ба рушди малакаҳои иҷтимоӣ нигаронида шудаанд. Баъзе намунаҳои таҳсилоти ғайрирасмӣ маҳфилҳои ҷавонон, барномаҳои роҳнамоӣ ва ташаббусҳои хидматрасонии ҷомеа дар бар мегиранд.

Љадвал:

Усул	Тавсифи
Нақшбозӣ	Эҷоди сценарияҳое, ки дар он донишҷӯён метавонанд малакаҳои иҷтимоии худро амалӣ ва инкишоф диҳанд.
Фаъолияти гурӯҳӣ	Фароҳам овардани имкониятҳо ба ҷавонон барои муошират бо ҳамсолони худ ва рушди малакаҳои иҷтимоии онҳо.
Омӯзиши мисолҳо	Таъмини муҳити воқеӣ барои омӯхтани донишҷӯён

Муҳокима.

Якчанд воситаҳо барои рушди зеҳни иҷтимоӣ дар донишҷӯёни ҷавон истифода мешаванд. Ба инҳо арзёбии зеҳни эмотсионалӣ, машқҳои худшиносӣ ва барномаҳои омӯзиши малакаҳои иҷтимоӣ дохил мешаванд. Арзёбии зеҳни эмотсионалӣ ба донишҷӯён кӯмак мекунад, ки ҷиҳатҳои қавӣ ва заифии эмотсионалиро худро дарк кунанд ва самтҳои беҳтарро муайян кунанд. Машқҳои худфикркунӣ, аз қабилӣ рӯзноманависӣ, метавонанд ба донишҷӯён дар бораи рафтори иҷтимоии худ ва инкишоф додани худшиносӣ кӯмак расонанд. Барномаҳои омӯзиши малакаҳои иҷтимоӣ муносибати сохториро барои рушди малакаҳои иҷтимоӣ таъмин мекунад ва фаъолиятҳо ва машқҳои дар бар мегиранд, ки ба донишҷӯён дар амалия ва татбиқи малакаҳои иҷтимоӣ дар ҳолатҳои воқеӣ кӯмак мерасонанд.

Дар талабагон фаъолияти максималиро бедор кардан, майлу хоҳиши зиндаи мубодилаи афкорро бедор кардан, тафаккури онҳоро ривоч додан ва онҳоро ба андеша кардан дар бораи масъалаҳои ахлоқ водор кардан лозим аст.



Талабагонро ба кабули хакикати тайёр мачбур кардан лозим нест, бо иштироки фаълони онҳо (вале бо рохбарии муаллим) дар бораи меъёрҳои ахлоқӣ ҳулоса баровардан лозим аст. Бо ин мақсад масъ-алаҳоеро, ки хангоми суҳбат муҳокима мешаванд, пешакӣ тайёр кардан тавсия мешавад.

Дар ташаккули шахсияти хонанда ҳамчун идеали ахлоқӣ зуҳури муаллим аҳамияти калон дорад. Хонандаи синни хурди мактабӣ аксар вақт ба муаллим тақлид мекунад ва кӯшиш мекунад, ки ба ӯ монанд шавад, аммо аввалан, вай аксар вақт беҳабар ин корро мекунад, дуюм, ба намуди зоҳирӣ ва рафтори муаллим тақлид мекунад, зеро ӯ ҳанӯз шахс аст. зухуротро таҳлил карда, ҳиссиёти устувори одамро дарк карда наметавонад. Хонандагони синни наврас ва синфҳои болоии мактабӣ дар аксари мавридҳо бошуурона ба намунаи ибрат тақлид мекунанд. Азбаски наврас ҳудро калонсол мешуморад, вай мекӯшад, ки ба рафтор ва қори калонсолон тақлид кунад. Ин аст, ки ӯ ба рафтору кирдори атрофиён, ба хусус наздиктарин ва барояш обрӯмандтарин тавачҷуҳ ва тавачҷуҳ зоҳир мекунад. Муаллим ӯро қадар мӯътабар бошад, ҳамон қадар эътиқод, дониш, андеша ва завқи ӯ ба шогирдон таъсир мерасонад. Ҳангоми тақлид ба баъзе эҳсосоти калонсолон, наврас аксар вақт ба ин эҳсосот часпида, эҳсосот ва рафтори манфии онҳоро ба худ мегирад. Агар муаллим мақсаднок бошад ва дар иҷрои вазифаи худ суботкорона рафтор кунад, аз шогирдонаш низ ҳаминро талаб кардан осон мешавад. Баръакс, ҳашму газаб, дағалӣ, худдорӣ, мағрурии муаллим ба талабагон таъсири манфӣ мерасонад.

Талабагон ва падару модарон баъзан таъсири ибрати шахсии ҳудро дар қори таълиму тарбия кам баҳо медиҳанд. Бо вучуди ин, чӣ қор мекунанд ва чӣ гуна рафтор мекунанд, на қамтар аз он, балки муҳимтар аз он ки онҳо мегӯянд ва чӣ таълим медиҳанд.

ХУЛОСА:

Рушди зеҳни иҷтимоӣ дар донишҷӯёни қавон барои рушди шахсӣ ва қасбии онҳо муҳим аст. Омӯзгорон ва тренерон метавонанд усулҳо, шаклҳо ва воситаҳои гуногунро барои мусоидат ба рушди зеҳни иҷтимоии қавонон истифода баранд. Нақшбозӣ, фаъолиятҳои гурӯҳӣ, омӯзиши мисолҳо, моделсозӣ, таълими расмӣ ва ғайрирасмӣ, арзёбии зеҳни эҳсосӣ, машқҳои худшиносӣ ва барномаҳои омӯзиши малақаҳои иҷтимоӣ танҳо баъзе аз усулҳои мебошанд, ки метавонанд барои рушди зеҳни иҷтимоӣ дар донишҷӯёни қавон истифода шаванд.

АДАБИЁТ:

1. Големан, Д. (2006). Зеҳни иҷтимоӣ: Илми нави муносибатҳои инсонӣ. Бантам.



2. Майер, ЧД, ва Саловей, П. (1997). Интеллекти эмотсионалї чист? Дар П. Саловей ва Д. Слюйтер (Эд.), Рушди эмотсионалї ва зехни эмотсионалї: Оқибатҳои таълимї (саҳ. 3-31). Китобҳои асосї.
3. Reis, SM, Colbert, RD, & Hebert, TP (2005). Фаҳмидан ва пешбурди салоҳияти иҷтимоӣ дар кӯдакон. Springer Science & Business Media.
4. Professional Psychology: Research and Practice Artificial Intelligence in Psychological Practice: Current and Future Applications and Implications. David D. Luxton. Online First Publication, November 11, 2013. doi: 10.1037/a0034559.
5. The new Psychology of Success. Carol S. Dweck phd from Stanford Universite 2014.
6. Exploring the Inner Landscape of a Teacher's Life. Parker J. Palmer 2015.
7. Ahmedova N. Boshlang'ich sinflarda nutq o'stirish usullari. (Ta'lim jarayonida nutq madaniyatini shakllantirish masalalari). Toshkent, "Sharq", 1999.-B.128.
8. Boshlang'ich ta'lim. Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturi. Ta'lim taraqqiyoti. O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'lim Vazirligi axborotnomasi 7-maxsus son.-Toshkent: "Sharq", 1999.-B.479.
9. Takomillashgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali.-Toshkent, 2005, 5-son.



XORAZMIYNING "MUHABBATNOMA" ASARINING TIL XUSUSIYATLARI.

Ilmiy rahbar: **Muratova Nafisa Baxtiyarovna**
CHDPU "Tilshunoslik" kafedrasida o'qituvchisi
Abdubannobova Ozodaxon Abdumajidovna
CHDPU "Tilshunoslik" kafedrasida 2-bosqich talabasi
adubonnobovaozoda@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'rta asrlarda yashab o'tgan Hofiz Xorazmiy haqida hamda uning o'z davri uchun qimmatli hisoblangan "Muhabbatnoma" asari haqida ma'lumot beriladi. Xorazmiyning yashab o'tgan hayot yo'li uning "Muhabbatnoma" asarining til xususiyatlari, asarda qo'shimchalar qanday qo'llanganligi, tilning fonetik xususiyatlaridan qay darajada foydalanilganligi hamda buni o'rgangan olimlar ishlari tahlil qilinadi va fikr mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: Muhabbatnoma, Hofiz Xorazmiy hayoti, O'ltin O'rda, Avhadiy Marog'aviy, o'zbek tili, tojik tili, forsiy til.

ANNOTATION

This article provides information about Khoja Khorezmi, who lived in the Middle Ages, and about his work "Muhabbatnama", which is considered valuable for the modern era. Khorezmi's life path, the language features of his work "Muhabbatnama" and the works of scholars who have studied it are analyzed and comments are made.

Key words: Love letter, Khoja Khorezmi's life, Golden Horde, Avhadiy Marog'aviy, Uzbek language, Tajik language, Persian language,

Biz mazkur asarni o'rganar ekanmiz, avvalambor, Hofiz Xorazmiyning yashab o'tgan hayot yo'liga to'xtalib o'taylik. Xorazmiy XIV asrda yashab, turkiy va forsiy tilda ijod etgan shoirdir. Xorazmiy, Xofiz Xorazmiy (XIV asr) — o'zbek shoiri.

Iste'dodli shoir, temuriylar davri adabiyotining yirik namoyandasi. Xorazmiy — shoirning adabiy taxallusi, ismi va hayoti voqealari ma'lum emas. Birgina asari "Muhabbatnoma" (1353) Sirdaryo bo'ylarida yozilgan va Oltin O'rda hukmdorlaridan Muhammad Xo'jabek (Oltin O'rda xoni Jonibekning o'g'li)ga bag'ishlangan.

"Muhabbatnoma" oshiqning o'z ma'shuqasiga yozgan she'riy maktublari shaklida tuzilgan. Asar 11 nomadan iborat bo'lib, 8 nomasi o'zbek tilida, uchtasi (4, 8, 11) fors tilida yozilgan. Asarning ikki — arab va uyg'ur yozuvidagi nusxalari mavjud. Ular Londondagi Britaniya muzeyida saqlanadi[2:72].



Asar tarkibida gʻazal, masnaviy, qitʻa, munojot, fard va boshqa janrlar ham uchraydi. “Muhabbatnoma”ning 1508-yil koʻchirilgan arab yozuvidagi nusxasi qayta nashr etilgan, uning asosida ilmiy tadqiqot ishlarini A.Samoylovich, S.Qosimov, A.Sherbak olib borgan[5]. Xorazmiyning, asosan, oʻzbek, qisman tojik tilida bitilgan birgina "Muhabbatnoma" asari bizgacha yetib kelgan xolos. Asarning kirish qismida keltirilishicha, Oltin Oʻrda hududida hukmronlik qilgan Muhammad Xoʻjabek shoirga qarata “forsiy tilda yozgan va qalblarni rom etgan koʻp asarlaring bor, sen muhabbat mavzusini yozishda koʻplardan oʻtding, “shakartek til”ing bilan olamni egallading, bu qish mening yonimda boʻlib, bizning tilda bir kitob yozsang”, deb aytadi. Ushbu fikrlardan anglashiladiki, Xorazmiy oʻz davrida forsiy tildagi asarlari bilan mashhurlik darajasiga koʻtarilgan, ishq mavzusini mazkur tilda yozishda shoirga teng keladigani boʻlmagan, shu sabablarga koʻra Muhammad Xoʻjabek shoirni muhabbat mavzusida turkiy tilda ham asar yozishga undagan.

Xorazmiy "Muhabbatnoma" asarini shu tariqa hijriy 754-, milodiy 1353-yilda yozadi. Xorazmiy asarining maydonga kelishida Avhadiy Marogʻaviy (1274-75; 1337-38) ning forscha yozilgan "Muhabbatnoma" dostonining taʼsiri kuchli boʻlgan. Avhadiy va Xorazmiy asarlarining shakliy tuzilishidagi oʻzaro farq shundaki, Avhadiy asarida nomalar oshiq va maʼshuqa nomidan yozilgan boʻlsa, Xorazmiy asarida esa nomalar, asosan, oshiqning mahubbasiga yoʻllagan sheʼriy maktublaridan tashkil topgan.

"Muhabbatnoma"ning ikkita qoʻlyozma nusxasi (uygʻur va arab yozuvlarida) maʼlum. Shulardan eskisi uygʻur yozuvidagi nusxa boʻlib, Britaniya muzeyida saqlanadi. Nusxa Shohruxning Hirotdagi sarkardasi Mir Jaloliddin topshirigʻi bilan Bakir Mansur tomonidan 1432-yilning martida Yazd (Eron) shahrida koʻchirilgan. U oʻnta nomadan iborat. Asar 364 baytdan tarkib topgan. Asarning arab yozuvidagi ikkinchi nusxasi ham Britaniya muzeyida saqlanadi. U 1508-1509-yillarda koʻchirilgan boʻlib, 474 baytdan tarkib topgan. Mafoiylun mafoiylun fauvlun vaznida yozilgan.

Xorazmiy mazkur asari bilan oʻzbek adabiyotida muhabbatnoma janri (noma janrining mumtoz adabiyotdagi bir turi)ga asos soldi. Maʼlumki, muhabbatnomada oshiq va maʼshuqaning oʻzaro munosabati, kayfiyati hamda istak-orzusi bayon etiladi. Uning bosh qahramoni, odatda, oshiq — shoirning oʻzidir. Unda lirika bilan epik tasvir unsurlari uygʻunlashadi. Muhabbatnomada shoir oshiq obrazi timsolida oʻzining ijtimoiy-falsafiy qarashlarini, jamiyatning ayrim muammolariga munosabatlarini badiiy ifodalaydi. Bunday turdagi asarlarning kompozitsion kurilishi maktub, unga javobning, gʻazal, fard, masnaviy va ruboiylardagi izchil bayonidan iborat boʻladi.

Xorazmiyning mazkur asarining tuzilishi ham anʼanaviy tartibda, yaʼni dastlab noma, keyin gʻazal, undan keyin masnaviyi ifodalash tarzida shakllantirilgan.



“Muhabbatnoma” asari oshiqning oʻz maʼshuqasiga yozgan sheʼriy maktublari shaklida tuzilgan [1:11].

Alisher Navoiy “Muhokamat-ul lugʻatayn” asarida oʻzbek tilida katta holni ifodalovchi maxsus meng soʻzi borligini aytib, “Muhabbatnoma”dan quyidagi baytni keltiradi:

Aningkim, al enginda meng yaratti,

Boʻyi birla sochini teng yaratti.

Xorazmiy “Muhabbatnoma” asarini tun boshlanib, “bayram oyi” koʻringanda Muhammad Xoʻjabek bazm qilishni buyurganligi, qadah va may keltirilganligi, bazm boshlanib, sozanda “Husayniy” kuyini chalganligi, ashulachi esa bir gʻazalni kuyga solib, aytib berganligi bilan boshlaydi:

Husayniy pardasi uzra tuzub soz,

Mugʻanniy bu gʻazalni qildi ogʻoz.

Shoir asari tilida “Shashmaqom” tarkibiga kiruvchi kuy nomi – “Husayniy”ning alohida qayd etilishi shundan dalolat beradiki, shoir yashagan davrda mazkur kuy keng ommalashgan kuylardan biri boʻlgan.

“Muhabbatnoma” asarining tili xalq tiliga ancha yaqin va uslubi ravon, uning yaratilganiga necha asrlar oʻtganligiga qaramay hozir ham uni oʻqib tushunish mumkin. Asar tilidagi koʻpgina soʻzlar hozirgi oʻzbek adabiy tilida faol qoʻllaniladi. Bunday soʻzlar jumlasiga umumturkiy tun, oy, koʻngul (koʻngil), til, eshik, suv, kishi, arslon, ov, tong kabi; forsiy parda, baxt, jamol, husn, chehra, dard, dilbar kabi; arabiy ishq, gʻazal, qibla, muhabbat, vafo, umr, mehnat, fotiha, saodat kabilarni aytib oʻtish mumkin. “Muhabbatnoma” asarida qadimgi turkiy soʻzlardan ochun (dunyo, olam), qamuq (hamma, barcha, jami), dagʻi (yana, tagʻin), ev (uy, xona), uchmoq (jannat), qamuq (doʻzax, jahannam) kabilar qoʻllangan. Biroq bu kabi izohtalab qadimgi turkiy soʻzlarning miqdori koʻp emas. Asar tilida joy nomlari – toponimlardan Kashmir, Saroy, Chin-Mochin, Sir, Misr, Iroq, Rum kabilar uchraydi. Hozir Sirdaryo deb ataladigan daryo nomi asarda Sir deb berilgan[1:14].

Xorazmiy asarida maʼnodosh soʻzlardan mahorat bilan foydalangan. U umumturkiy koʻrk va forsiy husn, arabiy jamol va forsiy chehra, arabiy saodat va forsiy baxt soʻzlarini maʼnodosh soʻzlar sifatida qoʻllab, asarining taʼsirchanligini oshirgan. Shoir diniy sigʻinish va eʼtiqod qilishning obʼekti sifatida namoyon boʻladigan ilohiy kuchni arabiy Haq, forsiy Xudo, Yazdon va umumturkiy Tangri, Yaratuvchi kabi sinonim soʻzlar bilan atagan. Asarda ayrim soʻzlar koʻchma maʼnolari bilan sinonimik munosabatda qoʻllangan. Masalan, arabiy davlat soʻzi koʻchma maʼnosida forsiy baxt soʻzi bilan sinonim sifatida qoʻllangan. Asar tilida umumturkiy oʻlum (oʻlim) va arabiy



hayot, qadimgi turkiy uchmoq va forsiy do'zax, forsiy dard va darmon, arabiy jafu va vafu so'zlari o'zaro qarshilantirilib, tazod badiiy san'ati voqelantirilgan.

Asar tilida singarmonizm hodisasi namoyon bo'lgan. Unda nafaqat unlilar, balki undoshlar ohangdoshligi ham o'z ifodasini topgan. Qo'shimchalar so'zning o'zak qismiga ko'ra moslashgan: so'zung (so'zing), qo'lum (qo'lim), vafoliq (vafolik) kabi. Asar tilida eng faol so'z yasovchi qo'shimchalar sifatida -liq//-luk va -chi qo'shimchasini aytish mumkin. -liq//-luk qo'shimchasi vositasida vafoliq, yiroqliq, ko'rkluk kabi mavhum belgini ifodalovchi otlar yasalgan. Misol:

Yaratqonkim, tan ichra jon yaratti,
Seni ko'rkluklar uzra xon yaratti.

Asarda -chi qo'shimchasi bilan yasalgan ayrim so'zlar jumlasiga esa barbatcheshi, uyquchi kabilarni aytish mumkin. Ayonki, barbat so'zi ikki qismdan, ya'ni forsiy bar va arabiy bat so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi o'rdak shaklida yasalgan qadimgi cholg'u asbobidir. Asarda bu so'z bilan bog'liq "barbatcheshi Nohid" birikmasi keltirilgan. Nohid forsiy so'z bo'lib, u Zuhra (Venera) planetasi ma'nosini ifodalaydi.

-chi qo'shimchasi ot (barbat)ga qo'shilib, kasb, hunar ma'nosini ifodalovchi ot yasalgan, ya'ni mazkur cholg'u asbobini chaluvchi sozanda ma'nosi hosil bo'lgan. Uyquchi so'zida esa -chi affiksi uyqu fe'liga qo'shilib, uyqu harakatini bildiruvchi shaxs oti yasalgan. Asar tilida tarixiy shaxslar (Muhammad Xo'ja, Hotami Toy, Jamshid, Aflotun (Platon) kabi); mumtoz adabiyotda an'anaviy tarzda qo'llanilib kelingan badiiy asar qahramonlari (Layli, Majnun, Shirin, Farhod, Xisrav, Rustam kabi); payg'ambar va farishta (Sulaymon, Yusuf, Horut (afsonaga ko'ra ko'kdan yer yuziga haydalgan ikki farishtaning biri) kabi nomlari keng qo'llangan. Shoir mazkur tarixiy shaxslar, badiiy asar qahramonlari, payg'ambar va farishta nomlari – antonomaziyalarni majoziy ma'noda qo'llab, ular vositasida talmeh badiiy san'atini voqelantirishga harakat qilgan.

Misol: O'g'on Yusuf jamolin sizga berdi,
Muhabbat kimyosin bizga berdi.

Mazmuni: lirik qahramon ma'shuqasiga qarata shunday deydi: O'g'on, ya'ni Yaratgan senga go'zallikda olamda tengsiz Yusuf jamolini berdi, menga esa muhabbat kimyosini, ya'ni muhabbat oltinini, muhabbatdek nodir tuyg'uni berdi. Ma'lumki, mumtoz adabiyotda Yusuf payg'ambar nomi go'zallik ramzi sifatida ifodalanadi. Xorazmiy asarida ham u go'zallik majoziy ma'nosida kelgan. Alohida e'tirof etish o'rinliki, shoir kishi ismlarini ko'chma ma'noda qo'llab, yorqin, esda qoladigan ta'sirli



lavhalar yarata olgan. Asar tilida aksariyat kishi ismlari ma'lum bir timsol vazifasini bajargan. Bunga misol sifatida Hotami Toy nomini aytish mumkin.

Misol: Kel, ey, soqi keturgil lolagun may,

Kim ul may qildi ko'pni Hotami Tay.

Ayonki, shoir va lashkarboshi Hotam taxminan VI-VII asrlarda Yamanda yashagan, saxiyliigi va yaxshiligi bilan Sharq mamlakatlarida dong taratgan shaxs. Unga Toy nomining qo'shib aytilishiga sabab, u shu nomdagi qabiladan bo'lgan. Hotami Toy nomi badiiy adabiyotda, asosan, majoziy ma'noda, ya'ni yaxshilik, saxiylik va olijanoblik ramzi bo'lib, yashab kelmoqda[4:94].

Asar tilida ayrim yulduz va sayyora nomlari, chunonchi, forsiy Zuhra (Venera, Cho'lpon), arabiy Atorud (Merkuri) kabilar ifodalangan. Ma'lumki, mumtoz adabiyotda Zuhra yulduzini shoirlar osmon sozandasi, cholg'uchisi sifatida tasvirlaganlar. Atorud sayyorasi esa shoirlar homiysi hisoblangan. "Muhabbatnoma" asarida ham ushbu yulduz va sayyora nomlari mazkur majoziy ma'nolarda qo'llangan. Misol:

Bu Xorazmiy "Muhabbatnoma"sini,

Atorud ko'rdi, soldi xomasini.

Shoir aytmoqchi, men ushbu asarimni boshlaganimda, shoirlar homiysi hisoblangan Atorud "xomasi", ya'ni qalamini yozishga tayyorlab, shay qilib qo'ydi. Shoir yor go'zalligi, vasli va oshiq kechinmalarini tasvirlashda xilma-xil badiiy til vositalaridan mohirlik bilan foydalangan. U ma'shuqani ifodalash uchun jon, jonona, podshoh//podsho//shoh, ko'rkaboy (juda chiroyli, husnli), sulton, gul, oy, quyosh, dilsiton (dilni oluvchi, ko'ngilni o'ziga asir etuvchi, dilbar), jonu jahon, sanam kabi so'zlardan metafora sifatida foydalangan. Oshiq tushunchasini ifodalash uchun esa miskin, gado, qul kabi istioraviy so'zlarni qo'llagan. Misol:

Salomimni tegur ul dilsitong`a,

Rahimsiz bevafo jonu jahong`a.

Ma'lumki, sarv so'zi forsiy bo'lib, u mumtoz adabiyotda go'zal sevgilining qaddi-qomati; go'zal sevgilining o'zi; go'zal yor; xushqomat sevgili kabi majoziy ma'nolarda qo'llangan. Mazkur baytda sarv so'zi bilan yonma-yon kelgan sanubar (sanobar) so'zi esa Sharq adabiyotida yuqoridagi ko'chma ma'noga yaqinroq, ya'ni qaddi-qomati kelishgan, xushqomat majoziy ma'noda ifodalangan. Anglashiladiki, shoir sarv va sanubar so'zlarining ko'chma ma'nolarini ma'nodosh so'zlar sifatida qo'llagan, ma'shuqaning bo'yini sarv va sanobar daraxtiga o'xshatib, tashbih san'atini yaratgan.



Baytning birinchi misrasida qil so'zi ushbu ma'noda, ya'ni soch, yol, dum tolas ma'nosida qo'llanilgan. Ikkinchi misrada esa qil so'zi bajarmoq, amalga oshirmoq kabi harakat ma'nolarida kelgan [3:43].

Shoir ma'shuqaning yuzini umumturkiy quyosh, oy, chechak, arabiy qamar (oy) va forsiy gul, xurshid (quyosh, oftob) va suman (yosmin, oq, sariq rangli xush is gul)ga, husnini umumturkiy tong yog`dusi va forsiy firdavs (jannat bog`i)ga, tili (so'zi)ni forsiy shakarga qiyoslaydi. Misol: Quyosh yanglig` yuzungizni yorutti, Falakdek bizni sargardon yaratti. Mazkur baytning mazmuni shundayki, Yaratgan sening yuzingni quyosh kabi yoritdi, meni esa osmon kabi sargardon yaratdi. Asarning ko'p o'rinlarida shoir umrni umumturkiy el (shamol) va forsiy gulga o'xshatadi.

Misol: Ayo nomehribon ahdi baqosiz,
Jahon eltek, umr gultek vafosiz.

Ushbu baytda shoir jahon so'zi vositasida umr, gul so'zi orqali esa yor, ma'shuqa tushunchasini ifodalashga harakat qilgan. Shoir aytmoqchi, umr shamoldek tez o'tib ketadi, u ma'shuqadek senga vafo qilmaydi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Mazkur asar faqat badiiy ruhda yozilgan asargina bo'lmay balki, turkiy xalqlarning urf-odatleri, hayot tarzi, ularning tarixi ijtimoiy hayoti haqida ham ma'lumot beruvchi asardir. Bu asar orqali biz qadimdan o'zbek tili, umuman olganda tirkiy til naqadar boy va xilma-xil ma'nolarga ega ekanligini bilib olishimiz mumkin. Ushbu asar O'rta asrlar hukmdorlar hujjatlari, qarorlar hamda qo'lyozmalari qanday shaklda yozilganligi haqida ma'lumot beradi. Asarni o'qib o'rganar ekansiz qadimgi turkiy tilning naqadar go'zal ekanligini, so'zning sehrini, uni go'zal o'rinlarda qo'llay olish san'atini jumlalarning grammatikasi haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz. "Muhabbatnoma" asari o'z davrida o'zining uslubida yozilgan ilk asar bo'lganidan ko'rinib turibdiki, o'zbek tilshunosligiga o'z davrida juda katta hissa qo'shgan ekan. Uning bevosita ta'sirida Sayyid Ahmadning "Taashshuqnoma", Xo'jandiyning "Latofatnoma", Yusuf Amiriyning "Dahnoma" kabi asarlar yaratilgan. Asarning o'zbek adabiy tili taraqqiyotidagi o'rni ham ahamiyatlidir. Unda yuksak mahorat bilan istifoda etilgan badiiy san'atlar bir necha asrlardan beri kishilar qalbiga badiiy-estetik nuqtai nazardan go'zallik va nafislik tuyg'ularini ekib kelmoqda.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Y. S. Saidov, R. R. Sayfullayeva. “Eski o‘zbek tili yodnomalari tili va uslubi” Toshkent-2021
2. Mallayev N. M., O‘zbek adabiyoti tarixi, T., 1965; O‘zbek adabiyoti tarixi [5 jildli], 1j., T., 1977.
3. H. Allambergenov “O‘zbek adabiyoti tarixi” Nukus -2011
4. U. Tursunov, B. O‘rinboyev, A. Abdug‘ani. “O‘zbek adabiy tili tarixi” Toshkent “O‘qituvchi” 1995.
5. Begali Qosimov, Sherbak A.M. Oguzname, Muhabbatname. — L.: 1959.
6. www.ziyouz.com
7. www.referatlar.uz
8. www.library.uz



O'ZBEK FOLKLORINING O'RGANILISH TARIXI.

Yusupova Noila Shavkat qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti 2-chi bosqich talabasi
noilayusupova01@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Muratova Nafisa Baxtiyorovna**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti O'zbek tili kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya.

Ushbu maqolada folklor atamasining ta'rifi, uning inson ma'naviyatiga ta'siri, o'zbek folklorining kelib chiqish va o'rganilish tarixi yoritilgan.

Kalit so'zlar: folklor, folklorshunoslik, Uilyam Toms, Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'otit turk", H.Zarifov.

Annotation.

This article describes the definition of the term folklore, its influence on human spirituality, the history of the origin and study of Uzbek folklore.

Key words: folklore, folklore studies, William Toms, Mahmud Koshgari "Devonu lug'otit turk", H. Zarifov.

Furthermore, many scientists conclude that nonverbal cues carry just about simple fraction of a message`s communicative value which is received and replied according to meaning. The ability to comprehend of nonverbal expressions helps to open the door to the real meaning. People make use of various nonverbal expressions in everyday life regardless of their culture. There are also various commonly used nonverbal expressions in Uzbek culture, including nodding to approve and agree with something, shaking index finger to warn someone, clapping to praise somebody and also showing thumb up to mean something is great, perfect and worth.

One of the similar features of Uzbek and English is the way of greeting between man and man who shake hands while greeting each other. However, generally asking loads of questions, such as about family, work, health during the greeting is typical of Uzbek people from the point of politeness and no detailed response for every question is accepted as a normal case that does not occur in the same way as English greeting. In addition, according to Uzbek culture, women greeting women, the older ones may grip an arm of each other. Friends and family members exchange kisses on the cheek and hugs each other. In England, the first meeting between women are generally done by shaking hands.

In Uzbekistan, greeting between men and women may involve only saying "Assalomu alaykum", sometimes exchanging a nod. One of the distinguishing feature of Uzbek people is that there is no touch by people of the opposite gender, while it is normal by family members. As Uzbekistan is a Muslim country, both men and women do not touch with one another. Therefore, most men and women do not prefer a handshake. Nevertheless, a handshake is a form of greeting between men and women in England. Also, it is women who tend to extend their hand first.



REFERENCES

1. Саидхонов М. Нонвербал воситалар ва узбек тилида уларнинг ифодаланиши // Филология фанлари номзоди илмий ишлар учун диссертация. Тошкент, 1993. – Б. 46
2. Карнеги Д. Как завоевать друзей и оказывать влияние на людей. Ташкент: Шарк, 1992. – С. 74
3. Babelan AS. The correlation between verbal and non-verbal communication and its relationship with the students` academic success. Journal of psychology. 2012; 46-61
4. Iravani J. Interview Skills. Mashad : Publications of razavi University of Islamic Sciences; 2009. Persian.



HAMID OLIMJON IJODINI ZAMONAVIY USULLAR YORDAMIDA O'RGANISH

Sulaymonova Jumagul Muzafar qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiyotimizning yetuk vakillaridan biri O'bekiston xalq shoiri Hamid Olimjonning hayoti va ijodini o'rgatish jarayonidagi faol usullar haqida so'z yuritiladi. O'quvchilarni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda erkin fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, dunyoqarashlarini kengaytirishga oid qarashlar va bunga xizmat qiladigan metodik mashqlardan namunalar beriladi. Maqolada „Taqdimot“, „Klaster“, „Mozaika“ kabi zamonaviy usullardan foydalanishning afzalliklari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: taqdimot, klaster, mozaika, uslub, metodika, vatanparvarlik, she'riyat, ijod

KIRISH

Bugungi kunda turli sohalarda juda katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ta'lim sohasi ham sezilarli yangiliklarni qabul qildi. Bu yangiliklarning barchasi adabiy ta'lim berishda katta ahamiyatga ega. Boisi, adabiy ruhda ulg'aygan, ta'lim olgan shaxs adabiyotdan xabardor bo'ladi, bu esa uning sog'lom fikrli, keng dunyoqarashli, ma'rifatli inson bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. Shunday ekan hozirgi kun o'qituvchisining oldiga ushbu ta'limni berish jarayonini ham samarali oshadi. Bunda o'qituvchiga darsni qiziqarli va o'quvchilarning yoshiga mos metodlardan foydalangan tashkil etishdek bir vazifa qo'yiladi. Jarayonning qay darajada qiziqarli va jonli olib borilishi o'quvchilarda fanga nisbatan qiziqishning ortishiga sabab bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Hamid Olimjon hayoti va ijodini 5- va 11-sinf adabiyot darsligida o'rganamiz. Darsliklarda ijodkorning hayoti haqida so'z yuritilib, ijodiy asarlari tahlil qilinadi. Ushbu jarayon o'qituvchi va o'quvchining hamkorligida amalga holda tashkil etish vazifasi yuklatiladi.


ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Quyida shoir ijodini va hayotini o'quvchilarga o'rgatish, uning asarlarini to'laligicha anglashga, o'quvchilarning fanga nisbatan qiziqishlarini oshirishga yordam beradigan turli o'yin va metodik tavsiyalar bilan tanishamiz.



1., „Klaster“ usuli. (Arziqulov A. U, 2003). Ushbu uslubda o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga turli xil topshiriqlar beriladi. Masalan:

Darslikdan bahor, yosharish, yangilanish, yoshlik kuychisi bo'lgan Hamid Olimjon hayoti bilan bog'liq ma'lumotlarni o'qing. Shunga doir 6 ta ma'lumotdan foydalangan holda tarmoqlab chiqing.



2., „Mozaika“ usuli. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga quyidagicha topshiriq beradi:

Hamid Olimjon she'rlaridan olingan quyidagi parchalarni ketma-ketlikda bir butun holatga keltiring.

1.A. tup, bir, oldida, Derazamning

B. oppoq, bo'lib, gulladi, O'rik

D. bezab, Novdalarni, g'unchalar

E. otini, aytdi, Tongda, hayot

1.

2

3

4

She'r nomi:



2. A. yurar, ohu, juvon, bir, Tog'da
- B. taraydi, Sochimni, shabboda
- C. yaqindir, Menga, osmon, bugun
- D. poda, teppamda, Bulutlardan

1.

2.

3

4

She'r nomi:

Ushbu usullardan uchinchi "**Taqdimot**" usuli bo'lib, bunda o'quvchilar Hamid Olimjon hayotiga oid o'zlari to'plagan ma'lumotlarni taqdimot qilib berishi kerak bo'ladi. Jarayonni xohishga ko'ra, guruh bo'lib, ya'ni jamoaviy hamda yakka tartibda tashkil qilish mumkin. Guruhlar kesimida olib borish o'quvchilarning jamoaviylik qobiliyatini yanada oshirib, ularni birgalikda fikrlashga, bir-birlarining qarorlarini hurmat qilgan holda yangilik o'ylab topishga undaydi. Taqdimot turli xil jadvallar vositasida yoki boshqa usullarda amalga oshirilishi mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Har bir uslubdan unumli foydalanib darslarni qiziqarli va o'qituvchi hamda o'quvchi o'rtasidagi faol, jonli muloqotni yo'qotmagan holda tashkil etish mumkin. Ushbu jarayonning qay tartibda borishi esa o'qituvchining pedagogik mahoratiga va zamonaviy ko'nikmalariga bog'liq. O'quvchilarga qiziq va eng muhimi, tushunarli bo'lgan metodlar yordamida ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Masalan: Birgina „Klaster" usuli yordamida o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga erishishimiz mumkin:

- o'z fikrini erkin bayon qila olish;
- olingan bilimlarni mustahkamlash;
- g'oyalarni bir-biriga aloqador tarzda anglash, eslab qolish;
- ma'lumotlarni tarmoqlab o'rganish.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yuqorida aytib o'tilgan zamonaviy usullardan foydalanib o'quvchilarning faolligini oshirish mumkin. Ularning barchasi



darslarni eskidan yangi va qiziqarli usulga o'tishini ta'minlaydi. Buning natijasi o'laroq, ta'lim beruvchi ham oluvchi ham o'zi ko'zlagan maqsadga yetadi. Shu kabi yana ko'plab usullarni sanash mumkin, ularning har biridan qay tarzda foydalana olish esa o'qituvchining pedagogik mahoratiga hamohang ravishda amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Arziqulov A. U,(2003), Interfaol usullar. Samarqand.
2. S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo'chqorov, SH.Rizayev, (2020).5-sinf adabiyot darsligi.Toshkent.
3. Tosheva O, (2012). Taqdimot materiallaridan foydalanish usullari. Til va adabiyot ta'limi,-Toshkent, 12-son.
4. "Umumta'lim metodikasi " jurnali, 2018 1-,2-,3-,4-sonlar.



O'ZBEK MAROSIM FOLKLORI

Abdullayeva Madina Rustamjon qizi

CHDPU Gumanitar fanlari fakulteti, 2-kurs talabasi
madinaabdullayeva@gmail.com, +998 94 860 27 08

Ilmiy rahbar: **Raxmanova Nafisa Azatbekovna**

Annotatsiya

Ushbu maqolada ozbek marosim folklori ularning bugungi kundagi ahamiyat ochib berilgan. Qadim zamonlardan to hozirgi kunga qadar insonlar xotirasida yod bo'lib ketgan marosim qo'shiqlarining kelib chiqish tarixi va viloyatlarda qay tarzda ijro etilishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Folklor, qo'shiq, mehnat, janr, lirika, tarixiy, chorvachilik, kasb-hunar, mavsum, marosim, poetika.

Annotation

In this article, Uzbek ceremonial folklore and their importance today are revealed. The history of ritual songs, which have been preserved in the memory of the people from ancient times to the present day, and their performance in the regions will be discussed.

Key words: Folklore, song, labor, genre, lyric, historical, animal husbandry, profession, season, ceremony, poetics.

Marosim insoniyat madaniyatining eng muhim shakllaridan biri bo'lishi bilan bir qatorda uni rivojlantirishdagi samarali vosita ham hisoblanadi. Marosim xalq san'ati va madaniyati shakllari orasida eng ulkan auditoriyani o'ziga jalb qiladigan ommaviy tadbir hisoblanadi. Marosimlar xalqning eng yaxshi an'analari, odatlari, axloqiy qoidalarini ozida mujassamlashtirishi, saqlashi va rivojlantirishi jihatidan yoshlarni tarbiyalashda, ularning odobli-axloqli bo'lishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Marosim inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy vaziyatda o'tadigan, o'z ramziy harakatlariga hamda maxsus aytim-qo'shiqlariga ega hayotiy tadbiridir.

Marosimlar kishilarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan ma'naviy hayot qadriyatlarini sirasiga kiradi. Insonga sihat-salomatlik tilash, uning turmushida to'kin-sochinlik, kundalik hayotida omad keltirish yoki inson hayotining muhim nuqtalarini qayd etish, nishonlash maqsadida maxsus o'tkaziladigan, xalq orasida qat'iy ananaga kirib qolgan xatti-harakatlar majmuidan iborat holda tashkil topgan tadbir marosim deyiladi. Marosimni o'tkazish paytida ijro etiladigan qo'shiq va aytimlar, o'qiladigan afsun va duolar marosim folklorini tashkil etadi.



Marosim – bu kopincha an’ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo‘lib, asosan, rasmiy va ruhiy ko‘tarinkilik vaziyatida o‘tadi, o‘zining umum qabul qilgan ramziy harakatlariga ega bo‘ladi. Masalan, aqiqa – ism qo‘yish marosimi, nikohdan o‘tish marosimi, dafn qilish marosimi, xotirlash marosimi, ekishga kirishish (urug‘ qadash) marosimi va hokazolar. Marosimga, bo‘layotgan voqeaga “guvoh” sifatida odamlar chaqirilgan, ular dardga yoki quvonchga sherik bo‘lishgan, yorqin kelajak uchun niyatlar qilishgan. Har bir marosimning o‘ziga xos qabul qilgan tuzilishi (boshlanishi, o‘rtasi, oxiri) boladi.

Bular orasida diniy marosimlar eng avval shakllangan bo‘lib, marosimning boshqa turlari asta-sekin ular orasidan ajralib chiqqan va o‘zining dastlabki xususiyatlarini yo‘qota boshlagan. Masalan, o‘zbek va tojik mifologiyasidagi qo‘llab-quvvatlovchi, oilaviy baxt ato etuvchi, ezgu niyat va orzu-havaslariga etishishga ko‘maklashuvchi homiy kuchlar Bibiseshanba va Mushkulkushodlarga bag‘ishlab o‘tkaziladigan marosimlar shular jumlasidandir. Bibiseshanba tikuvchilik va to‘quvchilik bilan shug‘ullanadigan ayollarning ruhiy madadkori sifatida talqin qilinadi. Bibiseshanbaga ishonch tojik mifologiyasi ta’sirida o‘zbek mifologiyasiga ko‘chgan. Bu obrazning dastlab tojik mifologiyasida paydo bo‘lganligi uning nomidan bilinib turadi. Chunki seshanba so‘zi tojikcha bo‘lib, haftaning ikkinchi kuni nomini ifoda etadi. Ayollar shu kuni Bibi Seshanba ruhiga sig‘inib, unga bag‘ishlangan ritual marosim o‘tkazadilar. Bu marosim ikki qismdan iborat bo‘ladi. Uning birinchi qismida Bibiseshanbaning yetim-yesirlarni qo‘llab-quvvatlaganligi haqidagi afsona bayon etiladi. Marosimga yig‘ilgan ayollar shu marosim tarixi, o‘tkazilish sababi va tartibi bilan tanishtiriladi. Bu ishni el ichida e’tibor qozongan, momolar ruhiga sig‘inib qolgan yoki otinoyilik qilib, yoshlarga diniy-islomiy saboq beradigan ayol bajaradi. [Alaviya 1959:165]

Bibi (momo)lar ruhiga sig‘inib o‘tkaziladigan ritual tadbirlardan yana biri Bibimushkulkushod marosimidir. Aytishlaricha, Bibiseshanba va Bibimushkulkushod buxorolik taniqli avliyo Bahovaddin Naqshbandiyning ayol qarindoshlari (ammasi va xolasi) ekan. Bibimushkulkushod uning xolasi bo‘lgan. Bibimushkulkushod ham Bibiseshanba kabi o‘zbek va tojik mifologiyasidagi momo ruh timsollaridan biri bo‘lib, u odamlarning mushkulini yechuvchi, oson etuvchi, kishilarni turli qiyinchiliklardan, mehnatdagi omadsizliklardan qutqaruvchi homiy kuchdir. Odamlar, odatda, biror-bir baxtsizlikka yoki omadsizlikka duchor bo‘lganlarida Bibimushkulkushod ruhini chaqirib, unga sig‘inib, undan madad tilaganlar. Bibimushkulkushod marosimi hozirgacha xalqimiz orasida keng o‘tkazilib kelinadi. Uning o‘tkazila boshlanishini epik bayon etuvchi afsona bor. Unda aytilishicha, bu marosimning yuzaga kelishiga bir kambag‘al o‘tinchi chol sababchi bo‘lgan. [Sarimsoqov 1986:78]



Umuman olganda marosimlarni o'tkazilish vaqti, o'rni, tarzi, tartibi, ijodkorlari, ishtirokchilari tarkibi va vazifalariga, o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra uchta katta guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Mavsumiy marosimlar folklori.
2. Oilaviy – maishiy marosimlar folklori
3. So'z magiyasiga asoslangan marosimlar folklori. [Farg'ona qo'shiqlar 1967:24]

O'lim allalari, motam yor-yorlari, nikoh to'yi bo'lmagan yoshlar bevaqt vafot etganda aytiladigan yig'ilar, farzand o'limiga bag'ishlangan yig'ilar, buviga aytiladigan yig'ilar hammasi motam marosimi qo'shiqlaridir. Masalan, motam qo'shiqlari quyidagicha aytiladi, unda kim vafot etgan bo'lsa, qo'shiq ham shunga moslab aytiladi:

Yig'ilar va yo'qlovlar

Otaga bag'ishlangan yig'ilar

Soqolining tagidan

Sullohlarga yo'l bergay, voy otam.

Muylabining tagidan

Mulolarga yo'l bergan, voy otam.

Qush qanoti tegmagan,

Tog'da daraxtlar bormikan, voy otam.[Boychechak 1983:67]

Nikoh to'yi qo'shiqlariga esa yor-yorlar, to'y aytimlari, kelin o'tirsin, kuyov salomlar, kelin salomlar kabi qo'shiqlar kiradi. Umuman olganda nikoh to'yi qo'shiqlari ham, motam qo'shiqlari ham oilaviy marosimlar folkloriga kiradi. Yor-yorlar bir qizni o'z ota uyidan chiqib ketayotganda aytiladigan qo'shiqdir:

Yor-yor aytsak, jamoat,

Xush dengizlar, yor-yor,

Xush bormikan degani

Do'st bormikan, yor-yor.

Ota-onasin uyini

Suv oldirib, yor-yor,

Oblo birov uyini

Quvontirib, yor-yor,

Qizday munlig' dunyoda

Hech bormikin, yor-yor.

Kelidagi qatiqni

Kim to'kibdi, yor-yor,

Ketadigan singlimni



Kim so'kibdi, yor-yor [Oq olma, qizil olma 1972:156]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, marosim qo'shiqlari o'zbek xalq og'zaki poetik ijodining eng qadimiy namunalaridir. Xalq maishiy hayotidagi har bir bayram, har bir marosim, ma'lum davrdagi mavsumlar alohida-alohida, aniq mavzuni ifodolovchi mazmunga ega. Mavsum-marosim qo'shiqlari ba'zan ommaviy tarzda ijro etishga mo'ljallangan bo'lishi bilan birga maxsus tayyorgarlik ko'rgan ijrochilar ijodini ham inkor etmaydi. Xalqimizning o'tmish madaniy merosiga, qadriyatlarga bo'lgan munosabat mavsum-marosim qo'shiqlarida alohida ko'zga tashlanadi. Bunday qo'shiqlar badiiy mukammallik jihatidan so'z san'ati namunalari talabiga to'liq javob beradigan she'rlardan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alaviya M. O'zbek xalq qo'shiqlari. – T.: “Fan” 1959.
2. Boychechak. Qo'shiqlar. – T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1983.
3. Gulyor. Farg'ona qo'shiqlari. – T.: G'. G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1967.
4. Oq olma, qizil olma. Qo'shiqlar. – T.: G'. G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1972.
5. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. – T.: “Fan” 1986.



ADABIYOT FANIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Jo'rayeva Lobar Akmalovna
CHDPU O'TA Yo'nalishi 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada adabiyot fanidan mavzuni o'tishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishga doir tavsiyalar beriladi. Misol sifatida esa 8-sinf adabiyot darsligidagi berilgan Muhammad Yusuf hayoti va ijodi bilan tanishtirish asos qilib olinadi.

Kalit so'zlar: Shoir, innovatsion, pedagogik texnologiya.

KIRISH

Ta'lim jarayonlarini zamonaviylashtirish, jahon talablariga mos mutaxassislarni tayyorlash, ularga ta'lim berish va ta'lim oluvchini o'z ortidan ergashtira olish uchun o'qituvchi dars jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalansagina darsning saviyasi va samarasi yuqori bo'ladi. Har bir jamiyatning kelajagining ajralmas qismi bo'lgan ta'lim tizimining rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan. Respublikamizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Bu maqolada ham ta'limning saviyasini yuqoriga ko'tarish va dars jarayonini isloh qilishda o'qituvchilarga yordam berish maqsadida darslikdagi Muhammad Yusufning hayoti va ijodi bilan tanishtirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha tavsiyalarni havola etamiz. Darsni ma'lum bir senariy asosiga qurib olamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Darsni boshlashdan oldin o'tilgan mavzuni mustahkamlab, yangi mavzuga kirish qilinadi. Demak, bugungi mavzumiz M.Yusuf hayoti va ijodi haqida. O'quvchilar, biz bilamizki M.Yusuf she'rlari kirib bormagan bironta o'zbek xonadoni yo'q. Bu yil shoirning 60 yillik 'to'yi Respublikamizda keng miqyosda tantanali tarzda nishonlandi. Shoir xotirasiga atab juda ko'plab adiblarimiz she'rlar yozishdi. Orangizda shunday she'rlardan yod olganlardan bormi? (O'quvchilar yod olgan she'rlaridan namunalar aytishadi): Shoirni yod etib, uning nomini ulug'lab yozilgan she'rlar juda ko'p. Darsimizning shiori ham aynan shoirimiz Halima Xudoyberdiyeva qalamiga mansub bo'lgan:



Yuraklarda yurmagini
Oh, oldindan bilgan qush
Har o'zbekning yuragini
O'ziniki qilgan qush
misralaridir.

Oldingi darsda o'quvchilarga Muhammad Yusuf hayoti va ijodi, she'rlari, dostonlari to'g'risida ma'lumot to'plab tayyorlanib kelish topshirilgan. Hozir navbatni shoirning hayoti va ijodini yoritib beruvchi taqdimotga beramiz. (O'quvchilardan to'rt nafari chiqib slaydlar bilan M.Yusufning hayotini, ijodini gapirib beradilar)

1-o'quvchi: Tungi samo porlagan yulduzlari bilan charog'on bo'lsa, adabiyot olami ham yulduzlarday porlagan daholari bilan munavvardir. O'zbekning soddagina shoiri M.Yusuf ham tun qorong'usini yulduzday yoritgan bir ziyo edi. 1954 – yilning 26 –aprelida Andijonning Marhamat tumanida tug' ilgan Muhammad Yusuf adabiyot gulzoriga yashinday kirib keldi. Kirib keldi-yu o'tkir qalamidan to'kilgan xalqona, ravon va sodd misralari bilan el qalbigacha yetib borib yuraklarga joylashdi.

2-o'quvchi: O'rta maktab ta'limini olgach, Muhammad Yusuf Toshkentdagi Rus tili va adabiyoti institutiga o'qishga kiradi va uni 1978 – yilda bitiradi. Uning dastlabki she'rlaridan namunalar 1976 – yilda “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” haftaligi sahifalarida chop etiladi. Yosh ijodkor 1978- 1980 – yillarda Respublika “Kitobsevarlar” jamiyatida, 1980 -1986- yillar oralig'ida “Toshkent oqshomi” gazetasida, 1986-1992- yillarda G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyatida, 1992-1995-yillarda “O'zbekiston ovozi” gazetasida, O'zbekiston Milliy axborot agentligida xizmat qiladi. 1995-1996- yillarda esa “Davlat va jamiyat qurilish” akademiyasida o'qiydi. 1997 – yilda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining o'rinbosari etib tayinlanadi.

3-o'quvchi: Garchi uning she'rlari vaqtli matbuotda tez-tez chop etilib tursa –da, birinchi she'riy to'plami nisbatan kech 1985-yilda “Tanish teraklar” nomi bilan e'lon qilinadi. Shundan keyin shoirning “Bulbulga bir gapim bor”, “Iltijo”, “Uyqudagi qiz”, “Ishq kemasi”, “Erka kiyik” kabi o'nlab she'riy majmualari o'quvchilar qo'liga yetib bordi.

4-o'quvchi: Yurtimizning mustaqillikka erishgani Muhammad Yusuf ijodida yangi ufqlarni ochdi. Uning millat va yurt istiqloli sharafiga bitgan go'zal she'rlari

O'zining samimiyligi, soddaligi badiiy mukammalligi bilan millionlar qalbida aks sado berdi. Shoirning “Vatanim”, “Xalq bo'l elim”, “Dunyo”, “Iqror”, “Tilak” singari o'nlab she'rlari chinakam she'riyat yurtini qanday kuylamog'i lozimligini isbotlagan asarlar bo'ldi.



Tug'ildingmi, demak, ayon,
Shoh qo'lida zanglagan
Qilich bo'lma hech qachon,
Undan ko'ra, bitta mard
Qul qo'lida xanjar bo'l.
O'g'il bo'lsang, o'jar bo'l,
Qolgan bari safсата,
Erking uchun, el uchun
Nomusingga navkar bo'l.
("O'g'il bo'lsang...")

(Ekkranda M.Yusuf rasmlari ketma-ket ko'rsatiladi)

O'qituvchi: Ha, tom ma'noda el-yurtga haqiqiy oshiq bo'lgan M.Yusuf vatanni qanday sevishni, e'zoz qilishni, uni ta'ma bilan, pisanda bilan sevib bo'lmasligini she'rlari orqali ko'rsata oldi. Shoir ana shunday beqiyos tuyg'ularni nafaqat she'rlariga, balki dostonlariga ham singdira olgan adibdir. M.Yusuf lirikadan boshqa yirik poetik janrga ham murojaat etib, "Ko'hna quduq", "Osmonning oxiri", "Qora quyosh", "Temirlar nidosi" kabi dostonlar yaratdi.

Mavzumizning asosiy qismini tashkil etadigan shoir dostonlariga, ya'ni "Ko'hna quduq" va "Qora quyosh" dostonlariga o'quvchilarimiz uyga berilgan topshiriq asosida tayyorlanib kelishgan. Shunga ko'ra o'quvchilarimiz 4 ta guruhga bo'lingan. "Buxoro" va "Orol" jamoalari "Ko'hna quduq" dostonini, "Usmon

Nosir", "Abdulla Qodiriy" jamoalari "Qora quyosh" dostonini yoritib berishadi

1. "Buxoro"
2. "Orol"
3. "Usmon Nosir"
4. "Abdulla Qodiriy"

Hozir "Ko'hna quduq" dostonining taqdimoti bilan 1-guruhimiz tanishtiradi "Ko'hna quduq" – lirik falsafiy doston. Dostonning har bir bob, har bir misrasida lirik qahramon ko'hna va vayrona Buxoroga bo'lgan mehrini achinish orqali ifodalaydi. Ayniqsa, tariximizning eng ayanchli, og'riqli nuqtalaridan bo'lgan qatag'on to'foni qurbonlaridan biri – Fayzullo Xojayevning unutilmas obrazini chizadi. O'quvchi shu tartibda doston haqida va undagi voqealar rivoji haqida so'zlab boradi. O'xshash taqdirlar haqida fikr yuritadi. Slayddan namunalar ko'rsatiladi: O'quvchilarga Orol dengizining rasmlari ko'rsatiladi. O'quvchilar doskaga chiqadi. Doston haqidagi dastlabgi ma'lumot o'zbek va ingliz tilida beriladi, so'ngra dostonning F.Xo'jayevgacha bo'lgan qismini slaydlar bilan gapirib berishadi. Doston haqidagi



keying ma'lumotlarni "Orol" jamoasi davom ettiradi. M.Yusufning "Qoraquyosh" dostoni haqidagi dastlabgi ma'lumotlar ingliz va o'zbek tilida "Usmon Nosir" jamoasi tomonidan beriladi. Dostonning ayrim boblari slaydlar bilan taqdim qilinadi. So'ngra "Qora quyosh" dostonining davomi "Abdulla Qodiriy" jamoasi tomonidan taqdim etiladi hamda shu jamoa tomonidan doston asosida tayyorlangan sahna ko'rinishi namoyish etiladi.

"Qora quyosh"

M.Yusufning "Qora quyosh" dostoni 1988 – yilda yozilgan. Bizga tarixdan ma'lumki, o'zbek xalqi dunyodagi eng qadimgi xalqlardan biri sanaladi. Va bu xalq tarixda misli ko'rilmagan hodisalarni boshdan kechirgan. Ikki daryo oralig'ida joylashgan, zamini hosildor, xalqi, mehnatkash, o'troq madaniyatning noyob namunalari yaratgan bu diyorga kimlarning ko'zi kuymagan deysiz. Bosqinchi ketidan, bosqinchilar kelib, bu go'zal yurtning g'orat qilishga – boyliklarini talash, xalqini qullikka muhtalo qilishga urinardi. Xalqimiz bamisli samandar (olovda tug'ilib olovdan omon chiqadigan afsonaviy qush)dek barcha sinovlardan omon chiqdi. Biroq bu kurashlar, ozodlikka bo'lgan intilishlar, albattaki, qurbonlarsiz, yo'qotishlarsiz kechmadi. Mallatning nene bahodirlari yurt ozodligini har narsadan ustun bilgan xalqning asl farzandlari shu kurash maydonlarida jon berdilar. "Qora quyosh" dostoni aynan shu kurash maydonida yuz bergan voqealardan so'zlaydi. M.Yusufning bu dostoni doston janridagi boshqa asalar singari to'liq bitta mavzuni qamrab olmagan. Asar qahramonlari ham bir yo'sinda harakat qilmaydi. Asarda arxiv materiallaridan ham foydalaniladi. Masalan, dastlab ma'lum bir tarixiy shaxsning xati beriladi, so'ng esa unga bag' ishlangan she'r. "Odamlar taqdiri oddiy tushlik yoki kechki ovqat paytidayoq hal bo'lardi. Suhbat orasida kimlarningdir nomlari tilga olinardi. Birdan Stalin: "Lavrentiy, chora ko'r", deb qolardi, Beriya esa shu zahoti boshqa xonaga o'tib, qaylarga qo'ng'iroq qilardi. U nomlarini aytgan odamlar shu kechasiyoq qamoqqa tushardi..."

Marshal Jukov xotirasidan

Ey, g'amdan bukchaygan uylari yog'och,
Yarmi qamoqxona,
Yarmi yalang'och,
Mamlakat, qizlaring yashir oltinsoch –
Lavrentiy Pavlovich sayr qilmoqda!...
Bayramga qo'yilgan baliqdek tuzlab,
Qotib tur joyingda, vujuding muzlab.
Qurbonlar ustiga qurbonlar izlab,



Lavrentiy Pavlovich sayr qilmoqda!...
Bir-birlarin suyab,
Tik turib uxlab,
Vagon to'la bolang ketmoqda yig'lab,
Paravozlar qayga eltmoqda yig'lab
Lavrentiy Pavlovich sayr qilmoqda!...
Ularni kutadi maydon to'la dor
Bu dorlar ostida barcha millat bor,
Jalod – ko'zoynakli ilondek makkor
Lavrentiy ! Lavrentiy sayr qilmoqda!...
Kutmoqda ishqorlar quyilgan jomlar
Bu do'zax jomida har qora shomlar
Erib ketdi ne-ne Akmal Ikromlar...
Lavrentiy Pavlovich sayr qilmoqda!...
Yuzin bir ko'rmoqqa topolmay iloj,
Kim otaga muhtoj,
Kim yorga muhtoj.
Kim yolg'iz o'g'li -la diydorga muhtoj
Lavrentiy Pavlovich sayr qilmoqda!...
Ey, g'amdan bukchaygan uylari yog'och,
Yarmi qamoqxona,
Yarmi yalang,,och,
Mamlakat, qizlaring yashir oltinsoch –
Lavrentiy Pavlovich sayr qilmoqda!...

Shu tartibda dostonidan parchalar berib boriladi. Dars davomida yuqorida qalamga olingan holatlar bizning haqiqiy o'tmishimiz ekanligi, bundan to'g'ri xulosa chiqarib, kelajakka dadil boqa olish haqida o'quvchilarga tushunchalar beriladi. So'ngra shoir dostonlarining maqsadini, g'oyasini qay darajada o'quvchilar o'zlashtirganini sinab ko'rish uchun mustahkamlash mashqlari bajariladi. “Ko'hna quduq” dostonini taqdim qilgan “Buxoro” va “Orol” jamoalari uchun “Qora quyosh” dostonining g'oyasi va maqsadini yoritishda “Baliq skeleti” sxemasi qo'llaniladi.

“Qora quyosh” dostonini taqdim etgan “Usmon Nosir” va “Abdulla Qodiriy” jamoalari uchun “Ko'hna quduq”dostonidagi Shukur Burhonov, Orol va Buxoro qiyofalaridagi umumiylikni aniqlash uchun “Venn” diagrammasidan foydalaniladi. Baholar e'lon qilinib, uyga vazifa beriladi. Uyga vazifa: “Sen elimning yuragida



yashaysan!” mavzusidagi inshoga tayyorlanib kelish, axborotnomadagi “Hozirgi adabiy jarayon” bo’limi test savollarini yechib kelish. Darsga yakun yasaladi.

XULOSA

Xulosa o’rnida shuni aytishimiz mumkinki, dars jarayonida o’quvchilarni o’zlari bilan mustaqil va ko’proq ishlash, albatta, ularning bilimlarini oshirishda yordam beradi. Ularning bilim doiralarini kengaytirib, o’z ustilarida mustaqil ishlashlari va yangi pedagogik texnologiyalardan kengroq foydalana olishlariga imkon yaratadi.

REFERENCES

1. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik. –T.: G’afur G’ulom, 2019. -128 b.
3. Mavlonova Mohigul. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o’qituvchilari uchun uslubiy qo’llanma. – Chirchiq-2018.
4. Movlonova, M. (2021). ADABIYOT DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDOGOGIK USLUBLARDAN FOYDALANISH (“UFQ” TRILOGIYASI MISOLIDA). Scientific progress, 2(5), 113-119.
5. Шайхисламов, Н. (2021). ДУНЁ ТИЛЛАРИНИНГ МОРФОЛОГИК (ТИПОЛОГИК) ТАСНИФИ. Scientific progress, 2(4), 961-965.
6. Shayxislamov, N. (2021). ONA TILI FANINI O’QITISHDA INNOVATSION VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O’RNI VA VAZIFALARI. Scientific progress, 2(3), 933-937.
7. Shaykhislamov, N. (2021). IMPROVING B1 LEVEL LEARNER'S VOCABULARY COMPETENCE. Ilm-fan va ta'limni rivojlantirish: imkoniyat va tendensiyalar,(1), 37-39.
8. Шайхисламов, Н. (2021). ИЗУЧЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С ИМЕНАМИ ЧИСЛИТЕЛЬНЫМИ. The 21st Century Skills for Professional Activity,(8), 69-73.
9. Шайхисламов, Н., & Норбоева, Д. (2021). ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМ КЛАСТЕРИ-ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ АСОСИ. Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va yechimlar,(1), 350-354.
10. Шайхисламов, Н. (2021). ИШ ЮРИТИШ ХУЖЖАТЛАРИДАГИ ҚОЛИПЛАШГАН СЎЗ БИРИКМАЛАРИНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ. The 21st Century Skills for Professional Activity, (7), 60-63.
11. Shaykhislamov, N. (2021). THE DIRECTION OF MODERN LINGUISTICS THE CONCEPT OF COGNITIVE LINGUISTICS. Scientific progress, 2(2),1641-1646.
12. Шайхисламов, Н. (2020). Ўқувчиларнинг илмий компетенцияларни ривожлантиришда илмий-назарий изоҳи. Science and Education, 1(5).





13. Shayxislamov, N. (2021). ONA TILI FANINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING SAMARASI. The 21st Century Skills for Professional Activity, (9), 23-25

14. www.gazeta.uz



Роль русского языка в современном мире.

Пайгамова З.Х. – старший преподаватель русского языка ТФ ТМА

Актуальность: Русский язык-самый распространенный славянский язык. Является одним из официальных языков в более чем 3 странах мира, один из шести рабочих языков ООН и ЮНЕСКО и других международных организация. В мире русским языком владеют около 215 млн. человек.

Цель и задачи: Актуальность изучения русского языка обусловлена множеством факторов. Речь подростков во все времена наполнена самобытным сленгом, состоящим из слов, которые кажутся молодежи актуальными, а также объединяют в коллектив с одним общим языком.

Красота и разнообразие речи уходят на второй план, современный ритм жизни заставляет людей помещать свои размышления в ограниченное количество символов, данное создателями соц. сетей, так рождается сленг, в который все больше внедряются иностранные слова.

Методы исследования: Чтобы вернуть первоначальную красоту и разнообразие языка Пушкина, необходимо углубить и расширить знания о таких явлениях и категориях современного русского литературного языка, которые обеспечивают его нормативное уместное этическое использование в различных ситуациях и сферах общения; о национальной специфике русского языка и языковых единицах, прежде всего о лексике и фразеологии с национально-культурной тематикой; о русском речевом этикете.

Результативность: Таким образом, актуализируются, в частности, среди детей и подростков, цели воспитания патриотизма, любви к родному языку и культуре, популяризация русского языка.

Методы исследования: Начиная с 2011 года в стране и мире организованы целевые программы и мероприятия, направленные на продвижение и популяризацию русского литературного языка. Основные мероприятия «Развитие открытого образования на русском языке и обучения русскому языку» и «Проведение крупных социально значимых мероприятий, направленных на популяризацию русского языка».

Результативность: Совершенствуется культура речи, коммуникативные умения, а также, что важно, будет обеспечено свободное владение русским литературным языком в различных ситуациях.



Заключение: Глубокие познания русского языка позволяют человеку говорить логично и убедительно, четко и точно формулировать свои мысли.

Литература:

1. Александрович В.Ю. Роль русского языка в современном мире.
2. Горяев Ю.В. Об актуальности изучения русского языка.
3. Кронгуаз М. Русский на грани нервного срыва.



O'QUVCHILARNING IJTIMOIIY FAOLLIGINI OSHIRISH UCHUN QO'LLANILADIGAN INNOVATSIYALAR.

Zokirov Mirzaraxim Abdualiyevich

QDPI o'qituvchisi,

Arabova Azizaxon Abdug'offor qizi

Matematika-infor yo'nalishi. 2-kurs talabasi

Annotatsiya:Maqolada O'zbekiston Respublikasida axborot ta'lim muhiti sharoitida ta'lim tizimini takomillashtirish, masofaviy ta'lim texnologiyalari asosida o'qitishdagi ayrim kamchiliklarni bartaraf etish orqali mustaqil ta'lim samaradorligini oshirish, takroriylik va paralellikka barham berish, o'qituvchilar funksional vazifalarini bajarish samarasini oshirish, xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etishni nazarda tutgan islohotlar va ularni amalga oshirish chora tadbirlari atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: uzluksiz ta'lim, mustaqil ta'lim, axborot ta'lim muhiti, AKT, savodxonlik, kompetensiyalar, masofaviy ta'lim jarayoni.

Yoshlar kelajagi bilan bog'liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega.

Shavkat Mirziyoyev

Biz Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Nodirabegim, Uvaysiy, Shiroq, To'maris, Islom Abdug'aniyevich Karimov, Shavkat Miromonovich Mirziyoyev kabi daho insonlar avlodlarimiz. Ular yurtimizning yorqin kelajagi uchun harakat qilgan va qilayotgan buyuk shaxslardir. Bunday yorqin, tinch va osoyishta kunlarga kelishimizga ularning qilgan mehnatlari, ishlari va olib borgan va olib borayotgan oqilona siyosatlari sababdir. Hech bir inson o'z-o'zidan buyuk bo'lib qolmaydi. Ularning bu buyukligi ortida ulkan mashaqqatlar, zahmatlar va ularning mehnatlari yotadi.

Hozirgi kunda yoshlarga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Yosh avlodning sog'lom o'sishi, sifatli ta'lim olishi va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishini ta'minlash, shuningdek, yoshlarning madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari va kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini har tomonlama qo'llab quvvatlashga qaratilgan „ Besh muhim tashabbus “ shular jumlasidandir. O'sib kelayotgan yosh avlod teran fikrli, zehni bo'lishi uchun yaratilayotgan sharoitlar, imkoniyatlar, islohotlar O'zbekiston yoshlari naqadar buyuk yurt farzandi ekanligini eslatib turadi. Yangi O'zbekiston ma'rifatli jamiyatini yaratishda yoshlarning o'rni shundan iboratki, ularning ongi va yangicha fikrlashlari bilan dunyoning rivojlanish strategiyasi va takomillashuvini



kengaytirish mumkin. Yoshlarga berilgan to'g'ri ta'lim-tarbiya yurt kelajagi uchun buyuk ishlar qilishga undaydi. Shunday ekan yosh avlod Yangi O'zbekistonning poydevori bo'lib xizmat qila oladi.

Hozirgi vaqtda zamonaviy ta'lim sharoitida o'qitish usullari ta'lim maqsadlarini o'zgartirish, kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida qurilgan yangi avlod davlat ta'lim standartini ishlab chiqish bilan bog'liq murakkab davrni boshdan kechirmoqda. Shu sababli ham hozirgi humda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Zero har bir o'quvchi, talaba hamda kadrlar malakasini oshirish, har qanday sharoitda ham eng so'ngi innovatsiyalarni qo'llagan holda yangiliklar yaratishga bo'lgan harakatini oshiradi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari yoshi va ta'lim darajasidan qat'i nazar, individuallashtirishga, o'quv jarayonining masofali va o'zgaruvchanligiga, talabalarning akademik harakatchanligiga qaratilgan.

Ta'lim texnologiyasi axborotlarni o'zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi ma'no-mazmunlarni hamda axborotlar orasidagi turli bog'liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar yaratishga o'rgatish jarayonidan iborat. Aniq ilmiy loyihalashtirilgan, samarali natijani kafolatlovchi, takrorlana oluvchi, ma'lum vaqt va shart- sharoitlarda tashkil etiluvchi pedagogik harakatlar tizimidir Ta'lim jarayoniga zamonaviy ta'lim va axborot texnologiyalarini joriy etish o'qituvchiga bilimning chuqurligi va mustahkamligini ishlab chiqish, faoliyatning turli sohalarida ko'nikma va malakalarni mustahkamlash imkonini beradi; texnologik fikrlashni, o'z ta'lim, o'z-o'zini tarbiyalash faoliyatini mustaqil ravishda rejalashtirish qobiliyatini rivojlantirish; o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda texnologik intizom talablariga qat'iy rioya qilish odatlarini tarbiyalash. Pedagogik texnologiyalarning o'z o'rnida samarali holda qo'llanilishi o'qituvchining o'quv vaqtidan unumli foydalanishi va talabalarning bilim olishida yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Axborot va texnologiyalar rivojlangan bir pallada komputer texnologiyasiga bo'lgan e'tibor yanada oshdi. Ayni damda o'quvchilarni bilim hamda ko'nikmalarini oshirish har bir pedagog uchun oliy maqsadga aylandi. Shu kunlarda ta'lim sifatini yaxshilash, malakali kadrlarni tayyorlashga bo'lgan talab yanada oshmoqda. Hozirgi kunda har bir sohada yetuk va malakali kadrlarga bo'lgan talab yuqori. Har bir ta'lim muassasasi o'z shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda o'quvchilariga zamonaviy texnologiyani o'rgatish bo'yicha amaliy ishlarni olib boryapti. Bu bilan ularni zamon bilan hamnafas bo'lgan holda ta'lim olishiga undaydi. Texnologiyalar rivojlangan bir pallada uzluksiz ta'lim, mustaqil ta'lim, axborot ta'lim muhiti, AKT, savodxonlik, kompetensiyalar, masofaviy ta'lim jarayoni jadal rivojlanmoqda. Shuningdek **google tarmoqlari** hamda onlayn platformalarda bulutli texnologiyalar asosida o'qitish,



google classroom orqali topshiriqlar berish keng tarzda yo'lga qo'yildi. Bir necha yillar davomida baholashlar ham onlayn platformalarda bo'layotganligi ham zamonaviy texnologiyalar qanchalik rivojlanganligidan dalolat beradi. Juda ko'p yoshlar kompyuter sohasida yutuqlarga erishmoqdalar. Yurtimizda IT sohasining rivojlanayotganligi va oliy ta'lim muassasalarida uni o'qitish yo'lga qo'yilganligi zamonaviy ta'lim naqadar mustaxkamlanayotganini ifodalaydi. Shu o'rinda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning IT yo'nalishi bo'yicha quyidagi: „**Bu ishlarimizni davom ettirgan holda, kelgusi yilda 100 dan ziyod shahar va tumanlarimizda axborot texnologiyalarini chuqur o'rgatadigan zamonaviy o'quv markazlarini tashkil qilamiz. Yoshlarga xalqaro IT sertifikatlarini olish xarajatlarining 50 foizigacha bo'lgan qismi qoplab beriladi. Yaqin ikki yilda „Bir million dasturchi“ loyihasi doirasida 300 ming nafar yoshlar kompyuter dasturlash asoslariga bepul o'qitiladi.**“ fikrlari ham yoshlarga bo'lgan ishonchi beqiyosligini ifodalaydi.

O'qituvchi o'z faniga qiziqishini oshirish orqaligina bilim olishda yaxshi muvaffaqiyatlarga erisha oladi. Shuning uchun ham eng avvalo o'quvchilarni o'z faniga qiziqtirishi hamda faol pedagog bo'lishi zarur. O'quvchilar tomonidan bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda o'zlashtirishga qaratilgan usullar tizimidan foydalanish kerak. Buning uchun har doim o'z ustida ishlashi va innovatsiyalar yaratish uchun harakat qilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoyev. - Toshkent: —O'zbekiston, 2016. 56-b.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston aholisiga Murojaatnomasi. 2020y.29.12

3. Belozertsev, E.P. Kasbiy ta'lim pedagogikasi: darslik

4. Borisova. - M .: ITsPKPS, 2000 .-- 146 p. 3. Gulova, M.N. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: darslik.

5. Abdualiyevich Z. M. THE ROLE OF PLAY IN THE DEVELOPMENT OF COGNITIVE PROCESSES IN CHILDREN //Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT. – 2021. – T. 1. – №. 11. – С. 9-10.

6.Зокиров М. А. ЎҚУВЧИЛАРДА ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕРЦЕПТИВ АСОСЛАРИ //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. В3. – С. 659-666.



7. Abdualievich Z. M. O 'zbek xalq og 'zaki ijodining xususiyatlari //INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION. – 2021. – T. 2. – №. 2. – C. 338-340.

8. Zokirov M. A. BOLALARDA BILISH JAROYONLARINI RIVOJLANTIRISHDA O'YINNING AHAMIYATI //Oriental Art and Culture. – 2021. – T. 2. – №. 4. – C. 465-470.

9. Abdualiyevich Z. M. CONTENT AND ESSENCE OF THE TOPIC" PSYCHOLOGY OF COMMUNICATION" //ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. – 2021. – T. 2. – №. 04. – C. 300-305.

10. Abdualiyevich Z. M. The need for an innovative approach to improving perceptual abilities aimed at increasing the social activity of students in future teachers //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – T. 14. – C. 213-217.

11. Abdualievich Z. M. Effectiveness of Development of Perceptive Skills Directed to Increase the Social Activity of Students in Future Teachers //Eurasian Scientific Herald. – 2022. – T. 15. – C. 55-58.

12. Zokirov M. The need for an innovative approach to improving perceptual abilities aimed at increasing the social activity of students in future teachers //Scienceweb academic papers collection. – 2022.

13. Zakirov M. THE METHOD OF DEVELOPMENT OF PERCEPTIVE ABILITIES OF FUTURE TEACHERS AIMED AT INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS //Science and innovation in the education system. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 29-32.

14. Sh A. et al. ISSUES OF FORMATION OF THE CENTER FOR MASTERING FOREIGN EDUCATIONAL PROGRAMS THAT FORM CIVIL EDUCATION IN STUDENTS IN THE SYSTEM OF PRIMARY EDUCATION IN UZBEKISTAN //International Journal of Early Childhood Special Education. – 2022. – T. 14. – №. 7.

15. Zakirov M. THEORETICAL AND METHODOLOGICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF PERCEPTIVE ABILITIES AIMED AT INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS IN FUTURE TEACHERS //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т.

16. Abdualiyevich Z. M. et al. BO'LG'USI O'QITUVCHILARDA O'QUVCHILARNING IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISHGA YO'NALTIRILGAN PERSEPTIV QOBILİYATLARNI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI //Oriental Art and Culture. – 2023. – Т.



17. Зокиров М. А. ЎҚУВЧИЛАРДА ТАЯНЧ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ АСОСИДА ИЖТИМОИЙ ФАОЛЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ // Oriental Art and Culture. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 491-197.

18. Zokirov M. SSUES OF FORMATION OF THE CENTER FOR MASTERING FOREIGN EDUCATIONAL PROGRAMS THAT FORM CIVIL EDUCATION IN STUDENTS IN THE SYSTEM OF PRIMARY EDUCATION IN UZBEKISTAN // Scienceweb academic papers collection. – 2022.

19. Abdualievich Z. M. EDUCATIONAL TECHNOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF PERCEPTIVE ABILITIES AIMED AT INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS IN FUTURE TEACHERS // Open Access Repository. – 2022. – Т. 8. – №. 12. – С. 612-618.

20. Abdualiyevich Z. M. О ‘QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA IJTIMOIIY FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI // BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 330-333.

21. Mirzarahim Abdualiyevich Zokirov BO‘LG‘USI O‘QITUVCHILARNING PERSEPTIV QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PEDAGOGIK ZARURATI // Oriental Art and Culture. 2023.

22. Mirzarahim Abdualiyevich Zokirov BO‘LG‘USI O‘QITUVCHILARNING PERSEPTIV QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PEDAGOGIK ZARURATI // Oriental Art and Culture. 2023.

23. PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF DEMOCRATIC VALUES ON THE BASIS OF CIVIL CONCEPTS IN JUNIOR SCHOOL AGE STUDENTS. ZA Nisolmuxammatovich, MM Abduxafizovna... - International Journal of Early Childhood Special ..., 2022

24. M. Zokirov. THE PERCEPTIVE BASIS OF THE DEVELOPMENT OF SOCIAL ACTIVITY IN PUPILS. 02.07.2022 International Scientific Journal "Science and Innovation". Series B. Volume 1 Issue 3



MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY HAYOTI VA IJODINING O‘QUVCHILAR HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Ibragimova Xurshida Ilhom qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jadid adabiyoti asoschisi Mahmudxo‘ja Behbudiyning asarlari, darsliklari, maqolalari umuman olganda ijodiy merosi va faoliyati o‘rganilib, tahlil qilinadi. Yosh avlod ta’lim-tarbiyasida Behbudiyning ijodi va faoliyatining ahamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: jadid adabiyoti, jadidizm, publitsist, ommaviy-publitsistik maqola, ta’lim, tarbiya, jadidchilik

Jadidchilik yoki jadidizm (arabcha: jadid- yangi) - XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakatdir.[1] Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O'rta Osiyoda tarqaldi. Jadidchilik avvaliga madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Turkiston zaminimizda ham mana shunday jonkuyar xalq fidoyilari jadidchilik harakatini yo‘lga qo‘yishgan. Bu harakatning asoschisi Mahmudxo‘ja Behbudiyning ibn Behbudiyning hisoblanib, u 1875-yilda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida tug‘ilgan. U jadidchilik harakati yetakchilaridan biri bo‘lishi barobarida dramaturg, olim, din va jamoat arbobi, noshir, yozuvchi hamda publitsist ham bo‘lgan. Noshir sifatida "Oyina" jurnali va "Samarqand" gazetalarini nashr etgan. Dramaturg sifatida esa óz sahna asarlari bilan teatr rivojiga ham hissa qo‘shgan. Behbudiyning jami 18 ta vaqtli matbuot nashrida faol qatnashgan va jami maqolalarining soni 200 ga yaqin bo‘lgan. Behbudiyning maqolalarining aksariyati Turkiston maktab-madrasalarining islohi, bu borada qilinayotgan sa'y-harakatlar haqida edi. „Behbudiyning maqolalarining ko‘bisi muhim mavzularda yozilg‘on bo‘lub, hanuz eskirgan emas va bu kunlarda ham biz uchun dasturulamal bo‘laturg‘on foydalik so‘zlardur“, – deb yozadi o‘z vaqtida Hoji Muin. Xususan „Oyna“ jurnali 1914-yil 41-sondagi „Muhtaram yoshlarga murojaat“ maqolasida:

Muhtaram birodarlar! Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondurki, makotib— taraqqiyning boshlang‘ichi, madaniyat va saodatning darvozasidir. Har millat eng avval, makotibi ibtidoiysini zamoncha isloh etib ko‘payturmaguncha taraqqiy yo‘lig‘a



kirub madaniyatdan foydalanmas. Madaniyati hoziradan mahrum qolub, sanoe' va maorif salohi ila qurollanmagan millat esa, dunyoda rohat va saodat yuzini ko'rolmas.

Haqiqatdan, yoshlar ta'lim-tarbiyasida Behbudiyning ommaviy-publitsistik maqolalari benihoya ahamiyatlidir. Chunki millat taraqqiyoti har jihatdan yosh avlodning bilim, zakovatiga bog'liq. Bunda maktab ta'limining ahamiyati beqiyos. Mahmudxo'ja Behbudiy ham buni yaxshi anglab yetadi. Shu bois dastlab ishni jadidchilik harakatining tamal toshi bo'lgan maktab islohotidan boshlaydi. 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi, Rajabamin qishloqlarida yangi maktablar tashkil etilishida tashbbus va g'ayratini ayamaydi. Shu bilan birga maktab ta'limi uchun „Risolayi asbobi savod“, „Risolayi jug'rofiyayi umroniy“, „Risolayi jug'rofiyayi Rusiy“, „Kitobat-ul atfol“, „Amaliyoti islom“, „Tarixi islom“ kabi bir qator kitob va darsliklar yaratdi. Behbudiyning 1905-yilda Samarqandda bosmadan chiqqan „Risolayi asbobi savod“ kitobi Turkiston o'lkasida yaratilgan birinchi alifbo darsligi bo'lib, u o'quvchilarning qisqa muddatda o'qish va yozishni o'zlashtirishlariga mo'ljallangan. Bu kabi darsliklarni yaratishdan ko'zlangan maqsad yosh avlodni savodli, ilmli, dunyoqarashi keng shaxs sifatida tarbiyalashdan iborat.

Umuman olganda Mahmudxo'ja Behbudiy zamonasining ma'rifatli, dunyoqarashi keng, ilg'or fikrli adiblaridan bo'lgan. U zamona taqdirini oldindan ko'ra bilgan, ya'ni millat imli, ziyoli bo'lsagina mamlakat obod va farovon bo'lishini anglagan va buni adabiyot vositasida xalqqa yetkazishga uringan va bunga erishgan.

Xalqimizni mamlakat rivoji yo'lida birlashtirish, yoshlar ta'lim-tarbiyasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratish, „Yangi O'zbekiston“ ni bunyod etishni ko'zlangan Uchinchi Renessansning asl ildizi jadid adabiyoti vakillari va ularning faoliyatiga borib taqaladi. Xususan, bunda Behbudiyning xizmatlari beqiyosdir. Behbudiyning: „Muhtaram yoshlar! Zamon siznikidur, qarilar zamoni o'tgan. Siz kiromg'a bobasirat bo'lub, o'n daf'a o'lchab, bir daf'a kesingiz“, - jumalari avlodlarga uning so'nggi so'zi – vasiyati bo'lib qoldi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Mahmudxo'ja Behbudiy Tanlangan asarlar II jild Toshkent, Akademnashr, 2021-yil
2. Z. Abdirashidov „Mahmudxo'ja Behbudiy“ (Jadidlar to'plami) Yoshlar nashriyot uyi, Toshkent– 2022
3. B. Qosimov, Sh. Yusupov, U. Dolimov, Sh. Rizayev, S. Ahmedov „Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti“ Toshkent „Ma'naviyat“ 2004 [4]
4. Ahmedov, Sirojiddin; Rajabov, Qahramon (2000-2005). "Jadidchilik". O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.



IMPORTANCE OF USING MULTIMEDIA TOOLS AND TEACHING MATERIALS AS EDUCATIONAL STANDARTS

Akhmedova Nargiza

the student of Jizzakh State Pedogogical University

Scientific supervisor: **Botirova Hakima**

1. Hayvon o'lsa, qarg'a shod,

Odam o'lsa, mulla shod.

Bu maqol o'z ma'noli maqollar turiga kiradi. Bu maqolda qayerlardadir hayvon o'lib qolsa, o'laksaxo'r qushlar birpasda uchib kelib, uni yeyishini "shod" deb ta'riflanyapti. Biron bir odam o'lib qolsa, albatta mulla chaqiriladi. Mullaning ham tirikchiligi shudir, uning ham bola chaqasi bor. Shuning uchun "hayvon o'lsa, qarg'a shod; odam o'lsa mylla shod" deyilgan..

2. It bilan ho'tikni qancha qilma tarbiya,

It bo'lur, eshshak bo'lur, aslo bo'lmas odamiy.

Bu maqol ko'chma ma'no ham o'z ma'noda kelyapti desak ham bo'ladi. Ya'ni o'z ma'no jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak it bn eshakni tarbiya qiganing bn odam bomidi deyilmohchi, ko'cha ma'noda esa uqmidigan odamga qancha gap uqtirmagin barbirgayam odam bomidi ya'ni uqmidi, o'zgarmidi o'sha o'shaligicha qoladi demohchi

3. O'zga yurtda shoh bo'lguncha,

O'z yurtningda gado bo'l.

Bu maqol o'z ma'nosida kelgan. Ya'ni o'zga yurtga borib shoh bo'lsang ham, baribir o'z yurtning bu tug'ilib o'sgan yeringdir. Har qachon uni qo'msaysan, sog'inasan va hech qachon o'zga diyorlar o'z ona vataningdek bo'laolmaydi deyilmohchi. Bunga misol qilib Zahiriddin Muhammad Boburni olsak bo'ladi.

4. Bukrini go'r to'g'irlyadi.

Bu maqol ko'chma ma'noda. Ya'ni yomon odamni qancha tarbiyalab to'g'irlyamohchi bo'lsang befoyda unga Yaratgandan boshqasi bas kelaolmas. O'lgandagina tavba qilmasa boshqa payt tavba qilmaydi demoqchi.

Xulosa qilib aytganda, ayni paytda folklor janrlari orasida kundalik turmushimizda eng ko'p qo'llaniladigan janr bu maqol desak mubolag'a bo'lmaydi, albatta. Chunki biz bilamizki, xalqimiz orasidagi odamlar ichida eng kam maqol biladigan inson ham, kundalik turmushda o'z nutqida kamida 10-15 ta maqol qo'llaydi. Maqollarni qo'llashdan asosiy maqsad didaktika bo'lib, maqollar juda katta ta'limiy



tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ayniqsa yosh avlodni tarbiyalashda maqollarning o‘mi va roli juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mo‘minjon Sulaymonov “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” - “Namangan” nashriyoti 2012-yil.
2. T. Mirzayev, Sh. Turdimov, M. Jo‘rayev, J. Eshonqulov, A. Tilavov “O‘zbek folklori” -Toshkent “Tafakkur bo‘stoni” 2020.
3. Omonulla MADAYEV "O'zbek xalq og'zaki ijodi" - Toshkent "MUMTOZ SO'Z" 2010.
4. Sh.Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov “Ma’nolar maxzani” - T.,2001.
5. T. Mirzayev, A. Musoqulov, B.Sarimsoqov “O‘zbek xalq maqollari” - T, “Sharq”, 2005.
6. Internet. Maqollarning o‘z va ko‘chma ma’nolari, maqollar tahlili. Maqol va matallar.Dars "CNT
7. Zarina Olqarova "Maqol va matallarning o'zaro farqli jihatlari"
8. Surayyo Bozor qizi Hamrayeva "Maqollar mohiyati va xususiyatlari"



Mavlono Lutfiy asarlarining til xususiyatlari

Mengboyeva Oygul Sharofiddinovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Muratova Nafisa Baxtiyarovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakuteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqola XV asrning porloq yulduzi, o'zbek tili, xususan, turkiy tilga o'z hissasini qo'shgan, o'z davrining "Malikul kalomi" bo'lgan Lutfiyning asarlarining til xususiyatlari to'g'risida.*

Kalit so'zlar: *Malikul kalom, dudog', dag'i, uchmag', cherik, araz.*

Annotation: *this article is about the linguistic features of the works of Lutfiy, a brilliant star of the 15th century, who contributed to the Uzbek language, in particular to the Turkic language, the "Malikul word" of his time.*

Key words: *Malikul kalam, dudog', dagi, uchmag', cherik, araz.*

Аннотация: *эта статья о сияющей звезде XVасr, узбекском языке, особенно языке произведений Лютфи, который внес свой вклад в тюркский язык и был «Маликул калам» своего времени.*

Ключевые слова: *маликул калам, дудог, даги, учмаг, черик, араз.*

O'z davrining «Malikul kalomi» bo'lgan Lutfiy o'zining ko'p yillik adabiy faoliyatini o'zbek dunyoviy adabiyoti va o'zbek adabiy tili taraqqiyotiga bag'ishladi. U o'z davrining atoqli so'z san'atkori sifatida o'zbek va fors-tojik tillarida yozilgan lirik she'rlarning, «Gul va Navro'z» hamda «Zafarnoma» dostonlarining muallifidir.

Lutfiy g'azallarida va dostonlarida bir-biriga jo'r, ohangdosh so'zlarni qofiya qilish bilan birga, misralarning mazmunini kuchaytirish, ta'kid yo'li bilan asosiy masalaga e'tiborni ko'proq jalb etish uchun bir yoki bir necha so'zdan tarkib topgan radiflardan ustalik bilan foydalanadi.

Sensän sevärim, xah ĩnan, xah ĩnanma,

Qandur jigarĩm, xah inan, xah inanma.

Lutfiy o'zbek adabiy tilining jangovar kurashchisi sifatida xalq jonli tilida original asarlar ijod qildi. Xalq ta'birlaridan, maqol va aforizmlaridan ustalik bilan foydalanib, o'z she'rlarining mazmungan boy, badiiy puxta va o'tkir tilli bo'lishiga



erishdi va yangi-yangi badiiy til vositalarini va original bayon etish uslubini yaratdi. Bular, o'z navbatida, Lutfiyning o'zbek adabiy tilining boyishiga qo'shgan munosib hissasi bo'ldi. Masalan, quyidagi she'riy misraga «Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi» xalq maqoli singdirilgan:

*El yūzigā baqsalar, ölärmen,
„Xurshidni, netäy, yashursa bolmas“.*

Yoki:

*Hayät suyīg 'a eltib syvsiz keturdi meni,
Dudag 'ingiz ne bala, al körgüzdi.*

Bu she'riy parchada «Daryoga olib borib, suvsiz keltirdi» maqoli berilgan. Bundan tashqari, Lutfiy o'z asarlarida xalq tiliga xos yumor, qarg'ish, erkalash va boshqalardan ham o'rinli foydalanadi:

*Lutfiyini kim qarg'adī „yarab, balag 'a uchra!“ deb,
Kim seningdek tashbag 'irlīq dilrabāg 'a uchradi.*

Ma'lumki, o'sha davr adabiy tilida sinonimlar doirasi fors va arab tillaridan kirgan so'zlar hisobiga ham kengayib bormoqda edi. Lutfiy sinonim so'zlardan ustalik bilan foydalandi va o'z davriga xos badiiy uslub vujudga keltirdi. U *yav, yag 'ī, xasm, dushman; lab, dudag', erin, yuz, araz, vasl, jamal* kabi sinonimik qatorlardan ijobiy foydalandi:

*Ayu küin yo 'zin bile lāf ursalar, yoqtur ajab,
Tutarmen közki, körsam āraz,
Tilär vaslīñnī Lutfiy, qīl ijābat.
Ayu tangg 'a qaldī, kechā baqīb ul jamālg 'a.*

Keltirilgan misollarda bir sinonimik qatorni tashkil qiluvchi *yo 'z, āraz, vasl, jamāl* so'zlari berilgan.

Lutfiy o'zbek mumtoz lirikasining original va yangi janri bo'lgan tuyuqning o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi egallab oldi, xalq askiyasi va xalq tili boyliklaridan keng foydalanib, ajoyib tuyuqlar yaratdi. Tuyuqlarida o'zbek tilidagi omonim va polisemantik so'zlardan keng foydalandi. Natijada u shu so'zlar vositasi bilan chiroyli so'z o'yinlari hosil kildi:

*Könglimä har yanki, baqsam, dag 'ī bar,
Har nechä dardīmnī desäm, dag 'ī bar.
Qīlcha tanga barī ishqīñ yār edi,
Biz sarī boldī firāqning dag 'ī bar.*

Bu tuyuqdagi *dag 'i* so'zi birinchi misrada «yara», ikkinchi misrada «yana, tag'in» va to'rtinchi misrada «tog'» ma'nosida kelgan.



Lutfiy asarlari tilida eski uyg'ur, ozarbayjon va turkman tillariga xos morfologik, leksik xususiyatlar uchraydi.

Qaratqich kelishigining qo'shimchasi I va II shaxs kishilik olmoshlaridagina emas, boshqa hollarda ham Urxun-Enisey yodgorliklaridagi kabi **-iŋ/-iŋ** shaklida kela oladi: *yārumuŋ* (yorimning), *bag'rumiŋ* (bag'rimning) kabi.

Tushum kelishigi qo'shimchasi ba'zan **-i/-i** shaklida ham keladi: *xitāyī*, *maīmurumī*, *ashkumī* kabi.

O'tgan zamon sifatdoshining **-mīsh/-mish**, **-an/-än** qo'shimchali shakllari ham qo'llangan: *Qilmisham*, *bolmisham*, *qilan*, *alan* kabi.

Bu vafāsnzliqnī, sendin körmishäm,

E'tiqādīm qalmaidī hech yār ilä.

Bo'l- va o'l- fe'llari Lutfiy asarlarida parallel qo'llanadi.

Jo'nalish kelishigi uchun **-g'a/-gä**, **-qa/-kū** qo'shimchali shakl bilan birga **-a/-ä** qo'shimchali shakl ham qo'llangan:

She'r ichindä bolsa ütsrük sözigä yoq e'tibar,

Qanīma bergäy tanuqluq ikki ayyarīŋ sening.

Lutfiy asarlarida „bilan" ko'makchisi *birlä*, *ilä*, *bilä*, *-lä* kabi variantlarda ishlatilgan:

Yaratqan birlä köp niyatlär etti,

Parishānlīq bilä aqlīm mushavvash.

Lutfiy asarlari leksikasida o'g'uz, arab, fors-tojik so'zlarini ham uchratishimiz mumkin. Masalan: *ilik* (qo'l), *ulus* (xalq), *qamug'* (hamma), *erin/dudog'* (lab), *uchmag'* (jannat), *ev* (uy), *tāri gisuyi* (soch o'rimi), *dugul* (emas), *cherik* (askar, armiya) kabi.

Lutfiy asarlari tilida *dag'i* (yana, tag'in), *bikin* (kabi, singari), *usruk* (mast, sarxush), *o'g'on* (xudo), *o'ksuk* (1.Tuban, past, kam, oz. 2.Etim) kabi qadimgi turkiy tilga oid so'zlar qo'llangan. Bu kabi so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Lutfiy o'z ijodi bilan adabiy til taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi. Lutfiy o'zining ulkan faoliyatini o'zbek dunyoviy adabiyotiga bag'ishladi va shu yo'l bilan o'zbek adabiy tilining taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdi. Lutfiy g'azallari, dostonlarining tili juda yengil va xalqqa tushunarlidir. Lutfiy g'azallarining va umuman she'riyatining mazmunlilikini, badiiyligini xalq og'zaki ijodi materiallaridan hamda jonli tilga xos bo'lgan so'z va iboralardan unumli foydalanganligida ko'rishimiz mumkin.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1.U.Tursunov, B.O‘rinboyev, A.Aliyev.O‘zbek adabiy tili tarixi. Universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari talabalari uchun darslik. Toshkent: ”O‘qituvchi”, 1995.

2.A.Muxtorov, U.Sanaqulov. O‘zbek adabiy tili tarixi.O‘zbek adabiy tili tarixi. Universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari talabalari uchun qo‘llanma. Toshkent: ”O‘qituvchi”, 1995.

3.G‘.Abdurahmonov, Sh.Shukurov. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1973.

4..Mutallibov S. Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk. Toshkent, “O‘zdavnashr”,1959.

5.B.B.Abdushukurov. Eski turkiy adabiy til leksikasi. Toshkent, ”Tafakkur Bo‘stoni”, 2015.

6. www.ziyonet.uz



“ISTANBUL FOJIASI” DRAMATIK DOSTONIDA ISKANDAR OBRAZINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TASVIRI

Imomaliyeva Gavharoy Odiljon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Roxmanova Nafisa Azatbekovna

O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

O'zbek adabiyotining yirik namoyondasi, o'chmas mash'alasi hisoblangan Erkin Vohidovning “Istanbul fojiasi” asarida hayotning shafqatsiz haqiqatiga duch kelamiz. Asarda davr to'zonlari, hayot chigalliklari ichra tangib noxush, nomaqbul to'lqinlar iskanjasiga tushib qolgan, adashgan, ammo kechikib bo'lsa-da, xatosini anglagan insonlar fojiasi aks etgan.

Kalit so'zlar: *Istanbul, Jalol, Saodat, Iskandar*

KIRISH

“Istanbul fojiasi” qahramonlari, asosan, 3 shaxs hisoblanadi: aka – Jalol, uning ayoli – Saodat va Jalolning ukasi – Iskandar. Ushbu qahramonlar qismati zamonning muhim tarixiy-ijtimoiy voqea-hodisalari – Ikkinchi Jahon Urushi, Urushdan keyingi davrda dunyodagi keskin ziddiyatlar, mamlakatimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi muammolar bilan bog'liq holda aks etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Drama syujeti unchalik murakkab bo'lmasa-da, bir qorindan talashib tushgan aka-uka – Jalol va Iskandarlar muhabbat tufayli bir-biriga raqibga aylanadilar. Aka ukase sevgan qizni yo'ldan uradi, alamiga chiday olmagan uka esa o'zini qo'yggani joy topolmay, ko'ngilli bo'lib frontga jo'naydi. Qismatni qarangi, ana shu aka-uka va ular orasidagi ziddiyatga sababchi bo'lgan ayol – Saodat qirq yildan keyin xorijda – Istanbulda uchrashib qolishadi.

Syujet rivoji zanjirida romantic ruhdagi asarlarga xos favqulodda shartli halqalar talaygina: og'a-ini va ular orasiga g'ov slogan ayol, ya'ni ham qondosh, ham raqib og'a-ini va ularning har ikkisi uchun aziz bo'lgan shaxsning qirq yildan so'nhg xorijda bir-biriga duch kelishi, allaqachon marhum sanalib, nomi qahramonga aylangan, shuhratlarga burkangan odamning tirik, buning ustiga vatangado bo'lib chiqishi bir vaqtlar o'zga nomda, o'zga el odami bo'lib yurtiga, og'asi, sevgilisi, onasi huzuriga kelib ketishi, buni hech kim sezmay qolishi – bularning barchasi romantik asarlar syujetiga xos favqulodda xususiyatlardir.



Asardagi uch yetakchi personaj – og'a Jalol, ini Iskandar, oradagi ayol Saodat – hammasi o'zgaruvchan xarakterlar, ular hayot yo'li – umrning turli bosqichlarida turli vazifalarda turlicha holda ko'rinadilar.

Ko'p hollarda bu hodisa uch personaj tomonidan uch xil idrok etilib, uch xilda baholanishi, aksari qarashlaridagi tafovut va ziddiyatlarning keskin tus olishi asarga o'ziga xos munozara ruhini bag'ishlaydi. Bahslar payti muallif voqeaga bevosita aralashmaydi, kim haq, kim nohaq, asl haqiqat kim tomonda ekanini o'qiyotgan kishi sezib, bilib turadi. Shunga ko'ra, bu asarni o'qish uchun kishida adabiy-estetik tayyorgarlik bo'lishi kerak, hamda u nozik didli, bilimdon bo'lishi talab etiladi.

Bunday olib qaraganda, Iskandar shunchaki adashgan vatangado xoin kimsadek ko'rinadi. Aslida esa Iskandar qochoq, xiyonatkor emas, yurt oldida gunohsiz: u ixtiyorsiz ravishda hayot so'qmoqlariga tushib qolgan. Bir vaqtlar bu pok va soda, qalbi ko'zgu kabi musaffo, oriyatli yigit Saodatni chin dildan sevgan, vatan ozodligi yo'lida chindan ham mardona jang qilgan. Bu odam hayotining izdan chiqishi sarson-sargardon vatangadoga aylanishi, avvalo, urush dahshatlariga, ziddiyatli dunyoning g'ayriinsoniy tomonlariga borib taqaladi. U urushning eng baxtsiz tirik qurboni. Omonsiz jang payti dushman qo'lga tushib qoladi, xorijda sarson-sargardon kezadi. Iskandarning baxtsizligida beqaror Saodatning ham hissaları bor. Bunga Iskandarning o'zi ham aybdor. U ilk sevgi hijron azblariga dosh berolmay, jizzakilik qilib, ixtiyorini butunlay taqdir izniga qo'yib beradi. Endi uning go'yo ona yurtida qiziqtiradigan hech narsa qolmagandek, yurtiga talpinmaydi, o'z baxti sha'ni uchun kurashmaydi, ilk sevgisi ortidan o'z akasiga nisbatan, oradan qirq yil o'tishiga qaramay, gina saqlab yuradi, shu ginasi tufayli Iskandar o'zining volidasini-da “unutadi”, yurtiga onasi uchun bo'lsa ham qaytmaydi. Dinini ham unutadi, e'tiqodini tark qiladi. Bunday beqarorlik, loqaydlik esa unga nihoyatda qimmatga tushadi.

NATIJAR VA MUHOKAMA

O'zbek adabiyotida “Istanbul foijasi” dramatik asariga hamohang ravishda yozilgan asarlarga ham ko'zimiz tushadi: Asqad Muxtorning “Chinor”, Said Ahmadning “Ufq” romanlarining ayrim qahramonlari taqdiri bir-biriga o'xshash. Iskandarning vatangado, tirik o'likka aylanishi va arab qiyofasida Vataniga borganida o'zining haykaliga ko'zi tushishi, shundan keyin karaxt ahvolga tushishi, o'z qishlog'ining nomi ismiga monand Iskandarobod deb nomlanishi va “Chinor” romanidagi Akbarali G'oziyevning ham qismati Iskandarning taqdiriga o'xshash holda tasvirlangan. U ham vatangado, o'z qishlog'ida qahramon sifatida ko'tarilgan, qishlog'iga qaytgach, o'z haykaliga ko'zi tushganidan so'ng haqiqiy tirik murda ekanligiga ishonch hosil qiladi, Akbaralining ham o'z qishlog'i uning sharafiga Akbarobod deb nomlanishi bu ikki asarning bir-biriga o'xshash tomonlari hisoblanadi



Yana bir o'zbek adabiyotining qalami o'tkir yozuvchisi sanaladigan Said Ahmadning "Ufq" romanidagi qahramonlar: aka-uka A'zamjon va Nizomjon hamda ularning o'rtasidagi ayol – Dildorlar taqdiri "Istanbul fojiasi" dostonidagi Jalol, Iskandar va Saodatlar taqdiri bir-biriga hamohang tarzda tasvirlanadi. Nizomjon va Dildor sinfdosh bo'lgan va bir-birini yoqtirishgan, Nizomjonning akasi A'zamjon esa Dildorga uylanib oladi, aynan shu holat "Istanbul fojiasi" da ham keltiriladi, ya'ni Iskandar va Saodat sinfdosh bo'ladi va bir-biriga yaxshi munosabatda bo'ladi, Iskandar bu munosabatni sevgi deb o'ylaydi, Saodat esa Iskandarni do'st deb qabul qilgan, Jalolni esa rostan ham sevgan bo'ladi. Iskandar esa bu voqeda Jalolni ayblaydi, ya'ni Saodatni aldab uylanib oldi deb akasiga bir umr gina saqlaydi.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni keltirish lozimki, dramaturg qalamga olgan muhim jihatlar va ziddiyatlar ichida qolgan, adashib qolgan kishilar foydasi, murakkab taqdiri, muammolar bilan chambarchas bo'lgan kimsalar o'tmishini asar davomida birin-ketin uzluksiz kuzatamiz. Bu kabi chigal muammolar bugungi kunda ham yo'q emas. Mavzu yillar o'tsa ham o'z yukini, mag'zini, insonlar o'rtasidagi, ayniqsa jigarlar oqibatini yo'qotmaslikka, kengroq fikr yuritishga undaydi. Erkin Vohidov qalamgan olgan ushbu muammoli vaziyatda Iskandarga nisbatan nohaqlik qilingan deb o'ylayman, axir uning ham o'z vatanidan uzoqda bo'lsa-da, baxtli bo'lishga haqqi bor edi-ku...

REFERENCE

1. Erkin Vohidov, Saylanma. "Istanbul fojiasi", – Toshkent: "Sharq", 2001
2. Asqad Muxtor, "Chinor", – Toshkent: "Yoshlar nashriyot uyi", 2018
3. Said Ahmad, "Ufq", – Toshkent: "O'qituvchi", 2015



QADIMGI TURKIY TILDA VA HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIDA FE'L SO'Z TURKUMI

Yigitaliyeva Feruza Shavkatovna

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Muratova Nafisa Baxtiyorovna**

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi o'zbek adabiy tili va eski o'zbek tilidagi fe'l so'z turkumi va uning ba'zi kategoriyalaridagi o'xshashliklar, farqlar haqida qisqacha ma'lumot berib o'tilgan. Ushbu so'z turkumi ikkala davrda ham tilshunoslikning morfologiya bo'limida o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Fe'l aspektlari, funksional vazifa, zamon kategoriyalar, mumkinlik va nomumkinlik, nisbat shakllari, bo'lishli va bo'lishsizlik, ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi.

Аннотация: В данной статье дается краткая информация о сходствах, различиях между глагольным словарем и некоторыми его категориями в современном узбекском литературном языке и староузбекском языке. Эта категория слов изучается в оба периода в разделе морфологии лингвистики.

Ключевые слова: глагольные аспекты, функциональная функция, категории времени, возможность и неизвестность, формы соотношения, причастия и деепричастия, словосочетание со вспомогательным глаголом.

Annotation: This article summarizes the similarities, differences between the present Uzbek literary language and the old Uzbek verb word category and some of its categories. This word category is studied in both periods in the morphology section of linguistics.

Key words: Verb aspects, functional task, time categories, possibility and impossibility, realitive forms, participle and nonparticiple, auxiliary verb conjugation.

Turkiy va o'zbek tilidagi so'zlarni har jihatdan solishtirishimiz mumkin xoh, tuzilish jihatdan, xoh ma'no jihatidan. Ularning o'rtasidagi farqli va o'xshashlik jihatlari talaygina. Tilning boyib borishi ham aynan mana shunda. Har bir so'zning kelib chiqishini o'rganganimizda, albatta, qadimdan u so'z qanday atalib kelganligi, bugungi kunda o'z holicha iste'moldami yoki o'zgarishlarga uchraganmi buni bilib olamiz. Qadimda ismlar deb atalgan so'z turkumlarimiz oldingidan ko'ra qay darajada boyiganligini ko'rib o'tishimiz mumkin. Bir jihat e'tiborga molikki qadimda ham va hozirgi o'zbek tilida ham so'z turkumlari morfologiyada o'rganiladi. Morfologiya bo'limida o'rganiladigan so'z turkumlari ichida fe'l eng faoli hisoblanadi. Eski o'zbek tilida ham fe'lning o'ziga xos belgilarini quyidagi gramatik kategoriyalar tashkil etadi:



fe'l aspektlari, fe'l darajalari, fe'lning funksional shakllari (harakat nomlari, sifatdosh, ravishdosh), fe'llarda tuslanish(mayl, zamon, shaxs-son shakllari).

Eski o'zbek tilida ham fe'l turkumidagi so'zlar quyidagi to'rt asbektdan birida qo'llangan : bo'lishli va bo'lishsizlik, mumkinlik (imkon)va nomumkinlik. Fe'llarda bo'lishli va bo'lishsizlik aspektlarining ifodalinishi bo'yicha eski o'zbek tili bilan hozirgi o'zbek tili o'rtasida deyarli farq yo'q. Ya'ni, eski o'zbek tilida ham fe'lning bo'lishli shakli uchun hech qanday qo'shimcha orttirilmaydi: *bar-*, *keltür-*, *kørsät* kabi. Bo'lishsizlik aspekti *-ma/-mä* affikisi bilan hosil bo'ladi: *borma-*, *keltürmä-*, *kørsätmä-* kabi. Shu bilan birga, ayrim ayrim fe'l shakllarining bo'lishsizlik aspekti *ermäs (emäs)* yoki *yo'q* so'zi yordamida ham ifodalanadi. [1;1]

Hozirgi o'zbek adabiy tilida ham fe'llar bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarga bo'linadi. Bo'lishli fe'llar harakat yoki holatning bajarilganligini ko'rsatadi, Grammatik shakli, ya'ni qo'shimchasi yo'q. Masalan, *yurdi*, *o'qigan*, *yo'zmoqchi* kabi. Bo'lishsiz fe'llar esa harakat yoki holatning bajarilmaganini ko'rsatadi. *-ma* lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha orqali hosil qilinadi. Masalan, *keldi- kelmadi* kabi. Ayrim shevalarda shaxs-son qo'shimchalari yo'q so'zidan keyin qo'shiladi. Masalan, *borganim yo'q* o'rniga *borgan yo'qman*, *borganing yo'q* o'rniga *borgan yo'qsan*. [2;1]

Eski o'zbek tilida harakat nomining *-maq/mäk* va *-sh* (ish/ish, -ush/üş) affikslari bilan hosil bo'luvchi shakllari qo'llangan. *-maq/mäk* affiksli shakl harakat nomining asosiy ko'rsatkichi sifatida o'zbek tilida keng iste'molda bo'lgan. Masalan: *barmaq*, *kelmak*. [1;2] Harakat nomi fe'lning otga xoslangan shakli. Qo'shimchalari *-ish*, *-sh*, *-uv*, *-v*, *-moq*, *-mak*. Masalan: *bilmoq*, *ko'rmak*. Demak harakat nomi shakli demak modal fe'li bilan sinonimlik hosil qiladi. Hozirgi o'zbek tili davrida harakat nomining *-(i)sh* affikisi bilan yasalgan shakli ko'p qo'llanadi. Qadimgi o'zbek tili davrida esa kam qo'llanilgan. Masalan: Takrorlash bilimning onasidir. [2;2]

Turkiy tillarda mayl va zamon: ayniqsa, tarixan, shakl jihatdan o'zaro chegaralanib yetmagan kategoriyalarni tashkil etadi. Bu hol birinchi navbatda, mayl va zamon kategoriyalarining har biri uchun maxsus affikslarning yo'qligi, mayl va zamon ma'nolarini ifodalash uchun bir vaqtning o'zida ikkita affiksning qator ishlatilmasligi, bir affiksning ham mayl, ham zamon ma'nosini ifodalash uchun xizmat qilishi bilan izohlanadi. Ya'ni bir shakl, bir tomondan, mayl ma'nosini ifodalash uchun xizmat qilasa, ikkinchi tomondan, ish-harakatning zamonga munosabatini ko'rsatishi mumkin. Masalan, aniqlik mayli turkumidagi fe'llar ish-harakatning qaysi zamonga xosligini ko'rsatish jihatidan tasnif qilinadi. Shuningdek, *-sa/-sä* affiksli alsa turidagi shakli bir tomondan shart maylini, ikkinchi tomondan shu maylning hozirgi va kelasi zamon shakli hisoblanadi. [1;3]



Keldim, kelyapman, kelaman fe‘llarining uchchalasi ham I shaxsni bildiradi, lekin ular harakatning nutq momentiga nisbatan qachon bajarilishini yoki bajarilmasligi bilan farq qiladi. Fe‘ldan anglashilgan harakatning nutq momentiga nisbatan bajarilishi yoki bajarilmaslik paytini bildiradigan shakllargazamon shakllari, ana shunday shakllar tizimi zamon kategoriyasi deyiladi. Fe‘l zamonlari harakat yoki holatning paytga munosabatini bildiradi. Payt deganda nutq so'zlanib turgan payt-nutq momenti nazarda tutiladi. Harakatning bajarilish vaqti bilan nutq payti orasidagi munosabatga qarab fe‘lning uch zamoni farqlanadi. 1. Bordim, bording, bordi. 2. Boray, borgin, borsin. 3. Borsam, borsang, borsa. 4. Bormoqchiman, bormoqchisan, bormoqchisiz singari bormoq fe‘lining turli shakllari ma‘nosiga e‘tibor bering. Birinchi guruhdagilar bilan ikkinchi va uchinchi guruhdagilar va to‘rtinchi guruhdagilar zamon zamon ma‘nosi bilan farq qiladi. Birinchi guruhdagilar o‘tgan zamoni, qolgan guruhdagilar kelasi zamoni bildiradi. Ular o‘rtasidagi farq faqat shu bilangina cheklanmaydi. Yuqoridagi to‘rt guruhdagi fe‘llar so‘zlovchining harakatga bo‘lgan munosabatiga ko‘ra ham farq qiladi. Birinchi guruhdagi fe‘llar harakat-holatni uning bajarilgan vaqti bilan bog‘liq holda ifodalaydi. Harakat –holatning bajarilish-bajarilmasligi aniq bilinib turadi. Ikkinchi guruhdagi fe‘llarda harakatni bajarishga buyruq ma‘nosini, uchinchi guruhdagi fe‘llarda harakatning bajarilish sharti ma‘nosi, to‘rtinchi guruhdagi fe‘llar esa harakatning bajarilish ma‘nosi ifodalanadi. So‘zlovchining fe‘ldan anglashilgan harakat-holatga munosabatini bildirgan fe‘l shakllari mayl shakllari, shunday shakllar tizimi esa mayl kategoriyasi deyiladi.[2;3]

Qadimgi turkiy tilida va hozirgi o‘zbek tilidagi fe‘l so‘z turkumi farqlanishi va o‘xshashlik jihatlari ko‘p. Faqatgina qadimgi turkiy tilda qoidalar va qarashlar bir oz qisqa yoritilgan. Hozirgi kunga kelib tilimiz salmoqli darajada boyib borganligi va ilmiy izlanishlar natijasida qoidalar kengayib tushunish esa anchagina qulaylashgan.

ADABIYOTLAR

1. “O‘zbek tilining tarixiy gramatikasi” G'. Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudov (170-bet) [1;1]
2. “O‘zbek tilidan ma‘ruzalar to‘plami” N. Erkaboyeva (334-bet) [2;1]
3. “O‘zbek tilining tarixiy gramatikasi” G'. Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudov (172-bet) [1;2]
4. “O‘zbek tilidan ma‘ruzalar to‘plami” N. Erkaboyeva (307-bet) [2;2]
5. “O‘zbek tilining tarixiy gramatikasi” G'. Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudov (199-bet) [1;3]
6. “O‘zbek tilidan ma‘ruzalar to‘plami” N. Erkaboyeva (199-bet) [1;3]



ABDULLA ORIPOV HAYOTI VA IJODINI O'RGATISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH

Egamova Saida Jumanazar qizi

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Usmonova Ziyoda

Ilmiy rahbar: Adabiyotshunoslik kafedrasida o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yetuk namoyondasi hisoblangan xalqimizning sevimli shoirlaridan biri, "O'zbekiston Qahramoni" Abdulla Oripovning hayoti hamda ijodiga oid maktab darsligidagi ma'lumotlarni o'rgatish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan interfaol usullar haqida so'z yuritiladi. O'quvchilarni adabiyotga muhabbat ruhida ulg'aytiruvchi, fanga nisbatan qiziqishlarini oshiruvchi, ularning dunyoqarashlarini kengaytiruvchi metodlar shoirning hayoti va ijodiga doir topshiriqlar misolida ko'rsatib beriladi. Maqolada " Klaster", "Mozaika", "Asar almashdi" usullaridan foydalanishning afzalliklari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: klaster, mozaika, usul, metod, adabiyot, she'riyat, ijodkorlik, lirika, vatanparvarlik

KIRISH

Bugungi shiddatli zamon har bir sohaga o'z talablarini qo'ydi. Ushbu sohalardan ta'lim tizimi ham chetda qolmadi. Tizimning asosiy vazifasi etib, sifatli va samarali o'qitish belgilandi. Taraqqiyotning turli sohalarida zamonaviy yangiliklarni qabul qildi. Jumladan, ta'lim tizimida ham davr talablaridan kelib chiqqan holda, o'qish va o'qitishning bir qancha yangi shakllari joriy qilindi. Shulardan biri, ta'lim jarayonida interfaol zamonaviy metodlardan foydalanishdir. O'qituvchi va o'quvchini birdek izlanishga chorlaydigan ushbu usullar o'zining samarasini bugungi kunga qadar bir necha bor ko'rsatib kelmoqda. Ular o'quvchilarni mustaqil va teran fikrlashga, o'z fikrini erkin bayon qila olishga, o'tilgan mavzularni xotiralarida mustahkam saqlab qolishlariga, qiyosiy tahlil qobiliyatlarining shakllanishiga yordam berishi jihatidan ahamiyatlidir. Shu sababdan ham har bir o'qituvchiga o'quvchilar uchun qiziqarli va zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda dars mashg'ulotlarini sifatli olib borish asosiy vazifa qilib qo'yildi.



ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Quyida Abdulla Oripov hayoti va ijodini o'rgatishda samarali bo'lgan, o'quvchilarda milliy ruh, vatanga muhabbat, sadoqatni oshirishga, ma'naviy oziqlantirishga xizmat qiladigan, yosh nuqtayi nazarini inobatga olgan holda tanlanadigan, qiziqarli o'yin va topshiriqlarni ko'rib chiqamiz.

1. "Qisqa sharh" topshirig'i. Ushbu topshiriqdan Abdulla Oripov hayotiga oid bo'lgan ma'lumotlar yuzasidan o'quvchilarning olgan bilimlarini tekshirib ko'rish maqsadida foydalanish mumkin. Bunda chap ustunda berilgan tushunchalarga o'quvchilar tomonidan izoh beriladi. Masalan: chap ustunda "Munojot" so'zi yozilgan bo'lsa, o'quvchilar quyidagicha javob berishlari mumkin: Ushbu asar Abdulla Oripov qalamiga mansub, she'r janrida yozilgan.

1941-yil 21-mart	
"Ayol"	
Umur shoir	
"Qo'riqxon"	
"Birinchi muhabbatim"	
"Yurtim shamoli"	
„Ona tilimga“	
Qasida	

2. "Asar adashdi" topshirig'i. Bunda Abdulla Oripov qalamiga mansub asarlarning nomi bir-biri bilan aralashtirilgan holda beriladi, o'quvchilar esa nomlarni to'g'rilab chiqishadi.

- "Yurtim muhabbatim" _____
- "Birinchi shamoli" _____
- "Mitti tinglab" _____
- „Munojot“ yulduz” _____

NATIJALAR VA MUHOKAMA



"Mozaika" usuli. O`qituvchi ushbu metoddan foydalanar ekan o`quvchilarga quyidagicha vazifa beradi: Abdulla Oripov she`rlaridan olingan quyidagi parchalarni ketma-ketlikda bir butun holatda joylashtiring.

1. A. yildirim, yeldim, Yo'llarda, misoli, yeldim

B. Ellar, boshladi, havas, vodiysiga

D. keldim, Elvagay, boshiga, Hisorning

E. esding, Sen, taraldi, atlas, tanda, siym

F. ochildi, esding, Sen, jamoli, yorning

G. shamoli, O, shamoli, yurtim, yurtim.

1

2

3

4

5

6

She`r nomi:

Bu kabi usullarni dars jarayonida yakka yoki guruhlar kesimida amalga oshirish mumkin. Ushbu metodlar o`quvchilarda erkin fikrlash qobiliyatining shakllanishiga, jamoa bilan ishlashning takomillashuviga, og`zaki va yozma nutqning ravon bo`lishiga yordam beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ushbu interfaol topshiriqlar o`qituvchilarni ham, o`quvchilarni ham birdek faol bo`lishga undaydi. Ulardan nafaqat Abdulla Oripov hayoti va ijodi, balki boshqa mavzularni o`rgatishda ham foydalanib samarali natijalarga erishish mumkin. Eng muhimi, darslar mazmunli, o`quvchilar uchun qiziqarli o`tadi. O`quvchilarda fanga nisbatan qiziqish ortadi. Ushbu jarayonning qanday tashkil etilishi esa har bir o`qituvchidan pedagogik mahorat talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik./ B. To'xliyev, B. Karimov, K.Usmonova, — Toshkent.: "Davlat ilmiy nashriyoti", 2017

2. Adabiyot. 5-sinf uchun darslik./ S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev, —Toshkent.: 2020

3. Tosheva O,(2012). Taqdimot materiallaridan foydalanish usullari. Til va adabiyot ta'limi,-Toshkent, 12-son.

4. "Umumta'lim metodikasi " jurnali, 2018 1-,2-,3-,4-sonlar.

5.Arziqulov A. U,(2003), Interfaol usullar. Samarqand.



QADIMGI TURKIY TILDA VA HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIDA SON SO'Z TUKUMI

Do'stmurodova Kamola Xudoyberdi qizi

Chirchiq davlat pedagogika universteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Muratova Nafisa Baxtiyorovna**

Annotatsiya: Maqolada qadimgi turkiy til va hozirgi o'zbek adabiy tilida son so'z turkumining farqlari va o'xshashlik tomonlari qisqacha yoritib berilgan. Qadimgi turkiy tilda son so'z turkumi hozirgi o'zbek adabiy tilidek turlari mavjud: sanoq son, tartib son, jamlovchi son, dona son, chama son, taqsim son, kasr son. Shu bilan birga, bu sonlarning ifodalanish usullari va shakllari bo'yicha eski o'zbek tilining o'ziga xos tomonlari ham bor.

Kalit so'zlar: Tuman, noaniq son, tarkibli son, numerativ so'zlar, hisob so'zlar, sodda va murakkab sonlar, bisyor, tartib son affikisi, bir sonining ma'nolari.

Annotation: The article briefly describes the differences and similarities of the number word group in the ancient Turkic language and the modern Uzbek literary language: countable number, ordinal number, single number, chama number, dividing number, fractional number. At the same time, the old Uzbek language has its own aspects in terms of the ways and forms of expression of these numbers.

Key words: Tuman, indefinite number, composite number, numerical words, calculation words, simple and complex numbers, bisyar, ordinal affix, meanings of a number.

Qadimgi turkiy tilda son so'z turkumi hozirgi o'zbek adabiy tiliga yaqin bo'lgani bilan ba'zi tomonlari bilan farq qiladi. Sanoq sonlar eski o'zbek tilida ham tuzilishiga ko'ra sodda va tarkibli sanoq sonlarni tashkil etadi.

Sodda sanoq sonlar birlik, o'nlik yuzlik, minglik shakllarga ega bo'lib, ularning umumiy ko'rinishlari mavjud.

Birlik	O'nlik	Yuz, ming va b.
Bir – 1	On – 10	Yüz – 100
Ikki – 2	Yigirmi	Miņ – 1000
Yc – 3	Yigirma – 20	Tuman – 10000
Tert – 4	Ottuz – 30	Lak – 100000
Beş – 5	Qirq – 40	Yüz tuman – 1000000
Alti – 6	Ellik	
Yetti –	Elli – 50	
7	Altmiş – 60	



Sekkiz	Yetmiş – 70	
– 8	Seksan – 80	
Toqquz	Toqsan – 90	
– 9		

2, 7, 8, 9, 30, 50 sonlarni tarkibidagi o'rtada kelgan [k], [t], [q], [l] undosh tovushlar arab yozuvida bir belgi bilan beriladi: iki (2), yeti (7), sekiz (8), toquz (9), otuz (30), elik (50). Bu undoshlarning tashdid orqali yozilishi, ikkilanishi “Tafsir”, “Najhul farodos”, “Guliston bit turkiy” kabi XIII – XIV asrlarga oid ayrim manbalarda uchraydi. 30, 50 sonlari “Devonu lug'atit-turk” da ham tashdid orqali yozilgan.[1;1]

Hozirgi o'zbek tilida predmetning miqdorini, son-sanog'ini ifodalash uchun ko'proq yigirma uchta sondan foydalaniladi. Bulardan to'qqiztasi birlik, sonlar: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9; to'qqiztasi o'nlik sonlar: 10, 20, 30, 40, 50, 60, 70, 80, 90 beshtasi yuzlik, minglik va yuqori sonlarni bildiradi: yuz, ming, million, milliard. Bu sonlarning barchasi miqdorga egalik ma'nosini ifodalovchilar sifatida nolga zidlanadi. Nol soni miqdorga ega emaslikni bildiradi. Qolgan sonlar birlik sonlarning o'nlik songa qo'shiluvidan (o'n bir, yigirma besh, to'qson to'qqiz), shuningdek, yuzlik va o'ndan yuqori son oldidan birlik, o'nlik sonlarning keltirilishidan (bir yuz ellik ming, to'qqiz milliard ikki yuz million, o'n bir ming besh yuz) hosil bo'ladi.[2;1]

Qadimgi turkiy yodgorliklar tilida tarkibli sanoq sonlarning tuzilishi boshqacha tartibda bo'lgan. Masalan, O'rxun-Enasoy yodgorliklarida tarkibli sanoq sonlar quyidagi ikki usul bilan yasaladi:

- a) Kichik sonlar oldin, katta sonlar keyin keladi. Masalan: iki yigirmi – “o'n ikki” (12) ma'nosida, ya'ni “yigirmaga tomon ikki” degan ma'noda.
- b) Katta son oldin, kichik son keyin keladi. Bunda tarkibli sanoq son qismlari III shaxs egalik shaklidagi artuqi (artuq+1) so'zi yordamida bog'lanadi. Masalan, otuz artuqi uch – “o'ttiz uch” (33) ma'nosida, ya'ni “o'ttizdan uch orrtiq, o'ttizga uch qo'shildi” degan ma'noda.[1;2]

Bir so'zi boshqa sonlardan turli ma'nolarga egaligi bilan farq qiladi. Ikki, besh, o'n, sakson kabi sanoq sonlar ot bilan bog'lanib, uning miqdorini aniqlaydi. Bir so'zida esa aniq miqdor bildirish xususiyati ancha kuchsizlashgan, chunki narsaning birligi, tanholigi, yakka ekanligi o'tning birlik shakli orqali ham ifodalanadi. Bola kitobni o'qidi. Bu gapda bir so'zi qatnashmasa ham bola va kitobning bitta ekanligi anglashiladi. Bir so'zida miqdor ma'nosining kuchsizlanishiga uning asosiy ma'nosidan tashqari juda ko'p boshqa ma'nolarni ifodalashida ham ko'rinadi. Bu ma'nolar esa faqat matnda ifodalanadi. Bir so'zi quyidagi ma'nolarni bildiradi:



1. Predmetni aniqlab, uning sonini ko'rsatadi. Bu vaqtda bir so'zi hisob so'zlari bilan ishlatiladi: bir so'm pul, bir gektar maydon.
2. Predmetni aniqlab, “noaniqlik” ma'nosini bildiradi. Xuddu ingliz tilidagi noaniq artikl “a” bajargan vazifani bajaradi: Bir ajib his bor edi manda.
3. Chegaralov ma'nosini bildiradi. Bunda bir so'zi faqat yuklamasiga sinonim bo'ladi: Darsga bir Ahmad kelmadi – Darsga faqat Ahmad kelmadi.
4. Fe'lga bog'lanib, uning ma'nosini kuchaytiradi. Bunda bir so'zi juda so'ziga sinonim bo'ladi: Sizni biram sog'indim – Sizni judayam sog'indim.
5. Takrorlanib, ayiruv bog'lovchisi vazifasini bajaradi, voqea hodisalarning galma – gal ro'y berganini bildiradi: Choy mahali bir kulib, bir yig'lamsiradi.
6. Tenglik ma'nosini bildiradi. Bunda u teng so'ziga sinonim bo'ladi: Qonun oldida hamma bir.[2;2]

Eski o'zbek tilida ham bir soni ko'p ma'noliligi bilan boshqa sanoq sonlardan farqlanadi. Bir soni o'z ma'nosida qo'llanishidan tashqari yana bir qancha vazifalarni ham bajaradi. Bulardan asosiylari quydagilar.

1. Noaniqlik ma'nosini bildiradi: Og'ul bir ün qildi.
2. Ma'noni kuchaytirish, ta'kidlash uchun xizmat qiladi: Bir qiya baqsan zakati husn üçün.
3. Bir so'zi juft so'z shaklida takrorlanibqo'llanganda, ikki tomondan bo'lgan ish-harakatning o'zaro munosabati ko'rsatiladi: Bir-biri birlä xush bolsa erdi.

Bir so'zi sanoq son sifatida qo'llanganda narsa va hodisalarning sanog'ini ko'rsatadi: Bu sozga bir ay kechmishdin soñ.[1;3]

Qadimgi turkiy tilda son so'z turkuminidan foydalanilgan bo'lsa-da, ammo so'zlarning salmog'i hozirgi o'zbek adabiy tiliniki singgari ko'p emas. Bugungu kunda esa olimlarimizning fan ustida olib borgan izlanishlari va o'zbek tilining boyib borishi evaziga boshqa so'zlar va turkumlar qatorida son so'z turkumiga oid so'zlar ham ko'payib bormoqda. Bu esa tilimizga bo'lgan e'tiborning yaxshi ekanligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar

1. “O'zbek tilining tarixiy gramatikasi” G'. Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudov (125-bet) [1;1]
2. “O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami” N. Erkaboyeva (274-bet) [2;1]
3. “O'zbek tilining tarixiy gramatikasi” G'. Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudov (127-bet) [1;2]
4. “O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami” N. Erkaboyeva (276-bet) [2;2]
5. “O'zbek tilining tarixiy gramatikasi” G'. Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudov (127-128-bet) [1;3]



XX ASR JADID ADABIYOTI NAMOYONDASI-MAHMUDXO'JA BEHBUDIY.

Do'stmurodova Kamola Xudoyberdi qizi

Chirchiq davlat pedagogika universteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Ruxsora Murodova Ismatulla qizi**

Annotatsiya: Maqolada XX asr adabiyoti bu davr ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida jadidchilikning o'rni, shuningdek, ma'rifatparvar Behbudiying hayot yo'li, "Padarkush" pyesasi yoritib beriladi. "Jadid"- yangi degan ma'noni bildiradi. XX asr boshlarida taraqqiyotga, yangilikka intilgan kishilarni shunday atashgan.

Kalit so'zlar: Milliy uyg'onish davri, jadid adabiyoti, "olimi zamoniyy", gazeta, maqola, taraqqiyot, sho'ro adabiyoti, buyruqbozlik usuli, maorif, "Padarkush", "tarixiy kun".

Аннотация: В статье освещается роль джадидизма в общественно-политической и культурной жизни XX века, а также жизненный путь просветителя бехбуди, пьеса "Падаркуш". "Джадид" - означает новый. В начале XX века так называли тех, кто стремился к прогрессу, новаторству.

Ключевые слова: национальное возрождение, джадидская литература, "ученый Современник", газета, статья, прогресс, соленая литература, командный метод, просвещение, "Падаркуш", "исторический день".

Annotation: In the article, the role of Jadidism in the socio-political and cultural life of the 20th century literature, as well as enlightener, Behbudi's life path, the play "Padarkush" is highlighted. "Jadid" means new. At the beginning of the 20th century, people who strived for progress and innovation were called that.

Keywords: National renaissance period, modern literature, "Olimi Zamany" newspaper, article, development, Shura literature, command method, education, padarkush, "historical day".

XX asrda o'zbek xalqi hayotida ro'y bergan bir qator voqealar olamshumul ahamiyatga molik bo'lib, ular shu asr adabiyoti tarixini turli davrlarga ajratib o'rganishni taqazo etadi. Bu davrdalar quydagilar:

1. Milliy uyg'onish davri adabiyoti (1905-1916).
2. Inqilobiy o'zgarishlar davri adabiyoti (1917-1929)
3. 30-40-yillar adabiyoti



4. 50-80-yillar adabiyoti¹
5. Hozirgi adabiy jarayon (90-yillar)

XIX asrning 60-yillaridan e'tiboran paydo bo'lgan yangi o'zbek adabiyoti hozirgacha bo'lgan vaqt mobaynida o'z taraqqiyotining quyidagi bosqichlaridan o'tdi:

1. ma'rifatparvarchilik adabiyoti;
2. jadid adabiyoti;
3. sho'rolar adabiyoti;
4. mustaqillik davri adabiyoti;

Bu davrda xalqimizni ma'rifatli va savodli qilish bilan bir qatorda umuminsoniy qadryatlarni shakllantirishga hissa qo'shgan jadidlarimiz sanoqlidir. Ammo ularning samarali mehnati va jonlarini fido qilganligi tahsiga sazovordir. Jadidlar o'zlarining "usuli jadid" jamiyatini ochishi bilan ko'plab muvaffaqiyatga erishdi.

Jadidchilik harakatida Mahmudxo'ja Behbudiyning qo'shgan hissasi beqiyosdir. "Behbud" so'zi foyda, najod; baxtli, tinch, osoyishta kabi ma'nolarni anglatadi. Yoshligidanoq arab, fors, turk tillarini mukammal o'rgangan Mahmudxo'ja asr boshida Arabiston, Turkiya, Orenburg, Qozon, Moskva, Peterburg safarlarida bo'ldi. U jadidchilik nomoyondalaridan bo'lib Samarqandda yangi usuldagi maktablar ochdi. 1913-yilda "Samarqand" gazetasi va "Oyna" jurnalini nashr etishda bosh-qosh bo'ldi. 1911-yilda "Padarkush" dramasini yozib, o'zbek dramaturgiyasiga asos soldi. Behbudiy 1918-yil o'rtalarida "Musulmon ishchi va dehqon sho'rosi" ga maorif xalq komissari bo'ldi, Turkistonning davlat tili to'g'risidagi dekret loyihasini tayyorlashda jonbozlik ko'rsatdi, "Nashryoti Behbudiya" nomli nashryot ochdi. U 1919-yilning bahorida Buxoro amirining Shahrizabzdagi kishilari tomonidan hibsga olindi va "sho'roning ayg'oqchisi, jadid, sho'roga sotilgan" degan ayblar bilan Qarshi shahrida qatl etiladi. Behbudiy qabrning qayeridaligi noma'lum.

"Agar bizning hayotimiz hurriyat va xalq baxt-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo'lsa, biz o'limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz", -degan edi Behbudiy vasiyatnomasida. Behbudiy haqli ravishda o'zbek matbuoti hamda pedagogikasining asoschisi sanaladi. "Zarafshon" gazetasi 1922-yilda Behbudiyning "nashri maorif to'g'risida vatanimizning birinchi qahramoni" deyishi bejiz emas. O'z davrining Xoji Muin, Fitrat, Sadridin Ayniy, Cho'lpon kabi san'atkorlari Behbudiy o'limiga marsiyalar bag'ishladilar. Hojimurod bu alloma qatl etilishi voqeasini markazga qo'ygan holda "Ma'orif qurbonlari" nomli pyesa yozdi.

¹ "Adabiyoti tarixi" M.Hamroyev 162-bet .



Behbudiy o'zbek adabiyotida drama janriga asos slogan adibdir. Uning "Padarkush" nomli dramasi 1911-yilda yozilgan bo'lib, ilk bor 1912-yilda "Turon" ro'znomasida bosilgan. Drama 1913-yilda kitob holida o'zbek tilida nashr etildi. Biroq uning muqovasida rus tilidagi: "Rusiyaning fransuz ibtidodidan qutilishi va mashhur Borodino muhorabasi xotiralari yubileyiga bag'ishlayman" degan yozuv bor.

Adabiyotshunos olim, Naim Karimov ham o'z kitobida Behbudiy haqida shunday qarashlarni yozgan: "O'tgan asrning 10-yillaridan to shu kunga qadar Mahmudxo'ja Behbudiy va uning "Padarkush" asari to'g'risida nafaqat o'nlab gazeta va jurnal maqolalari, balki o'quv darsliklari va qo'llanmalari ham nashr etilgan. Afsuski Behbudiy fojiali ravishda vafot etganligi sababli o'zi haqida ilmiy-avtobiografik ahamiyatga molik biror maqola yozib qoldirmagan. Shuning uchun ham Behbudiyga bag'ishlangan aksar maqola va xotiralarda adib hayotining ayrim sanalari turlicha qayd etilib keladi."

Pyesa Toshkentda 1914-yilning 27-fevralida qo'yildi. Abdulla Avloniyning "Turon" truppasi Kolizey (hozirgi Savdo birjasi bonosi)da o'z faoliyatini mana shu "Padarkush" bilan boshlagan edi. Spektakl oldidan mashhur Munavvarqori teatrining jamiyati hayotidagi o'rni va ro'li haqida nutq so'zlaydi. Boy ro'lini Abdulla Avloniyning o'zi ijro etadi. Mahalliy matbuot bu kunni "tarixiy kun" deb yozadi.

"Turon" truppasi 1914-16-yillarda bu spektakl bilan butun Farg'ona vodiysini aylanib chiqdi. "Padarkush" Turkistonni junbushga keltirgan qirg'inbarot inqilob yillarida ham sahnadan tushmadi. Bir tomondan millat taraqqiyoti va ma'rifati sari undashda buyuk ro'l o'ynagan bo'lsa, ikkinchi yoqdan, professional o'zbek teatri va dramachiligining maydonga kelishi hamda taraqqiyotida muhim xizmat qildi.² Behbudiyning "Padarkush" pyesasi yoshlar ta'lim olishi va kamolga yetishishida ijtimoiy va oilaviy muhit uchun alohida o'rin tutadi. Unda qahramonlarning birini tilidan o'z g'oyasini: "Bizlarni xonavayron...bevatan va bandi qilg'on tarbiyasizlik va jaholatdir, bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqirlik, zarurat va xorliqlar... hammasi ilimsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir...", degan yo'sinda bayon qiladi. Asarning nomi "padarkush" so'zi lug'aviy jihatdan "ota qotili" degan ma'noni anglatadi.(int: vikepediya).Asarda ilimsizlik qoralanadi. Unda Behbudiy Turkiston xalqi uchun ikki yo'nalishdagi olimlar zarur, degan fukrni ilgari surgan. Biri diniy yo'nalishdagi ulamolar bo'lib, ular xatib, imom, mudarris, mufti va boshqalardir. Ikkinchisi esa zamonaviy yo'nalishdagi olimlardir. Ularni Behbudiy "olimi zamoniy" deb ataydi. Padarkush dramasi kamchiliklardan holi emas edi. Ayniqsa, ayrim qahramonlar harakati, xarakteridagi dalillash san'ati ba'zi o'rinlarda kuchsiz. Xususan,

² O'zbek adabiyoti tarixi" B.Qosimov 166-bet.



qotillik epizodi sun'iyroq. Asarda g'oya doim ham qahramonlar harakteri, harakatidan emas, ko'proq muallif maqsadlarini tezroq o'gishga intilishdan kelib chiqadi. Bu, chamasi, obraz harakatini g'oyaga bo'ysundirishga berilib ketishdan va drama janridagi tajriba ozligi tufaylidir.³

Shunday bo'lsada bu asar ilk marotaba vatanda yashab bevtan qolish muammosi yoritib berilgan. M.Behbudiy asarlarida ta'lim va tarbiyaning qanchalik muhimligi asosiy tamoyillardan biri ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda internet tarmog'iga bog'lanib qolgan har bitta yosh avlodga Behbudiy asarlarini mag'zini chaqib berishga harakat qilsak umid qilamanki, mana shu asarda keltirilgan bebosh bolalarni kamaytirgan bo'lar edik.

Adabiyotlar

1. Adabiyot tarixi" M. Hamroyev 162-bet.
2. O'zbek adabiyoti tarixi" B.Qosimov 166-bet.
3. Adabiyot tarixi" M. Hamroyev 164-bet.
4. Internet. Vikepediya.

³Adabiyot tarixi" M. Hamroyev 164-be



Turdi Farog'iy asarlarining tili va uslubi.

Rustamova Fotimabonu Baxtiyor qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar

Fanlar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti

yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Muratova Nafisa Baxtiyarovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar

Fakulteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola XVII asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan, xalqning dardini baralla kuylay olgan, o'z xalqining vafodor va zabardast shoiri Turdi Farog'iyning g'azallari va uning g'azallarida qo'llangan qo'shimchalarning tahlili to'g'risida.

Kalit so'zlar: demokratik, an'anaviy, ishq,tasavvufiy, falsafiy, adabiy til, adabiy me'yor.

Annotation: This article is about the analysis of the ghazals of Turdi Faroghi, who lived and created in the second half of the 17th century, was able to sing the pain of the people, and was a loyal and great poet of his people, and the additions used in his ghazals.

Key words: democratic, traditional, love, mystical, philosophical, literary language, literary standard.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу газелей Турди Фароги, жившего и творившего во второй половине XVII века, умевшего воспеть боль народа, и являвшегося верным и великим поэтом своего народа, и дополнения, используемые в его газелях.

Ключевые слова: демократический, традиционный, любовный, мистический, философский, литературный язык, литературный стандарт.



Shoir Turdi XVII asrning ikkinchi yarmida Buxoroda yashab ijod etdi. U demokratik ruhdagi adabiyotning yirik namoyandalardan biridir. Turdining hayoti va ijodi haqida juda oz ma'lumot saqlangan. Uning bizgacha 1924 yilda topilgan 28 betli she'rlar to'plami etib keldi. Bu to'plam O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanib, unda hammasi bo'lib 450 misraga yaqin 17 ta she'r bor. She'rlarning 15 tasi o'zbek tilida, 2 tasi tojik tilida yozilgan.

Turdi ham o'z ijodini boshqa shoirlar kabi an'anaviy ishq mavzuidan boshlagan. Uning: *Turkona xirom ayladi ul sho'xi diloro, Dil mulkini bir go'shai chashm ayladi yag'mo* matlasi bilan boshlangan ishqiy g'azali lirikaning yaxshi namunalaridan hisoblanadi. Turdining lirik g'azallari boshqa shoirlarnikidan o'zining nihoyatda ixchamligi, ya'ni 3—4—5 baytdan iboratligi bilan ajralib turadi. Uning tasavvufiy she'rlari ham g'oyat go'zal va falsafiy teran mazmunga boy („...Ibrat ila boq, ko'zung tufroqqa to'lmasdan burun“).

Turdi g'azallarining aksariyati hali hech kim qalamga olmagan, o'tkir ijtimoiy-siyosiy va falsafiy-axloqiy mavzularga bag'ishlangan. Ayniqsa, shoirning: *Tor ko'ngullik beklar, manman demang, kenglik qiling, To'qson ikki bovli o'zbek yurtidur, tenglik qiling* ... matlasi bilan boshlanadigan g'azalida yurtni boshqarayotgan beklarga murojaat qilib, ularni keng fe'lli, o'zaro ittifoq bo'lishga, bir-birini urug'chilik belgilariga qarab kamsitmaslikka chaqirish uning o'z davridagi yuksak fikrli vatanparvar va haqiqiy insonparvar kishi bo'lganligidan dalolat beradi

Turdi XVII asr saroy adabiyotidan aloqasini uzgan o'zbek she'riyatining yirik namoyandasidir. U o'z zamonasining kuchli satirik shoiri hisoblanadi. Turdining ko'p she'rlari tanqidiy xarakterda bo'lib, poraxo'r, zolim Subhonqulixon va uning amir-amaldorlarini, ularning zulmi va o'zboshimchaliklarini fosh qiladi, mamlakat va xalq manfaatini kuylaydi:

*Xalq qolig'a tama' bilä tikib köz,
Sözlämas ul g'amädin yyzi qaralar bir söz.*

Turdining satirik she'rlari fikr va maqsadning jonliligi, rostgo'yiligi bilan xarakterlanadi. Ularning bayon qilish uslubi va tili sodda, pishiq, tasvir vositalari o'tkirdir. Masalan:

*Yurtning malini chaynab edi bu bedumlar,
Bolmadı kam bu raiyat bashidin hech tayaq.*

Turdi o'z badiiy uslubi va tilining xalqqa tushunarli bo'lishiga intiladi. U amir va amaldorlarni o'z tilidan so'zlatib fosh etish usulidan san'atkorlik bilan foydalanadi. Mamlakat va xalq hayotidan uzoqda turgan «ko'r», «kar» beklarni «bo'g'izlarini



poraga tegirmon novidek tutib, og'izlarini ajdahodek ochadilar», «tomoq, fikri»dan o'zganı bilmaydilar» kabi o'xshatishlar bilan keskin fosh qiladi.

Uning ko'tarinki ruh bilan yozilgan she'rlarida ohang muhim o'rin tutadi. SHoir satirasi zolimlarga qaratilganligi uchun ohangda uqtirish, xitob va undashlar ko'p. U beklarga: «Ey yuzi qora, qulog'i kar beklar» deb xitob qiladi.

Turdi «El rabotu to'ra qo'noq» maqolini ishlatish bilan, amaldorlarning o'zgarib turishini va xalqning esa o'z holicha qolaverishini ta'kidlaydi. O'z tilini soddalashtirishga, xalq maqollari va ifodalaridan keng foydalanishga intilgan Turdi she'rlarida «gardan shikasta mondi», «yuvgan qazan astında qalg'an yundı», «sıyqa chaqa» kabi omma tez tushunadigan o'xshatish va metaforalar qo'llaydi.

Turdi she'rlarida xalq jonli tili xususiyatlari bilan birga, ozarbayjon tili, ya'ni Fuzuliy she'riyatining samarali ta'sirlarini ham ko'ramiz. Ana shu ta'sir natijasida ba'zi so'zlarda, ko'pincha so'zning boshida keluvchi *t* tovushi *d* ga o'tadi:

*Fitnayu shor hama rub ila maskun dutdī,
Xublar masnadīnī sifda bilan dun dutdī.
Yaxpshliq qılma tama', zulm ile doldī afaq.*

Bu misollardagi *dun, dutdī, doldī* so'zlari g'arbiy adabiy tilning, ya'ni ozarbayjon tilining adabiy me'yori asosida berilgan.

Qaratqich kelishigining qo'shimchasi *-nīng/-ning, -īng/-ing* ko'rinishlarida ishlatiladi. Ma'lumki, *-īng/-ing* qaratqich kelishigining eng kadimgi ko'rsatkichidir: *Bularīng aldīda bardur bōrining insafī.*

Tushum kelishigi qo'shimchasi *-nī/-ni, -n, -ī/-i* ko'rinishlarida qo'llanadi. Masalan:

*Qanī bir xisravi ādilki, anga dād etsem,
Sorsa ahvālīnī g'am xirmānīnī, bād etsem.*

CHiqish kelishigining qo'shimchasi *-dīn/-din// -tīn/-tin* shaklida, jo'nalish kelishigining qo'shimchasi *-g'a/-gā// -qa/-kā, -a/-ā* shakllarida qo'llanadi. Bulardan *-a/-ā* ko'rsatkichi g'arbiy adabiy tilga xos xususiyatdir:

*Yetmādim hech yerā bu qāfiya paymālīrīngdīn ...
Kas ul g'arzanlar salsa quruq sōzgā qulaq...*

Aniq o'tgan zamon fe'lining birinchi shaxs birligi *-dimān* yordamida hosil bo'ladi: *Yetib mendan kim, beryr yaxshī zamānlar kōrdimen.*

Hozirgi-kelasi zamon fe'lining bo'lishsiz shakli *-man/-mān* qo'shimchasi bilan ham hosil qilinadi:

*Bilā alman bu duldul raxshī Rustam yā parizādī,
Ki ādam og'līg'a g'am olmag'an, ne yerdā ārāmī?*



Sifatdosh yasovchi *-g'an/-gün* qo'shimchasi *-an* ko'rsatkichida ham qo'llanadi. Keyingisi o'g'uz tillariga xos ko'rsatkichdir: *Barcha boynig'a salan bu rishtanī, qat etmedi.*

Harakat nomlari jo'nalish kelishigi bilan turlanganda fonetik o'zgarish yuz beradi, ya'ni negizdagi *q* tovushi tushib qoladi:

Zarnī jam eylāmāg hirsu havā besh tutub

YUzini körmägä hazratda boldīm eshitib nāmīn.

Bundan tashqari, jonli tilning leksik boyligidan keng foydalanish Turdi satirik asarlarining g'oyaviy-badiiy qimmatini oshirishga xizmat qilgan. Turdi o'sha davr saroy shoirlari tilidan siqib chiqarilgan *to'g'anaq, mashaq, oraq, tamaq, mazava, bangi, qirchang'i, chikkä-pykkä, yapalaq, sak, shum, sypryndi, mundi, yundi, bedym* kabi so'zlarni qo'llaydi. Bu narsa sodda badiiy uslubda yozilgan shoir she'rlarining yuksak darajada xalqchilligini ta'minlagan va xalq jonli tiliga yaqinlashishga olib kelgan.

Xulosa qilib aytganda Turdi Farog'iy ham o'zi yashagan davrda atrofdagi nohaqliklarni qo'rqmasdan, dadillik bilan, ona yurtining chin farzandi sifatida mardlarcha kuylay olgan zabardast shoirlarimizdan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. U o'z tilining ravnaqiga sezilarli hissa qo'shgan va saroy shoirlari tomonidan siqib chiqarilgan ko'plab so'zlarni ham o'z she'rlarida qo'llab tilini yanada boyitgan. Uning she'rlari sodda, badiiy uslubda yozilganligi ham she'rlarining xalqqa tushunarli holda qo'llanilishini ta'minlagan omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.U.Tursunov va b. O'zbek adabiy tili tarixi. T., 1995.
- 2..A. SHomaqsudov, I. Rasulov va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi. T., 1983.
- 3.E.Begmatov. O'zbek tilining leksik qatlamlari. Toshkent, 1987.
- 4.U.Tursunov, B.O'rinboyev, A.Aliyev. O'zbek adabiy tili tarixi. Universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari talabalari uchun darslik. Toshkent: O'qituvchi, 1995.
- 5.A.Muxtorov, U.Sanaqulov. O'zbek adabiy tili tarixi.O'zbek adabiy tili tarixi. Universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari talabalari uchun qo'llanma. Toshkent: O'qituvchi, 1995.
- 6..G'.Abdurahmonov, Sh.Shukurov. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. Toshkent, "O'qituvchi", 1973.
- 7..Mutallibov S. Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk. Toshkent, "O'zdavnashr", 1959.



**XX asrda Turkiy xalqlarning jadid nomoyondalari Ismoilbek G'aspirali
va Mahmudxo'ja Behbudiy**

Yigitaliyeva Feruza Shavkatovna

Chirchiq Davlat pedagogika universteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Rahmonova Nafisa Azadbekovna

Annotatsiya: Turkistonda jadidchilik harakati va yangi ziyolilarning shakllanishida Ismoil G'aspiralining faoliyati, ayniqsa u nashr qilgan “Tarjimon” gazetasi muhim rol o'ynadi. Turkiston jadidlarining G'aspiraliga bo'lgan munosabatini aniqlash ularning ijodi va faoliyatini batafsil tahlil qilishni taqozo etadi. Shu jihatdan olib qaralganda, Behbudiy turkistonlik jadidlar orasida G'aspirali bilan mustahkam aloqa o'rnatgan va “Tarjimon”da faol ishtirok etganligi bilan ajralib turadi. Behbudiy o'z faoliyatida bevosita G'aspirali yo'lini tanladi. U G'aspiralining til birligi g'oyasini keng targ'ib qildi va quvvatladi.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, Ismoil Gasprinskiy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Tarjimon Gazetasi

Abstract: Ismail Gasprinsky's work, especially the “Tarjiman” newspaper, which he published, played an important role in the formation of the attitude of Turkestan jadidst to Gasprial requires a detailed analysis of their creativity and activity. From this point of view, Behbudi stands out among the Turkestan Jadids because he established a strong relationship with Gaspriali and actively participated in “Tarjiman”. Behbudi directly chose the path of Gaspriali in his career. He widely promoted and strengthened the idea of Gaspriali's language unity.

Key words: Jadidizm, Ismail Gasprinsky, Mahmudhadja Behbudiy, Tarcuman newspaper.

Turkistonda “jadid” nomini olgan intelligensiya XX asrning birinchi 10 yilligida shakllandi. Ushbu guruhning asosini Toshkent, Samarqand, Buxoro va Qo'qon shaharlari va atrofidagi ma'rifatparvarlar tashkil etdi. Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulqodir Shakuriy, Buxoroda Sadridin Ayniy, Fitrat, Usmonxo'ja, Qo'qonda Ashurali Zohiriy, Mahmudjon Obidov kabilar ushbu “jadid” guruhining markazida turdi. Yuqoridagi guruhning shakllanishida Rossiya imperiyasi qo'l ostida bo'lgan turkiy xalqlar o'rtasida ijtimoiy-siyosiy sohada islohotlarni amalga oshirishga



yo'naltirilgan jadidchilik harakatining asoschisi qrimlik Ismoil Gasprinskiyning (1851-1914) faoliyati, ayniqsa, u nashr qilgan "Tarjimon" gazetasi muhim rol o'ynadi. Jadidlar Gasprinskiy va "Tarjimon" gazetasi bilan XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida yaqindan tanisha boshladi. Chor Rossiyasi qo'l ostida bo'lgan Turkiston hududlarida ziyolilar "Tarjimon"ni obuna orqali olgan bo'lsalar, Buxoroda yashirin yo'llar bilan keltirib o'qidilar. Turkiston jadidlarining Gasprinskiyga bo'lgan munosabatini aniqlash ularning ijodi va faoliyatini batafsil tahlil qilishni taqozo etadi.[1;1]

Ismoilbek Gaspirinskiy Rusiya jadidchilik harakatining rahnamosi edi. Turkistonda XIX asrning oxirlaridan ko'zga tashlangan yangilaninh harakatlari ko'p jihatlari bilan shu nomga, uning "Tarjimon" gazetasiga kelib bog'lanadi. Va ushbu davrdan e'tiboran XX asrning 20-yillariga qadar faoliyat ko'rsatgan biror turkistonlik ziyoliy yo'qki, bu nomni chetlab o'tgan bo'lsin. Shu sababli, uning ijodiy faoliyati va ayniqsa , maslak-intilishlari bilan tanishish, Turkiston jaidchiligi va jadid adabiyotininsh shakllanishi hamda rivijlanish bosqichlarinigina emas, umuman mazmun-mohoyatini anglashda, yo'nalishlarini belgilashda ham benihoya muhim ahamiyatga ega. Bu nom yuz yil muqaddam turkiy dunyodagi eng mashhur nom edi. Uni Qashqardan Londongacha Sankt-Peterburgdan Bombeygacha bilar edi. U chiqargan "Tarjimon" gazetasining 1908- yildagi 25 yillik to'yida Xitoyning "Tarancha"sidan tabrik telegrammasi kelgan. 1910-yilda esa Fransiyaning eng e'tiborli jurnallaridan "Revyu dyu monde musulman" uning millati oldidagi buyuk xizmatlari uchun nomzodini "Tinchlik borasidagi Xalqaro Nobel mukofot"iga tavsiya qilgan va buni Xorijiy mamlkatlardagi juda ko'p matbuot organlari qo'llab-quvvatlab chiqqan edi.[2;1]

Bu davrda xalqimizni ma'rifatli va savodli qilish bilan bir qatorda umuminsoniy qadryatlarni shakllantirishga hissa qo'shgan jadidlarimiz sanoqlidir. Ammo ularning samarali mehnati va jonlarini fido qilganligi tahsiga sazovordir. Jadidlar o'zlarining "usuli jadid" jamiyatini ochishi bilan ko'plab muvaffaqiyatga erishdi.

Behbudiy o'z faoliyatini shakllantirishda va olib borishda bevosita Gasprinskiy yo'lini tutgan, deb aytish mumkin. U birinchi bor 1899 yili haj qilish uchun sayohatga chiqadi va Istanbul, Qohira kabi shaharlarda bo'ladi. Amerikalik tadqiqotchi Adib Xolidning ta'kidlashicha, Behbudiy ayni shu sayohat davomida Usmoniylar davlati hamda Misrda xalq ta'limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va yangiliklarni kuzatish barobarida ijtimoiy sohadagi islohotlarda yetakchilik qilgan shaxslar bilan ham muloqot qilish imkoniga ega bo'lgan. Oradan 8 oy vaqt o'tib, u Samarqandga qaytishi bilan "Tarjimon" gazetasiga obuna bo'ldi. Behbudiyning 1899-yilgi safaridan



“Tarjimon” gazetasiga obuna bo‘lib o‘qiy boshlaganligini uning yaqin hammaslagi bo‘lgan Hoji Muin ham tasdiqlaydi. Behbudiyning publitsistik faoliyati 1902-yili Turkistonda mahalliy tilda chiqqan rasmiy “Turkiston viloyatining gazetisi”dan boshlandi. Gasprinskiy 1904-yildagi Rossiya-Yaponiya urushi munosabati bilan “Tarjimon”da musulmonlarni bu urushda ishtirok etayotgan rus va musulmon askarlariga yordam tariqasida pul, kiyim va oziq-ovqat yig‘ib yuborishga da'vat qilib bir necha maqola yozdi. Behbudiy ham ayni shu mavzuda “Turkiston viloyatining gazetisi”da kichik bir maqola e‘lon qildi. Unda Behbudiy turkistonliklarga musulmonlar nima sababdan rus askarlariga va davlatiga yordam berishlari kerakligini tushuntiradi. Muallif o‘z so‘zlarining dalili sifatida “gazetlarda yozilib” turgan “Qrim tarafidagi ba’zi shaharliklar” pul va kiyim yig‘ib yuborganliklari voqyeasini misol keltiradi. Behbudiy “gazetalar” deganida aynan “Tarjimon”ni nazarda tutadi va unda berilgan xabarlardagi ma’lumotlardan foydalanadi. Behbudiyning “Tarjimon”dagi ishtiroki 1904-yilning so‘ngida ko‘rinadi. Gasprinskiy bilan Behbudiy orasidagi amaliy hamkorlik aynan shu davrdan boshlanadi deyish mumkin. “Tarjimon” idorasi Rossiya musulmonlari manfaatlarini uchun mo‘ljallangan turli tadbirlarga o‘z o‘quvchilarini pul xayriya qilishga doim targ‘ibot ishlarini olib borgan. Behbudiy “Tarjimon” idorasining shunday murojaatlaridan biriga javob tariqasida Peterburgda Buxoro amiri Abdulahadxon tashabbusi bilan qurilayotgan masjid hamda Samara viloyatida tashkil etilgan qizlar maktabiga xayriya tarzida pul yuboradi va “Tarjimon” idorasiga yig‘ilayotgan pullarni qay tartibda kerakli joylarga yuborishi haqida savol bilan murojaat qiladi. Gasprinskiy Behbudiyga tashakkur bildiradi va savoliga batafsil javob beradi.[1;2]

Ismoil Gasprinskiy hayoti va sarmazmun faoliyatini Turkistonsiz, uning tarixi va taqdiri haqidagi o‘ylarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ulug‘ mutafakkir Turkiston xalqining boy ma‘naviy merosini Rusiya musulmonlari borasidagi yangilanish va islohatchilik harakatlari uchun ma‘naviy merosini Rusiya musulmonlari borasidagi yangilanish va islohatchilik harakatlari uchun ma‘naviy omil deb biladi. Ayni paytda, butun vujudi bilan Turkiston uchun ham najot yo‘lini izlaydi va buni yangilanishda, islohotda ko‘radi. Shunga ko‘ra, uning qarashlari ham Turkiston bilan teran bog‘langan edi. Shu sababli bu fikr-qarashlar Turkistonda aks-sado topdigina emas, turkistonlik taraqqiyparvar ziyolilar uchun dasturul amal vazifasini bajardi.[2;2]

Adabiyotlar

1. “XX asrning Turkiy dunyosining ikki buyuk intellektuali” Z. Abdirashidov (91-92-bet) [1;1]
2. “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti” B. Qosimov (146- bet) [2;1]





3. “XX asrning Turkiy dunyosining ikki buyuk intellektuali” Z. Abdirashidov (93-94-bet) [1;2]
4. “Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti” B. Qosimov (163- bet) [2;2]



FERMENT PREPARATLARNI AJRATIB OLIISH USULLARI.

Mahammatqulov Shaxzod Baxtiyor o'g'li¹

Jo'rayeva Zuhra Berkin qizi²

Sobirova Muqaddas Botirovna³

¹Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali
Biotexnologiya yo'nalishi talabasi

²Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali
Biotexnologiya yo'nalishi talabasi

³Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali
Biotexnologiya kafedrasida biologiya fanlari nomzodi, PhD.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ferment va ferment preparatlari olish usullari haqida bir qancha manbalardan foydalanilgan holda ma'lumotlar keltirilgan. Fermentlar lotincha (*fermentum*)- achitqi, tirik hujayralar tomonidan sintez bo'ladigan oqsil tabiatli molekulalar bo'lib ular har bir hujayrada bir necha yuzlab va har xil vaziflarni bajaradi. Fermentlardan biologik katalizator sifatida odamlar turli xil sohadagi amaliy faoliyatlarida keng foydalanib kelishmoqda [1]. Fermentlarning biosintezi genetik kod tomonidan nazorat qilinadi. Hujayrada fermentlar faolligini boshqarishda hujayra tarkibiy qismini tashkil etuvchi strukturalar-mitoxondriyalar, mikrosomalar va boshqalar katta rol o'ynaydi. Fermentlarni ajratish va tozalashda hozirgi kunda adsorbsiya usulidan keng foydalanilib kelinmoqda.

Kalit so'zlar: Kommersiya ,genetik kod, sentrafuga, ksiloza, mixotoksin, xromatografiya, benzoat.

Hujayra ichida va hujayra tashqarisiga chiqaradigan fermentlarni ajratib olish va ularni tozalashni dastlabki bosqichida juda ham katta farq mavjud bo'lib bunda biomassani kultural suyuqlikdagi metabolitlardan jumladan, hujayra tashqarisiga ajralib chiqadigan fermentlarni ajratish jarayoni unchalik murakkab emas. Bu usul sentrafuga, separator va ba'zan oddiy filtrlash (Zamburug'lar uchun) orqali ham amalga oshiriladi [4]. Bu jarayonda kimyoviy tarkibi bo'yicha xilma xil metabolitlar saqlovchi kultural suyuqlikni filtrati biomassadan ajratib olinadi. Odatda filtrat ajratiladigan fermentni, 80% ga yaqinroq bo'lgan faolligini saqlaydi va keyingi texnologik manipulyatsiyalarga tayyor eritma hisoblanadi. Hujayra ichidagi fermentlarni ajratib olish uchun biomassa kompenetlarni tozalash va dissterlangan suv yoki juda suyultirilgan bufer bilan bir necha maratoba yuvib tashlanadi. Hujayraning strukturasini buzib, ichidagi fermentlarni ajratib olish uchun har xil usullarda foydalaniladi [1]:

Mexanik (sharikchalar yordamida buzish; kvars qumlari bilan artish)

Fizik (ultratovush gidravlik qimirlatish ,muzlatib eritish).



va boshqalar. Buzilgan biomassadan fermentni pH ko'rsatkichi fermentga to'g'ri keladigan va suyultirilgan buffer yordamida amalga oshiriladi. Hujayrani buzilgan qismlari sentrafuga yordamida ajratiladi. Nuklein kislotalar fermentlar yordamida parchalanadi yoki yuqori molekulali kationlar yordamida chiqariladi. Bu jarayon ayniqsa nuklein kislotasi ko'proq bo'lgan bakteriyalar va achitqilardan (ularda nuklein kislotalarning biomassasi 8-12% ni tashkil qiladi) ferment ajratishda albatta qo'llaniladi. Shunday qilib kultural suyulikni filtrati (hujayradan tashqaridagi fermentlar ajratish uchun) va hujayra ichidagi fermentlar ekstrakti tayyor bo'ladi. Hujayra tashqarisidagi filtrat odatda 15-20 ta har xil oqsillarni saqlaydi lekin hujayra ekstraktida oqsil spektri ancha ko'proq bo'ladi.

Quruq holatdagi ferment preparatlari olish uchun organik erituvchilar (etil spirti, izopropil spirti, atseton) yordamida (1 hajm ferment konsentratiga 2-4 hajm organik erituvchi) yoki noorganik tuzlar, (ammonim sulfat yoki sulfat natriy) yordamida cho'ktiriladi, cho'kma sentrafuga yordamida ajratilib, vakumda ko'paytiriladi. Ko'paytirilgan pereparatlar xavonchada maydalanib, unga qo'shimcha moddalar (kraxmal, dekstrinlar, ksiloza, osh tuzi yoki boshqa inert qo'shimchalar) qo'shib standartlanadi. Ko'pinch ferment pereparatlari (suyuqlikdagi quruq modda miqdori 15% dan ko'proq bo'lsa) purkab quritiladi [1].

Tiniq holatdagi ferment preparatni olish vakumda parlatish orqali yoki ultrafiltratsiya yo'li bilan quyultirib olinadi. Bu usullar ferment eritmasini 5-15 ta quyultirib olish imkoniyatini yaratadi. Quyultirilgan ferment eritmalari asbest yoki selluloza filtrlaridan o'tkazilib, tozalab olinadi. Kommersiya uchun tayyorlangan ferment konsentratlariga stabilizatorlar (osh tuzi, benzoatlar, sorbinatlar, ba'zida metal ionlari) solinadi. Agar zarur bo'lsa suyultiriladi.

Yuqori tozalikka ega bo'lgan ferment preparatlari olish uchun xilma-xil xromatografik usullardan: ion almashish, yuqori samarali suyuqlikda xromatografiya va gel filtratsiya usullaridan foydalaniladi. Xar bir fermentni fizik-kimoviy va enzimologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, tozalash usullari tanlab olinadi va unda tanlangan usulni samaradorligi, arzonligi, tez vaqtda amalga oshirish mumkinligiga e'tibor beriladi. O'simliklardan, hayvonlardan va ayrim mikroorganizmlardan ajratilib olingan fermentlar ozuqa tarkibida zararsiz deb topilgan. Boshqa fermentlar uchun esa (asosan mikroorganizmlar fermentlari) zaharliligi aniqlanishi shart. Bunga sabab ferment preparatlari tarkibida allergik reaksiya beruvchi oqsil moddalar mixotoksinlar va boshqa zaharli oqsillar uchrashi mumkin [3].

Xulosa



Fermentlar inson organizmida kimyoviy reaksiylarni tezlashtirib beruvchi biologik moddalar hisoblanadi. Ferment preparatlarni olishda *Quruq holatdagi ferment preparatlari olish, Tiniq holatdagi ferment preparatni olish va Yuqori tozalikka ega bo'lgan ferment preparatlari olish* kabi usullarda keng foydalanilib kelinmoqda bu usullar ko'p sonidagi ishchi kuchni talab qilmaydi va yuqori mahsuldorlikka ega bo'lgan preparatlar olish imkonini beradi. Bu usullarni biz hujayra muhandisligida keng qo'llashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Q.Davranov Biotexnologiya(ilmiy,amaliy va uslubiy asoslari) Toshkent 2008-yil 422-439 betlar
2. A.A.Elmuradov, I.A.Haydarov,B.E.Qodirov Qishloq xo'jaligi biotexnologiyasi 9-BOB
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus ta'lim vazirligi "Fermentlar va hujayra injenerligi"fanidan Toshkent-2013 yil.
4. X.M.Komilov, M.M.Raximov, O'zbekiston Respublikasi Sog'likni saqlash vazirligi Toshkent Farmasevtika instituti Toshkent-2017 yil III-BOB.
5. Квеситадзе Г.И. Ферменты микроорганизмов, живущих в экстремальных условиях 1990.



Hamza Hakimzoda Niyoziyning o'zbek milliy adabiy tili rivojiga qo'shgan hissasi.

Mamaniyozova Shohista

Chiirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti O'zbek tili va
adabiyoti yo'nalishi

Muratova Nafisa Baxtiyarovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti O'zbek
tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr o'zbek madaniyatining eng yirik namoyondalaridan biri, faol ma'rifatparvar shoir, o'zbek milliy tilining rivojiga ulkan hissa qo'shgan Hamza Hakimzoda Niyoziyning asarlari tilining tahlili haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ma'rifatparvar, pedagog, jurnalist, madrasa, adabiy til, fonetika, morfologiya, dialekt.

Abstract: This article discusses the analysis of the language of the works of Hamza Hakimzoda Niyazi, one of the greatest representatives of Uzbek culture of the 20th century, an active enlightener poet, who made a great contribution to the development of the Uzbek national language.

Key words: Enlightener, pedagogue, journalist, madrasah, literary language, phonetics, morphology, dialect.

Аннотация: В данной статье рассматривается анализ языка произведений Хамзы Хакимова Ниязи, одного из крупнейших представителей узбекской культуры 20 века, активного поэта-просветителя, внесшего большой вклад в развитие узбекского национального языка.

Ключевые слова: просветитель, педагог, журналист, медресе, литературный язык, фонетика, морфология, диалект.

Milliy madaniyatning atoqli arbobi Hamza ona tilining qadr-qimmatini yuksak pog'onaga ko'tardi, o'zbek milliy tilining rivoji uchun katta xizmatlar qildi. Mazmunan boy, shaklan puxta va o'tkir tilli original poetik va nasriy asarlar yaratdi. U leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra ajralib turuvchi bu asarlarida sun'iylikka, g'ayri tabiiylikka yo'l quymadi.

H. H. Niyoziy o'zigacha bo'lgan o'zbek adabiy tili boyligidan foydalandi, o'z navbatida, butun ijodiy faoliyatini o'zbek adabiyotining va o'zbek adabiy tilining takomiliga va rivojiga bag'ishladi. Uning she'riyati, chinakam xalqchilik ruhida yozilgan dramatik asarlari o'zbek tilining lug'at tarkibini boyitish, grammatik qurilishini yaxshilash va takomillashtirishda muhim rol uynadi.



O'zidan oldin o'tgan shoirlar ijodiga naziralar yozish va bu bilan eski o'zbek adabiy tili ramkasi doirasida chegaralanib qolish to'xtovsiz usib borayotgan ong va tushunchani, yuksak tuyg'ularni ifodalash talablariga javob bera olmasligini H. H. Niyoziy borgan sayin ravshanroq tushuna boshladi. Shoir badiiy ifodaning ixcham va qulay ko'rsatkichini topishga, yangi nutq obrazlari yaratishga intildi. Shu maqsadda u turli millat xalqlarining tillariga murojaat qildi. Tojik tilida lirik she'rlar yozdi, yangi milliy ashulalar yaratishda ozarbayjon va tatar adabiy tillaridan o'rnak oldi. Chunonchi, ayrim so'z yoki so'zlar birikmasi: *baliq, banga, savgi, o'lsa, o'lursa, qilmamish, qo'ymisham* kabi, shuningdek, ba'zi bir grammatik ko'rinishlar: jo'nalish kelishigi qo'shimchasining hozirgi o'zbek adabiy tilidagi *-ga (-qa/-ka)* shaklining *-a* shaklida ishlatilishi: *Yusufkan'ona, bois hijrona, tishlar marjona* kabilar.

H. H. Niyoziy asarlarida hozirgi tatar adabiy tili unsurlarini uchratamiz. Ulardan poetikadagina emas, balki nasriy asarlarida ham foydalandi: *Engi qilgan, bir tug'on uchun, qart umrga, yuku akirin-akirin, ani, sanamilar* kabi so'z va so'z birikmalari. Xususan, uning «Pushti gul» nomli asarida tatar tili unsurlari yorqin ko'rinadi.

Ayniqsa, uning 1916–1917 yillarda yozgan badiiy asarlari tilida keskin burilish yuz berdi. «Oq gul», «Qizil gul», «Sariq gul», «Safsar gul», «Atir gul» nomli milliy ashulalari to'plamining tili bunga yorqin misol bo'ladi. Masalan:

Og'a, sog' borsangiz, avval, dadamlarga salom ayting.

Yugurib chiqqan ul mushfiq onamlarga salom ayting.

Ko'zi qon hamshiram birla akamlarga salom ayting.

(H. H. Niyoziy. Tanlangan asarlar, 16-bet.)

H.H.Niyoziy asarlari tilining fonetikasi va morfologiyasida Farg'ona shevalarining ta'siri ko'zga tashlanadi: *ag'dan, bag'dan* (u yoqdan, bu yoqdan), *kelib yurishg'a dimlatgan ekan* (dimlatgan ekan – buyurgan yoki tayinlagan ekan), *har palla* (har gal) *ko'ngling unaydur* (unaydur – istaydi) kabi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi morfologik shakllardan farq qiluvchi ko'rinishlar ham ishlatilgan. CHunonchi, *-lik* qo'shimchasi bir qancha vazifada qo'llangan: a) *-lik* o'rnida – *bekaslik, rozilik* b) *-lik* o'rnida – *kuchlik bir azobdir*; v) *-gina* o'rnida – *o'zumni anchalik tutib* kabi.

Kelishik qo'shimchalari turli variantlarda ishlatilgan: 1) qaratqich kelishigining *-ning* qo'shimchali shakli kam uchraydi, uning vazifasini ko'pincha tushum kelishigining ko'rsatkichi *-ni* o'taydi: *meni shu dardimni, seni ko'nglingga*.

2) tushum kelishigi qo'shimchasi *-ni, -i, -n* shakllarda ishlatilgan: *boshini, seni, eshondi tanishlarini sababi bor ekan, tayyorlanganin, o'zlarin* kabi;

3) jo'nalish kelishigining *-g'a/-ga//qa/-ka* qo'shimchali ko'rsatkichidan tashqari, *-a* qo'shimchali ko'rsatkichi ham ancha keng qo'llangan: *o'z menga, murod-*



maqsadga, tilakka, amirg'a, mengga, yuzingg'a, joylariga, olmoqg'a, so'ylashqa, era, hijrona, mastona kabi;

4) o'rin-payt va chiqish kelishiklari ko'rsatkichlari oldidan n orttirilishi ham xarakterli bo'lgan: *oldinda, qoshinda, qo'linda, ishinda, umrlarinda, kursisinda; yuzlarindan, yuzlarindin* kabi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, o'zbek millatining atoqli farzandlaridan biri bo'lgan Hamza Hakimzoda Niyoziy o'zining ma'rifatga chorlovchi she'rlari bilan milliy tilning rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Shoir faqatgina o'z tilidagi so'zlardangina foydalanmasdan, turli millat xalqlarining so'zlarini ham o'z she'rlarida mohirona qo'llagan. Qolaversa shoir asarlarining tilida Farg'ona dialektining ta'siri yaqqol namoyon bo'ladi. Bundan ko'rinadiki shoir shevadagi so'zlardan ham mohirona foydalanib o'z asariga kiritgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.U.Tursunov, B.O'rinboyev, A.Aliyev O'zbek adabiy tili tarixi. T. 1995.
- 2.Karimov G'. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1966, 59-bet
- 3.B.Turdialiyev. Hamza va XX asr boshlari adabiyoti. Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. Toshkent, 1989.
4. B.Turdialiyev. 1905-1907 yillar vaqtli matbuotining tili haqida// O'zbek tili va adabiyoti. 6-son.
- 5.Hamza. Tanlangan asrlar. Toshkent, "Yosh gvardiya" nashriyoti, 1988.
- 6.Hamza. Qizil gul. O'zFA Sharqshunoslik instituti, Hamza fondi, inv. № 7628, 8-10-betlar.
7. www.bilimlar.uz.



QADIMGI TURKIY TILDA VA HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIDA SIFAT SO'Z TURKUMI

Hayitova Nilufar Faxriddin qizi

Chirchiq Davlat pedagogika universteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Muratova Nafisa Baxtiyorovna**

Annotatsiya: Maqolada qadimgi o'zbek tili va hozirgi o'zbek adabiy tilidagi sifat so'z turkumining o'xshashlik va farqli tomonlari qisqacha yoritib berilgan. Eski o'zbek tilida ham sifatlar tabiatiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: 1) asliy sifatlar, 2) nisbiy sifatlar. Qadimgi turkiy tilda sifatning so'zlari qanday talaffuz qilinganligi va yozilishi bugungi kunga kelib qanday o'zgarganligini ko'rib o'tamiz.

Kalit so'zlar: Sifat darajalari, asliy va nisbiy sifatlar, sifat yasovchi affikslar, sifatning tuzilishiga ko'ra turlari, sifatga doir so'zlar ko'lami.

Abstract: The article briefly describes the similarities and differences between the adjectives in the ancient Uzbek language and the modern Uzbek literary language. In the old Uzbek language, adjectives are divided into two groups according to their nature: 1) original adjectives, 2) relative adjectives. Let's see how the words of adjectives were pronounced and written in the old Turic language and how they changed to the present day.

Key words: Levels of adjectives, original and relative adjectives, affixes forming adjectives, types of adjectives according to structure, scope of adjective words.

Otga bog'lanib, uning belgisini bildiradigan va qanday?, qanaqa?, qaysi? So'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar sifat deyiladi: chiroyli, baland, devoriy.

Belgini tog'ridan-to'g'ri ifodalaydigan va uni darajalab ko'rsatish imkoniga ega bo'lgan, -roq qo'shimchasini erkin qabul qila oladigan sifatlar asliy sifatlar deyiladi: go'zal, chiroyli, shirin.

Belgini to'g'ridan-to'g'ri emas, balki boshqa bir tushunchaga nisbatlangan holda ifodalaydigan va daraja ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lmagan sifatlar nisbiy sifatlar deyiladi: do'ppili, devoriy, qishki.

Asliy sifatlarni aniqlashda sifatlar daraja ko'rsatuvchi –roq qo'shimchasini qo'shib ko'rish mumkin: keng – kengroq, uzun – uzunroq, shirin – shirinroq kabi. Bu sifatlar asliy sifatlar hisoblanadi. Asliy sifatlar belgini darajalab ko'rsata oladi: sariq – sariqroq. Asliy sifatlar fe'lga bog'lana oladi: yaxshi o'qimoq.

Devoriy – devoriyroq deb bo'lmaydi. Shuning uchun bu sifatlar nisbiy sifatlar deyiladi. Nisbiy sifatlar esa belgini darajalab ko'rsata olmaydi. Nisbiy sifatda yasash



asosidan anglashilgan narsaga xoslanganlik, qiyoslash, o'xshatish, o'rin yoki paytga nisbatlash kabi ma'nolar ifodalanadi, sifat yasovchi qo'shimcha go'yo ikki narsa orasidagi munosabatlarning ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi: oylik reja, do'ppili bola, qadimgi tarix.

Nisbiy sifatlar ma'no jihatidan belgini quydagicha ifodalaydi:

- 1) Narsaga nisbat berish bilan: bolali ayol
- 2) Vaqtga nisbat berish: kuzgi shamol.
- 3) o'ringa nisbat berish: ichki tartib.

Nisbiy sifatlar esa fe'lga bog'lana olmaydi. Faqat –iy, -viy qo'shimchalari bilan yasalgan ayrim nisbiy sifatlarga fe'lga bog'lanadi.[1;1]

Eski o'zbek tilidagi sifatlar ham tabiatiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: 1)asliy sifatlat, 2)nisbiy sifatlar.

1. Asliy sifatlar eski o'zbek tilida ham hozirgi o'zbek tilidagidek narsaning rangi, tusi, hajmi, shakli kabi ma'nolarni bildiradi. Masalan: qara soch halqasi.

2. Nisbiy sifatlar turli so'zlarga sifat yasovchi maxsus affikslar orttirish yo'li bilan hosil bo'ladi.[2;1]

Belgining ortiq yoki kamlik jihatdan farqlanishi sifat darajalari, ana shunday ma'no ifodalovchishakllar esa daraja shakllari deyiladi. Sifatning quyida uch xil darajasi mavjud: 1) oddiy daraja, 2) ozaytirma daraja, 3) orttirma daraja

Oddiy daraja belgining odatdagi me'yorda ekanini bildiruvchi va boshqa darajalar uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi sifat shakli oddiy daraja deyiladi: qizil, oq, shirin, toza.

Ozaytirma daraja belgining me'yordan kam ekanini bildiruvchi shakli sifatning ozaytirma daraja shakli deyiladi. Ozaytirma daraja quyidagicha hosil qilinadi:

- 1) –roq qo'shimchasi yordamida hosil qilinadi: qoraroq.
- 2) Sifatning oddiy daraja shakli oldiga sal, biroz, picha, xiyla.
- 3) rang- tus bildiruvchi ayrim sifatlardan –(i)mitir, -(i)sh qo'shimchalari yordamida ham ozaytirma darajada shakl yasaladi: ko'kimtir, oqish,qoramtir.

Orttirma daraja belgining me'yordan ortiq ekanini bildirgan sifat shakli orttirma daraja shakli deyiladi. Sifatning bu shakli quyidagi yo'llar bilan hosil qilinadi.

1) Oddiy daraja shaklidagi sifat oldidan eng, g'oyat, juda so'zlarini keltirish orqali hosil qilinadi: juda chiroyli.

2) Oddiy daraja shaklidagi sifatning birinchi bo'g'ini tovush o'zgarishi bilan hosil qilinadi: bus-butun, yam-yashil.

3) Sifatning tarkibidagi birinchi yoki ikkinchi unlini cho'zish orqali hosil qilinadi. Issiq- i:ssiq, achchiq – a:chchiq. [1;2]



Eski o'zbek tilidam sifat darajalari uch xil ko'rinishga ega: oddiy, qiyosiy, orttirma daraja. Sifatning oddiy darajasi maxsus morfologik ko'rsatkichga ega bo'lmaydi va bosh shaklidagi har qanday sifat oddiy darajani tashkil etadi. Qiyosiy daraja va orttirma daraja shakllari maxsus affikslar yordamida hosil qilinadi.

Qiyosiy daraja sifatlarda qiyosiy daraja ma'nosi quydagi usullar bilan ifodalanadi.

Morfologik usul. Bu usul sifatga –raq/-rāk affikisini orttirish yo'li bilan hosil qilinadi. Qiyosiy darajaning bu shakli sifatda ifodalangan belgining kamligini, kuchsizligini ko'rsatadi: Ul yaxshiroq turur sizga.

Sintaktik usul. Bu usul murakkab shakl yo'li bilan ifodalanadi, ya'ni sifatning daraja belgisi boshqa so'z bilan qiyoslash orqali aniqlanadi. Qiyos uchun keltirilgan so'z esa chiqish kelishigi shaklida bo'ladi: Vale husn ichra javhardin ari-sen.

Murakkab usul. Bu usul morfologik va sintaktik usullarning birikuvidan hosil bo'ladi, ya'ni qiyos uchun keltirilgan so'z chiqish kelishigi shaklida bo'ladi, sifatga esa –raq/-rāk affikisi qo'shiladi: Anin kozi koktun kokrak erdi.

Orttirma daraja. Eski o'zbek tilida sifatlardagi orttirma daraja ma'nosi eņ,kop, asru kabi so'zlar yordamida hosil qilinadi: kop issig' bir yer turur.[2;2]

Adabiyotlar

1. “O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami” N. Erkaboyeva (255-bet) [1;1]
2. “O'zbek tilining tarixiy gramatikasi” G'. Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudov (118-bet) [2;1]
3. “O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami” N. Erkaboyeva (258-bet) [1;2]
4. “O'zbek tilining tarixiy gramatikasi” G'. Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudov (121-bet) [2;2]



TEACHING THE ENGLISH LANGUAGE WITH MODERN TECHNOLOGIES AND WEBSITES

Abduroziqova Ismigulbegim Inoyat qizi

Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan after named Mirzo Ulugbek,
Faculty of Psychology, Philology and language teaching: English student of group
203-20

Telephone number:+99894 2470137

ANNOTATION

This article is about the role of modern technology and websites in English language teaching, as well as successful approaches to foreign language teaching.

Keywords: The English language, innovation, information communication technologies, educational technologies, interactive methods.

INTRODUCTION

Today, our country, like many advanced countries, raises to the level of state policy the teaching of several foreign languages in addition to the state language to all strata of its population, and the wide range of foreign language learning and teaching is developing a number of draft laws to ensure its active participation in major reforms. Consequently, as a logical continuation of these ideas, the Presidential Decree "On measures to further improve the system of teaching foreign languages" adopted on December 10, 2012 expanded the opportunities for learning foreign languages [1]. Nowadays, most public and private companies require candidates with good English and relevant qualifications. For this reason, the role of the English language in school curricula is crucial, and the government is paying great attention to the teaching of the English language in schools and universities of Uzbekistan. English is taught as a compulsory subject in universities and schools of Uzbekistan, and the government is making great efforts to promote quality teaching and learning of English [2].

Enhancing the interest of young students in learning English, expanding their existing opportunities, and supporting them will help them learn this language faster. It is necessary to increase

- providing various electronic resources;
- creation of methodological support for language learning in educational institutions;
- increase the efficiency of using existing textbooks;
- attracting strong and qualified specialists to the teaching process;
- adequate introduction of new educational technologies into the educational process;



- focus on student motivation in teaching and control the quality of the evaluation system.

Controlling the quality and efficiency of English language lessons is manifested in the increase in speech expressions in which the main part of the received information is taken from everyday life. Evaluation of the use of innovative technologies in the lesson as a means of language teaching and learning helps to create many positive results and advantages.

Innovation. Innovation (English "innovatsion") is innovation, innovation. Innovative technologies are innovations and changes in the pedagogical process and activities of teachers and students, and have an important aspect in its implementation. The use of innovative technologies is reflected in the work carried out to increase students' thinking, imagination, worldview, interests. According to McCarthy, "the methodology of teaching foreign languages has developed a lot over the past half century. It has been conducted at various times in grammatical translation, audio-linguistic structure, global audiovisual, inductive/deductive, functional, ideational, situational, communicative, immersion, learning/receiving, recommendation, etc. Consequently, as a result of the use of audiovisual tools during the lesson, the ability to remember the semantic meaning of words and use lexical units improves. [3]

Information communication technologies. The role of modern pedagogical technologies and information and communication tools in improving the quality and efficiency of education, in the purposeful organization of game-based lessons that interest students is very large. is becoming an integral part of the process. In order to teach English to young people through a computer, first of all, the teacher himself must be able to use computer technologies at a professional level. including the ability to organize new training programs. In order to become a pedagogue of this level, every foreign language teacher needs to work more on himself in the field of modern technologies. Computer-based English language teaching has several advantages compared to traditional teaching methods. First of all, a computer-based English language learner has four areas of language skills (speaking, listening, writing, and reading). will have the opportunity to test their skills. Currently, this is possible with the help of advanced programs. It is only necessary to be able to properly direct the student to this method of education.

In addition, it has been proven that every rule, every word, every concept unit taught in the teaching of foreign languages with the help of a computer is better stored in the student's memory. the ability to deliver in the form of video makes teaching foreign languages through the computer one of the most effective methods. Therefore,



every teacher needs to use the rich possibilities of the computer in teaching English to his students through the computer. Basically, it is appropriate to use Word and Power Point programs to explain current topics. Because I think that students will understand much easier if the topic is explained using table views through the Word program. In Power Point, students can be more attracted to the topic by showing these topics in audio, picture and video formats.

Educational technologies. One of the main tasks is to improve the teacher's pedagogical skills by mastering modern teaching and learning technologies. With the use of any new technologies, new pedagogical ideas of the teacher begin: the clarity of the systematic, methodological language, the emergence of clear tactics in the teaching methodology. The most important task of the educational process is the student's personal interest. It is necessary to know which technologies should be used in the educational process to obtain the planned results. It is clear that the use of any specific educational technology, no matter how perfect, does not create the most effective conditions for determining and developing students' skills. Pedagogical (educational) technology is a well-thought-out model of educational and pedagogical activity combined with a comfortable environment for students and teachers to design, organize and conduct the educational process. Pedagogical technology includes the implementation of the idea of full control of the educational process [4]. Modern educational technologies include:

- development;
- studying problems;
- multi-level education;
- collective education system;
- technological study of inventive problems;
- research methods in teaching;
- project teaching methods;

Technology used in teaching game styles:

- role-playing, business and other types of educational games;
- cooperative education (community, group work);
- information and communication technologies;

When it comes to design and interactive teaching methods, their combination and integration is considered one of the most effective and efficient tools in the process of teaching English. One of them is the project method. The project method is designed to develop a child's active independent thinking and teach him not only to memorize and reproduce knowledge, but also to apply it in practice. It is important that children learn



to cooperate when working on a project, and cooperative education helps to strengthen mutual support, desire and ability, and students' creative abilities and activities are formed. The project method is a set of educational and knowledge techniques that allow solving certain problems as a result of the mandatory presentation of these results as a result of independent actions of students. The project method is an activity that allows students to express themselves independently, individually or in a group, to test their abilities, the teacher to apply his knowledge in practice, to show the results achieved by the public. This method involves solving interesting problems created by students themselves. For example, "Why am I late for class today?" i.e. "Why am I late for class today?" the question is asked. In this way, students try to express their knowledge through a foreign language, and they do not repeat this situation by showing their trivial reasons to other students [5].

The design method as a pedagogical technology is a technology that includes a combination of research, research, and problem-solving methods. For students, the project is an opportunity to increase their creative potential to the maximum level, and in principle, in order to solve the problem, students should have clear creative, intellectual and communicative skills. Therefore, for the correct use of the project method, extensive training is required, which is carried out in an integrated educational system.

Interactive methods. Active or interactive methods involve the stimulation of cognitive activity and learner autonomy. Interactive methods are aimed at creating a comfortable learning environment where all students actively communicate with each other. The organization of interactive education includes the modeling of life conditions, the use of role-playing games, the general solution of information based on the analysis of tasks and situations, the introduction of information flows into the mind, which causes its active activity. An integral part of interactive approaches are interactive exercises and tasks performed by students. The main difference between interactive exercises and regular work is that they are aimed not only at consolidating the learned material, but also at learning new things [6].

Modern pedagogy is rich in many interactive approaches, including:

- creative tasks - work in small groups - educational games (role playing, imitation, business games and educational games)
- use of public resources (inviting specialists, excursions) — social projects (social projects, contests, radio and newspapers, films, demonstrations, exhibitions, performances, songs and tales)



— learning and strengthening of new materials (interactive working with lecture, demonstration manuals, video and audio materials, "student as teacher", "everyone teaches everyone")

— discussion of complex and controversial questions and problems. [7]

With the interactive education method, students communicate directly in the learning environment, which in turn serves as a source of experience. In the understanding of pedagogical methods, it implies the preparation of students and teachers when mutual relations are formed. He does not work as a student-listener or observer, but actively participates in the lesson. With this form of organization of the educational process, not only school, high school, college, and even higher education students become full participants. The task of the teacher is mainly to encourage independent activity, to find ways to achieve their goals [2]. Thus, by using various pedagogical technologies in the lesson, the process of teaching English can be viewed from a completely new perspective, new mechanisms of personality formation can be mastered, and quality results can be achieved under favorable conditions.

CONCLUSION

The conclusion is that today's era of globalization requires humanity to keep up with the times. Therefore, it is desirable for specialists of various fields to be able to communicate in several foreign languages in addition to having a perfect knowledge of their native language. It is no secret that on May 6, 2021, a meeting of video selectors was held under the chairmanship of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev regarding measures to improve the system of teaching foreign languages. In it, the head of our state said, "It's time to establish a new system for teaching foreign languages in our country, which will be a solid foundation for the future. Since we have set ourselves the goal of building a competitive country, from now on, graduates of schools, lyceums, colleges and universities must have a perfect knowledge of at least 2 foreign languages. This strict requirement should become the main criterion for the activity of the head of every educational institution", he said, bringing reforms in the field to a new level.

Use of innovative technologies in foreign language teaching and discussion of theoretical, methodological and practical issues of foreign language teaching in modern education are considered as priority issues. Considering the widespread use of technology and various websites in the study of various modern sciences. [8]The use of the above in the process of teaching and learning English is the most effective method. The use of such tools among language teachers, firstly, increases the interest of the language learner in learning the language, increases the ability to learn the



language very quickly, and secondly, it records high indicators in the effective organization of language courses. Therefore, every language teacher should have the ability to work with modern technologies and various websites.

REFERENCES :

1. Axmedova S. R. и др. Masofaviy ta'lim va uning horijiy tillarni o'qitishdagi o'rni // Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 10. – C. 608-612.
2. Axmedova, S. R. (2021). Chet tillarni o'rganish va undagi metodlarning ahamiyati. Science and Education, 2(11), 1076-1080.
3. Boswood, T. (1997). New Ways of Using Computers in Language Teaching (New Ways in Tesol Series II), California: Teachers of English to Speakers of Other Languages.
4. Harmer, J. (2007). How to teach English, Harlow, Essex: Pearson-Longman
5. Johnson, D., & Eisenberg, M. (2006). Learning and Teaching Information Technology-- Computer Skills in Context, East Lansing, Mi, Eric document ED465377, Retrieved June 7, 2007, from [http:// www.ericdigests.org/2003-1/skills.htm](http://www.ericdigests.org/2003-1/skills.htm).
6. Warschauer, M., & Kern, K. (2000). Network-based Language Teaching: Concepts and Practice, Cambridge: Cambridge University Press.
7. Xorijiy tillarni o'rgatishda rol o'ynash o'yinlari // INR №4, 1989
8. Ingliz tilini o'qitish bo'yicha loyiha ustida ishlash // INR Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi usuli // INR №2, 3, 2000 Ingliz va o'zbek tillarining funksional uslub

WEBSITES:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-quvchilarga-ingliz-tilini-o-qitishda-innovatsion-texnologiyalar-va-interaktiv-metodlarning-ahamiyati/viewer>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/ingliz-tilini-o-qitish-va-o-rganishda-zamonaviy-texnologiyalardan-foydalanish>
3. <https://moluch.ru/archive/309/69718/>



TEACHING ENGLISH AS A SECOND LANGUAGE IN PRESCHOOL EDUCATION

Xoliqjonova Zulxumor

A student of Chirchik State Pedagogical Institute

Phone number: +998(94)8401049

xoliqjonovazulxumorxon@gmail.com

Abstract: Learning English as a second language at preschools has been being implemented for a few years in Uzbekistan. Since that so many methods have been experienced in order to get success in teaching. Teaching children at the age of 5-6 should be sociable and unusual. It requires creativity and tools that interest children. However, some teachers complain of not getting concentration of children at preschool even though the room is equipped with everything needs. So only authentic materials is not enough to teach children suitably. This article reveals effective ways of teaching and teaching strategies.

Key words: children at the early childhood, effective teaching, movement, visual aids, competitive games.

Nowadays, learning English is a requirement of the period and more and more parents want their children to learn English at the early childhood. According to the implementation of the Presidential Decree №1875 on “The measures of strengthening the system of learning foreign languages” made on December 10, 2012 kids should begin being taught English at the first grade at schools. So that children at preschool should be taught in order to adapt English lessons which will take place at schools.

Learning English at the early age supports pronunciation and understanding on children in advance. However, teaching English to children has some difficulties that educators try to find the best ways of explanation almost every day. There is a range of effective methods and materials such as using technical aids smartly and organizing useful activities for the children at the early age which facilitate teaching respectively.

Children at the age of 5-6 cannot be attentive and polite more than 10-15 minutes. For achieving even this grade educators should explain the lesson clearcut and creatively. Teaching grammar is not suitable for preschool children. Instead, I think they are able to learn grammar by learning by heart short sentences. Repeating after a teacher is easier than learning grammar rules which is a cause of fatigue.

However, this kind of ways is not enough to get the best results. Children want



to dophysical activities and to be at somewhere interesting. Hence, educators ought to utilize unusual ways of teaching. 1) Conducted with different activities, as usual for the child: drawing a picture, dancing, listening to stories, drama, movement and modeling—all, in fact, means of communication; 2) Organized in accordance with the children's natural need for self-expression through music. We can infer from the passage above teaching children at the early childhood should differ from teaching adolescents. For instance, teachers make their lessons by utilizing visual aids and playing games properly.

Effective Using Visual Aids

As it was mentioned above, children can learn by heart new words easily and effectively through pictures. However, children should repeat the words they learned last lesson on each lesson in order to avoid forgetting. Teaching with the help of pictures motivates children and they concentrate on the lesson. Teaching English with singing songs is widely spread at preschool education. It is a vital method of teaching which improves listening and pronunciation skills. Nicky Dwiningrum (2016, 14) mentioned: "Someone who was learning second language from the child, commonly their can pronounce like a native. Its differ with person who does not begin learning second language until adult, they will never have a native like accent". In fact, learning English as a foreign language requires pronunciation of native speakers.

Through listening songs which are authentic children will be subsidized with original pronunciation of English language. Gestures and mimes play significant role while they are singing songs. Children memorize the song and terms of movement easily by doing variety movements. Watching videos such as cartoons and clips in target language is also beneficial. But children had better watch them after the lesson.

Otherwise, they can't concentrate during explanation.

Playing Competitive Games

Games are useful device to make children pay attention spontaneously.

As Joseph Sparling mentioned (2019, 214): "Learning Games may be described as 'simple, but deep.' While the action of many of the games is simple, the significance to the child's development is profound." Learning language through games keeps children active and avoids exhaustion. As Arda Aarikan (2011, 219) stated "The fact that games are the most suitable instructional activities for young learners is obvious because they are a natural part of their existence".

Especially, cooperation and competitive games contribute to children's activeness. At first, competition was considered as a destructive force for children at any stage while cooperation was conceived as a good interaction. Later both of them



were conceptualized partners (Sonja Sheridan and Pia Williams, 2006, 5). Playing cooperative and competitive games during lessons is effective if only it is utilized in moderation. Otherwise, constructive competition can be changed into rival. Moreover, it should be vary every turn according to the gender. Mostly, children are used to be divided into two groups according to their own gender. Occasionally, a “mixed” group can be organized that they adapt to cooperation no matter which group they are in.

All in all, teaching children with variety of styles and strategies provides efficient lessons. Not only styles and teaching materials, but also organizing the lesson is vital for all teachers. Maybe teachers can achieve success during lessons by traditional ways of teaching, but utilizing the other way of teaching as well as using modern technologies helps children learn easily and memorize long-time.

References:

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan «On measures to further improve foreign language learning system” № 1875 from December 10, 2012.
2. Achkasova, N. The Best Ways of Teaching English to Children: Using Children’s Operasin Teaching to 5- to 6- Year-Old Children Natalya Achkasova High School of Economics, Moscow, Russia, 2013, p. 385.
3. Arikan, A. Effectiveness of using games in teaching grammar to young learners. İlköğretimOnline, p. 219-229.2011
4. Dwiningrum, N. “Teaching English Pronunciation to Young Learners”, Jakarta, 2016, p.14
5. Maulana Rohman, I. The Effectiveness of Using Pictures in Teaching Vocabulary”. Semarang, UIN Walisongo, 2016, p. 16
6. Sheridan, S & Williams, P. Constructive Competition in Preschool, University of Göteborg, Sweden. Journal of early childhood research, 2006, p. 5
7. Sparling, J. Abecedarian: An Early Childhood Education Approach that has a Rich History and a Vibrant Present. International Journal of Early Childhood, 2019, p. 214.



Neft qayta ishlash sanoati

Po'latov Razzoq
Yusupov Otabek
Omonturdiyev Bahodir

Termiz muhandislik-texnologiya instituti Energetika va konchilik fakulteti Neft va gaz ishi 4a-20 guruh talabasi

Annotatsiya. Neftni qayta ishlash sanoati jahon iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, neftni qayta ishlashning bir necha bosqichlarini o'z ichiga oladi: qidiruv va burg'ulashdan tortib qayta ishlash va tarqatishgacha. Ushbu maqolada neftni qayta ishlash sanoati, jumladan, uning tarixi, qayta ishlash jarayoni, asosiy ishtirokchilar, muammolar va kelajak istiqbollari haqida umumiy ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: neftni qayta ishlash sanoati, neft, qayta ishlash, neft-kimyo, yuqori oqim, quyi oqim, qidiruv, burg'ulash, tarqatish, jahon iqtisodiyoti.

Abstract. The oil processing industry is a vital component of the global economy and encompasses several stages of oil refining, from exploration and drilling to refining and distribution. This article provides an overview of the oil processing industry, including its history, the refining process, key players, challenges and future prospects.

Keywords: oil processing industry, crude oil, refining, petrochemicals, upstream, downstream, exploration, drilling, distribution, global economy.

Аннотация. Нефтеперерабатывающая промышленность является жизненно важным компонентом мировой экономики и включает в себя несколько этапов переработки нефти, от разведки и бурения до переработки и распределения. В этой статье представлен обзор нефтеперерабатывающей отрасли, включая ее историю, процесс переработки, ключевых игроков, проблемы и перспективы на будущее.

Ключевые слова: нефтеперерабатывающая промышленность, сырая нефть, переработка, нефтехимия, upstream, downstream, геологоразведка, бурение, дистрибуция, мировая экономика.

Kirish:

Xom neft turli sohalarda, jumladan, transport, ishlab chiqarish va energiya ishlab chiqarishda qo'llaniladigan qimmatbaho resursdir. Biroq, tabiiy xomashyodagi xom neftni bevosita ishlatish mumkin emas va benzin, dizel yoqilg'isi va boshqa neft-kimyo kabi qimmatbaho mahsulotlarni olish uchun qayta ishlash jarayonlaridan o'tishi kerak.



Neftni qayta ishlash sanoati xom neftni qazib olish va jahon iqtisodiyotini boshqaradigan foydali mahsulotlarga qayta ishlash uchun javobgardir.

Tarix:

Neftni qayta ishlash sanoatining tarixi 19-asrning o'rtalarida Pensilvaniyada xom neft birinchi marta topilgan paytdan boshlanadi. Dastlab, xom neft asosan yoritish va isitish uchun ishlatilgan, ammo transport sanoatining o'sishi bilan benzin va dizel yoqilg'isi kabi tozalangan mahsulotlarga talab ortib bordi. Birinchi neftni qayta ishlash zavodi 1856-yilda qurilgan bo'lib, o'shandan beri sanoat jadal sur'atlarda o'sib bordi, neftni qayta ishlash zavodlari dunyoning turli burchaklarida joylashgan.

Usullari:

Neftni qayta ishlash sanoatida qo'llaniladigan usullar yuqori oqim va quyi oqim operatsiyalarini o'z ichiga oladi. Yuqori oqim operatsiyalari neft zaxiralaridan xom neftni qidirish va burg'ulashni o'z ichiga oladi. Bu jarayonda yerdan neftning joylashuvini aniqlash va qazib olish uchun burg'ulash qurilmalari va boshqa texnologiyalar qo'llaniladi. Pastki oqim operatsiyalari xom neftni benzin va dizel kabi foydali mahsulotlarga qayta ishlash va ularni oxirgi foydalanuvchilarga tarqatishni o'z ichiga oladi. Bu jarayon neftni qayta ishlash zavodlari va transport tarmoqlaridan, masalan, quvurlar va tankerlardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Natijalar:

Neftni qayta ishlash sanoati global iqtisodiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan ulkan sanoatdir. Xalqaro energetika agentligi (IEA) ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda neft va boshqa suyuq yoqilg'iga global talab kuniga 5,4 million barrelga o'sib, kuniga 99,9 million barrelga yetishi kutilmoqda. Suyuq yoqilg'iga bo'lgan talab, birinchi navbatda, transport va sanoat tarmoqlari bilan bog'liq bo'lib, ular jahon neft iste'molining mos ravishda 55% va 25% ni tashkil qiladi.

Sanoatda ExxonMobil, Royal Dutch Shell, BP va Chevron kabi yirik korporatsiyalar ustunlik qiladi. Ushbu kompaniyalar jahon neft bozorining muhim qismini nazorat qiladi va samaradorlikni oshirish va atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish uchun yangi texnologiyalar va jarayonlarga katta miqdorda sarmoya kiritadi.

Xom neftni qayta ishlashga yaroqli mahsulotlarga aylantirish murakkab fizikaviy va kimyoviy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Qayta ishlash jarayonida benzin, dizel yoqilg'isi, samolyot yoqilg'isi va boshqa neft kimyosi kabi turli xil mahsulotlar ishlab chiqariladi. Qayta ishlash jarayonida oltingugurt kabi yon mahsulotlar ham ishlab chiqariladi, ular alohida olinadi va sotiladi. Qayta ishlash jarayoni katta energiya va resurslarni talab qiladi va neftni qayta ishlash zavodlari atrof-muhitga issiqxona gazlari va boshqa ifloslantiruvchi moddalarni chiqaradi.



1-jadval: 2021-yilda neft qazib oluvchi mamlakatlar

Mamlakat	Ishlab chiqarish (kuniga million barrel)
Amerika Qo'shma Shtatlari	11.0
Saudiya Arabistoni	9.2
Rossiya	8.9
Kanada	4.8
Xitoy	4.3

Qayta ishlash jarayoni:

Qayta ishlash jarayoni xom neftni foydali mahsulotlarga aylantiradigan bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Jarayon qidiruv va burg'ulash bilan boshlanadi, bu erda xom neft erdan olinadi. Keyin xom neft neftni qayta ishlash zavodlariga tashiladi va u erda benzin, dizel yoqilg'isi va boshqa neft-kimyoy kabi qimmatbaho mahsulotlarni olish uchun bir qator fizik va kimyoviy jarayonlardan o'tadi. Qayta ishlash jarayoni ikkita asosiy toifaga bo'linadi: yuqori va quyi oqim. Yuqori oqim sektori qidiruv va burg'ulashni o'z ichiga oladi, quyi oqim esa qayta ishlash va tarqatishni o'z ichiga oladi.

Asosiy tashkilotlar:

Neftni qayta ishlash sanoatida BP, ExxonMobil, Royal Dutch Shell va Chevron kabi bir qancha yirik korporatsiyalar ustunlik qiladi. Ushbu kompaniyalar dunyoning turli mintaqalarida muhim o'ringa ega va global neft bozorida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Biroq, sanoatda mustaqil neftni qayta ishlash korxonalari va neft-kimyoy kompaniyalari kabi bir nechta kichikroq o'yinchilar ham mavjud.

Qiyinchiliklar:

Neftni qayta ishlash sanoati atrof-muhit muammolari, siyosiy beqarorlik va neft narxining o'zgarishi kabi bir qator muammolarga duch kelmoqda. Qayta ishlash jarayoni issiqxona gazlari va boshqa ifloslantiruvchi moddalarning emissiyasi bilan atrof-muhit uchun zararli bo'lishi mumkin. Neft qazib oluvchi hududlardagi siyosiy beqarorlik ham neftga bo'lgan talab va taklifga ta'sir qilib, narxlarning o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, sanoat tobora ommalashib borayotgan qayta tiklanadigan energiya manbalari bo'yicha kuchaygan raqobatga duch kelmoqda.

Kelajak istiqbollari:

Sanoat oldida turgan qiyinchiliklarga qaramay, neftni qayta ishlash sanoatining kelajagi porloqligicha qolmoqda. Xom neft va qayta ishlangan mahsulotlarga bo'lgan talab aholi sonining o'sishi, urbanizatsiya va sanoatlashuv kabi omillar ta'sirida o'sishda davom etishi kutilmoqda. Bundan tashqari, sanoat samaradorlikni oshirish va atrof-



muhitga ta'sirni kamaytirish uchun yangi texnologiyalar va jarayonlarga sarmoya kiritmoqda. Misol uchun, ko'plab neftni qayta ishlash zavodlari issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish uchun uglerodni ushlash va saqlash texnologiyalarini joriy qilmoqda.

Munozara:

Neftni qayta ishlash sanoati atrof-muhit muammolari, siyosiy beqarorlik va neft narxining o'zgarishi kabi bir qator muammolarga duch kelmoqda. Qayta ishlash jarayoni issiqxona gazlari va boshqa ifloslantiruvchi moddalarning emissiyasi bilan atrof-muhit uchun zararli bo'lishi mumkin. Neft qazib oluvchi hududlardagi siyosiy beqarorlik ham neftga bo'lgan talab va taklifga ta'sir qilib, narxlarning o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, sanoat tobora ommalashib borayotgan shamol va quyosh energiyasi kabi qayta tiklanadigan energiya manbalari bilan raqobat kuchaymoqda.

Xulosa:

Neftni qayta ishlash sanoati jahon iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, turli sohalarni, jumladan, transport va energiya ishlab chiqarishni boshqaradigan qimmatbaho mahsulotlarni taqdim etadi. Biroq, sanoat atrof-muhit muammolari va neft narxining o'zgarishi kabi bir qator muammolarga duch kelmoqda. Shunga qaramay, sanoat samaradorlikni oshirish va atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish uchun yangi texnologiyalar va jarayonlarga sarmoya kiritmoqda va bu global energiya aralashmasining muhim tarkibiy qismi bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar:

1. AQSh Energiya axboroti boshqarmasi. (2022). Neft sanoati nima? <https://www.eia.gov/energyexplained/oil-and-petroleum-products/petroleum-industry.php>
2. Xalqaro energiya agentligi. (2021). Neft 2021: 2026 yil uchun tahlil va prognozlar. <https://www.iea.org/reports>
3. Xalqaro energiya agentligi. (2022). Neft bozori hisoboti. <https://www.iea.org/reports/oil-market-report-january-2022>



Huquqiy madaniyatning barkamol insonlarni tarbiyalashdagi o'рни.

Abdusalimova Shahnoza

Termiz davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat
asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada barkamol insonlarni tarbiyalashda, ularni huquqiy savodxon qilib yetishtirishda huquqiy madaniyatning muhimligi, yoshlarning ongi, tafakkuri va dunyoqarashlarida huquqqa nisbatan hurmat, uni bilish, tushinish va rioya qilish tushunchalarini singdirish masalalari yoritilgan. Uning targ'iboti yuzasidan amalga oshirilgan bir nechta ishlar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: huquqiy madaniyat va savodxonlik, huquqiy dunyoqarash, barkamol avlod, huquqiy davlat.

KIRISH

Kelajagimiz poydevori yoshlarimiz hisoblanadi. Ularni har tomonlama mukammal, ajdodlarimizga munosib voris hamda avlodlarimizga o'rnak bo'la oladigan farzandlar qilib tarbiyalash bizning muhim vazifamizdir. Hozirgi kunda yoshlar masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: "Kelajagi buyuk davlat eng birinchi navbatda bo'lajak fuqarolarining madaniyati, ma'lumoti va ma'naviyati haqida g'amxo'rlik qilmog'i zarur." Bundan anglashiladiki, barkamol avlodni tarbiyalash uchun ularning madaniyat darajasiga, xususan, tarbiyasiga ham alohida e'tibor berish kerak. Biz madaniyatni bir nechta turini keltirishimiz mumkin. Masalan, moddiy, ma'naviy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik va boshqalar. O'z o'rnida ular ham bir-biriga bog'liq shaklda rivojlanadi.

Yoshlarimizda huquqiy madaniyatni vujudga keltirish uchun ularning dunyoqarashi, ongi hamda tafakkuriga milliy mafkuramiz, umummilliy qadriyatlarimiz, vatanparvarlik, millatparvarlik tushunchalarini singdirishdan boshlashimiz kerak desak xato bo'lmaydi. Ular bir- biri bilan uyg'unlikda rivojlansa, vatanimiz chechlari bo'lmish farzandlarimiz komil inson bo'lib tarbiya topadilar. Mamlakatimizni huquqiy demokratik davlat sifatida rivojlantirish va bunday davlatga aylantirish ham kelajak avlodlarimiz qo'lidadir. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganga: "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq"[1]. Huquqiy madaniyat huquqiy davlat rivojlanishining muhim sharti bo'lib, u insonlarning o'z huquq va erkinliklari, qonunlarni hurmat qilish, ularni tushunish hamda hayotga tatbiq



etilishlari sezilib turadi. Uning taraqqiyoti esa, eng avvalida, huquqiy ta'lim va tarbiyaning qay darajada singdirilganiga ham aloqador. "Tarbiyada tanaffus bo'lmaydi"[2-18] deganlaridek, uni uzluksiz ravishda, maqsadga muvofiq holda jamiyatimiz a'zolarining, yoshlarimizning ongida, tafakkurida qaror toptirishimiz zarur.

Muhokama va natijalar

Yoshlarni huquqiy madaniyatli qilib tarbiyalash bugungi kunning muhim ahamiyatga ega bo'lgan talabi hisoblanadi. Huquqiy madaniyat – bu kishilarning huquqiy bilim darajasi huquqqa nisbatan ongli munosabati, uni hurmat qilishi va unga rioya qilishidir[3-116]. Bu tushunchani huquqiy savodxonlik deb ham atashimiz mumkin. Bu yerda huquqqa ongli munosabatda bo'lish ham huquqiy savodxonlikning bir ko'rinishi deb keltirilgan. Ongli tarzdagi munosabat qonun, norma, normativ-huquqiy hujjatlarning nima ekanligini bilish, ularni tushunish, tahlil qila olishdir. Bu huquqning hujjatlarini tushungan holda u bilan munosabatga kirishish desak ham bōladi. Bizning fikrimizcha, bunday munosabatlarga fuqarolarning saylovlarda, referendumlarda ishtirok etishini ham kiritishimiz mumkin. Chunki, har bir fuqaro mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga faol qatnashib, o'z fikrini erkin bildira oladi. Bu konstitutsiyamizning 28-moddasida ham o'z aksini topgan.

Huquqiy madaniyat – bu o'zingiz yashab turgan, fuqarosi bo'lgan mamlakat qonunlarini yaxshi bilish, ularni hurmat qilish va ularga amal qilib, bo'ysunib yashashdir [4-276]. Hamma mamlakatlarda qonunni buzgan, huquqbuzarliklar sodir etgan fuqarolarga, shaxslarga jazo belgilanadi. Ko'pchilik huquqbuzarlar qonunni buzganligini aynan shu vaziyatga tushganda payqashadi. Bu vaziyatda esa ular qonunni bilmasligini ro'kach qilib (bahona qilib)ko'rsatishadi. Lekin bu ularning jazosini yengillashtirmaydi. Bu holatga tushishga esa qonunlarga nisbatan bee'tibor munosabatda bo'lganligi, ularni mensimaganligi sabab bo'ladi. Shuning uchun ham qonunlarni bilish, tushinish va hurmat qilish huquqiy savodxonlikning muhim belgisi, o'z o'rnida huquqbuzarliklarni kamaytirish uchun ajoyib vositadir. Qonunni, uning qanday oqibatni keltirib chiqarishini bilgan shaxs ongli ravishda jinoyatga qo'l urmaydi. Ta'rifdagi unga bo'ysunib yashash tushunchasining zamirida ham shu yotsa kerak. Ushbu fikrlarimizning tasdig'i sifatida mavzuga mos kelgan "Manaviyat asoslari" kitobidan bir ta'rifni keltirsak: "Huquqiy savodxonlik(madaniyat)ni rivojlantirmay turib salbiy holatlarning oldini olish, tugatish anchayin mushkul bo'ladi [4-277]. Bu mushkulliklarni oson qilish uchun esa jamiyatimiz a'zolariga yoshligidan axloqiy, estetik, ma'naviy va shu qatorda huquqiy tarbiya berish, huquqiy madaniyatni shakllantirish vazifalarini eng dastlabki qatorlarga qo'yishimiz zarur. Yuqorida biz bu



tushunchalarni yoshlar ongiga singdirish haqida gapirdik. Bu haqda bir necha amaliyotlarni keltirib o'tsak. Inson xotirasida uzoq saqlanib qoladigan voqealar emotsiya ya'ni hissiyot bilan bog'liq voqealar hisoblanadi. Demoqchimizki, yuqoridagi tushunchalarni bolalar ongiga faqatgina ma'ruza shaklida emas, balki, sahna ko'rinishlari, videoroliklar, tadbir dasturlari yordamida yoritish ular uchun ko'proq foydaliroq bo'ladi, ayniqsa bog'cha yoshidagi bolalarda. Bu bolalarning ilk yoshidan ularga huquqiy madaniyat to'g'risidagi bilimlarni o'rgata boshlashdir. Maktab o'quvchilari esa huquq darslari davomida bu bilimlarni yanada kengaytirib oladi. Ularning ayrimlari hatto bu yo'nalishning bilimli va iqtidorli kadrlariga aylanishadi.

O'zbekiston respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019 yil 9 yanvardagi PF-5618 son farmoniga binoan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish" Konsepsiyasi imzolanadi[5]. Bu konsepsiyaning 1- bobi 3-qismida "Talim muassasalarida huquqiy savodxonlikni oshirish" ga bag'ishlangan. Buni amalga oshirish maqsadida bir nechta loyihalar ishlab chiqilgan. Shulardan biri "Street law" (inglizcha, ko'cha huquqi yoki oddiy huquq) loyihasi bo'lib, u quyidagi tartibda amalga oshirilgan ekan: eng avvalida, kōngillilar guruhi shakllantiriladi. Ular huquqshunoslik yōnalishiga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalarining talabalari, yuridik kollej o'quvchilaridan tuziladi. Bu ko'ngillilar guruhi maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachilar bilan birga, maktablarda esa o'qituvchilar bilan birgalikda maktabgacha ta'lim muassasalarining tarbiyalanuvchilari va o'quvchilari uchun o'quv mashg'ulotlari tashkil etishadi, treninglar o'tkazishadi.

Shular qatorida konsepsiyada bir nechta tanlovlarni o'tkazish rejalashtirilgan. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'rtasida "Huquq-bu to'g'rilikdir" mavzusidagi rasmlar tanlovlari, yuqori sinf o'quvchilari bilan esa "Mening huquq va majburiyatlarim" respublika ko'rik-tanlovi, "Siz huquqni bilasizmi?" va oliy ta'lim muassasalarida "Huquq bilimdonlari" kabi ko'rik-tanlovlar shular jumlasidandir. Konvensiyada nafaqat tanlovlarni tashkil etish balki rag'batlantirish ishlarini olib borish masalalari ham ko'rsatilgan. Bularning hammasi yosh avlodlarimizning huquqiy savodxon bo'lib yetishi uchun amalga oshirilmoqda. Huquqiy madaniyatli bo'lgan barkamol avlod esa biz qurishni maqsad qilayotgan huquqiy demokratik davlatning kelajagi, poydevoridir.

Huquqiy madaniyatning hayotiyliigi va kuchi shundaki, u inson huquqiy tafakkuri shakllanishining muhim vositasi va natijasi sifatida namoyon bo'ladi[6-25]. Hayotchanlik deganda, uning bir mecha yuz yillar, asrlar davomida jamiyat a'zolarining ongida, tafakkurida yashab kundalik turmush tarzining bir qismiga aylanishi ya'ni faqatgina bilish va ongda saqlash emas, hayotga tatbiq eta olishi hamdir.



Har bir shaxs o'zining huquqiy savodxonligini amalda qo'llasa jamiyat hayotidagi barcha huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldi olinadi. Bu esa huquqiy madaniyat taraqqiyotining yuqori cho'qqisi bo'ladi. Shu o'rinda uning taraqqiyot cho'qqisi shaxsning huquqiy faolligi darajasi va huquqiy tafakkuri yuksakligiga ham bog'liq. Huquqiy faol fuqaro deganda ko'z oldimizga jamiyatda bo'layotgan barcha o'zgarishlar, amalga oshirilayotgan islohotlarni befarq kuzatmaydigan, faol huquqiy xulq-atvor egasi gavdalanadi.

Huquqiy madaniyat deganda jamiyatda qaror topgan huquqiy tizim darajasini, xalqning bu huquq tizimidan xabardorlik darajasini fuqarolarning qonunga bo'lgan hurmatini, huquqiy normalarning ijro etilish darajasini tushunamiz [7-11]. Yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish uchun ularning o'z huquq, erkinliklari va burchlarini bilib olishi, huquqlaridan hech bir to'siqlarsiz foydalanishi uchun imkoniyat yaratishimiz zarur. Bularni bilib olishda esa huquqiy targ'ibotning o'rni katta. Yuqorida keltirib o'tgan konsepsiyaning 2-bobi "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda huquqiy targ'ibotning innovatsion usullarini joriy qilish" deb nomlangan va shu masalaga bag'ishlangan. Unga ko'ra ijtimoiy tarmoqlarda alohida kanallar shakllantiriladi va ularda so'rovlar, tanlovlar amalga oshiriladi va shu yordamida fuqarolarning savodxonlik darajasi aniqlanadi. Bunday targ'ibotlar ommaviy axborot vositalari (radio, televideniye) da ham amalga oshiriladi. Bularning barchasi qonuniy tartibda bo'ladi.

Mashoyixlarning aytishlaricha "har bir millatning saodati, davlatlarning tinchi va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdir [8-13]. Huquqiy tarbiya ham o'z o'rnida huquqiy savodxonlik taraqqiyotining vositasidir.

Xulosa

Har qaysi inson o'zini taniganda, huquqini bilganda, unga amal qilganda yetuk shaxs sifatida shakllantirib boradi. Huquqiy jihatdan yetuk tafakkurli shaxs tarbiyasi davr talabi. O'rta asrlar Sharq mutafakkirlari ham rivojlangan davlatni tuzishda yoshlarning tarbiyasini kuchaytirishga yuqori baho berishgan. Yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilimlarni egallagan, ajdodlarining ma'naviy merosidan xabardor va ularga munosib voris bo'la olgan yoshlarimiz davlatimiz tayanchi hisoblanadi. Huquqiy madaniyat esa ularni yuksak huquqiy savodxon bo'lishlarida ularga yordam beradi. Bunday huquqiy savodxon va barkamol yoshlardan iborat bo'lgan jamiyatning kelajagi porloqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Birlashgan millatlar tashkiloti bosh assambleyasining 72-sessiysida so'zlagan nutqidan.



2. Sh.M.Mirziyoyev. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik milliy g'oyamiz poydevori -T.: "Tasvir" nashriyoti, 2021.
3. Sh.A.Saydullayev. Davlat va huquq nazariyasi -T.: "Yuridik adabiyotlar publish", 2022.
4. B.Karimov, F.Ziyayev. Ma'naviyat asoslari-o'quv qo'llanma.-T.: "Iqtisod-Moliya", 2013.
5. "Jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish" konsepsiyasi 09.01.2019 PF-5618 son farmoni 1-ilova.
6. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari-Maruzalar matn. Namangan, 2022.
7. Tadjixanov, U.Saidov. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 1 tom. T.: O'zbekiston respublikasi IIV(Ichki ishlar Vazirligi) Akademiyasi, 1998.
8. M.Hamdamova. Ma'naviyat asoslari-T.: "Fan va Texnologiya", 2008.



Globalashuv jarayonlarida yoshlarni axborot xurujlaridan himoya qilishning dolzarbligi

Abduvohidova Diyora Norboy qizi

Termiz davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti Milliy g'oya , ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 1-kurs 102-guruh talabasi

Annotatsiya: Globalashuv tez sur'atlar bilan tezlashib borayotgan bugungi dunyoda yoshlar axborot hujumlarining salbiy ta'siridan tobora ko'proq himoyasiz. Shuning uchun yosh avlodning sog'lom va muvozanatli rivojlanishiga ko'maklashish uchun ularni bunday hujumlardan himoya qiluvchi chora-tadbirlarni amalga oshirish juda muhimdir. Ushbu maqolada axborot tushunchasi, axborot xavfsizligi, axborotning turlari, axborot xavfsizligining ahamiyati va mohiyati bayon qilingan. Globalashuv davrida axborot xavfsizligiga tahdidlarning zamonaviy asoslari talqin etilgan.

Kalit so'zlar: Globalashuv, Axborot xavfsizligi, Axborot turlari, Jamiyat, Taraqqiyot, texnika va texnologiya, virtual olam, salbiy ta'sir, strategik resurs.

Globalashuv jarayonlari zamonaviy dunyoni shakllantirishda davom etar ekan, yoshlarni axborot hujumlaridan himoya qilishning ahamiyati tobora dolzarb bo'lib bormoqda, chunki ular filtrlanmagan axborot va tashviqotning salbiy ta'siridan himoyasiz. Ta'lim va tartibga solish orqali yoshlarga ma'lumotni tanqidiy tahlil qilish va baholash uchun vositalar va bilimlarni berish, tobora o'zaro bog'liq va axborot bilan to'yingan dunyoda ularning aqliy va hissiy farovonligini himoya qilish zarur.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlarni amalga oshirdi. Xususan, yoshlarga qilgan murojaatlarida bugungi globalashgan davrga nisbatan quyidagi fikrlarini bildirgan "Barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar keskin tus olmoqda. Diniy ekstremizm, terrorism, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzot asrlar davomida amal qilib kelgan e'tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda. Mana shunday va boshqa ko'plab



tahdidlar insoniyat hayotida jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotgani-ayni haqiqat va buni hech kim inkor eta olmaydi”¹.

XXI asr texnika va texnologiyalar taraqqiy etgan asr hisoblanadi. Bugungi kun jamiyati kun sayin taraqqiy etib, insoniyat uchun misli ko’rilmagan imkoniyat va qulayliklar taqdim etmoqda. Ammo shu bilan birga jamiyatda mavjud bo’lgan o’zaro qarama-qarshilik qoidasiga ko’ra illatli hodisa va qarashlar ham rivojlanib bormoqda. Bugungi kun axborotidan foydalanishdagi tezkorlik inson uchun taraqqiyotning muhim omili sifatida namoyon bo’layotgan bo’lsa, shuning bilan yovuz niyatga xizmat qiluvchi axborotlarning mavjud bo’lishi odamlarga, ayniqsa yoshlarga o’zining salbiy ta’sirini ham o’tkazib kelmoqda. Bugungi kunda zamonaviy axborot resurslari, axborot kommunikatsiyalari va axborot almashinuvi tobora jadal o’zgarib bormoqda. Xususan, kompyuter texnologiyasi kommunikatsiyalarining rivojlanishi va keng tarqalishi o’z navbatida qog’oz shaklidagi axborotlarning o’rnini elektron shakldagi axborotlarga bo’shatib bermoqda. Jumladan, internet tarmog’idan foydalanish imkoniyati axborotlarni mislsiz tezlikda, yer yuzining istalgan nuqtasidan turib uzatish va qabul qilish imkonini bermoqda.

Zamonaviy globallashuv sharoitida internetda ma'lumotlarning mavjudligi yoshlarning kundalik hayotining ajralmas qismiga aylandi. Biroq, shu bilan birga, bu axborot xavfsizligiga tahdidlarning kuchayishiga olib keladi. Shu munosabat bilan, yoshlarni onlayn makonda xavfli harakatlardan himoya qilish ayniqsa muhimdir.

Eng keng tarqalgan tahdidlar orasida: xakerlik hujumlari, fishing elektron pochta xabarlari, zararli dasturlar, turli xil firibgarliklar. Ushbu tahdidlar yoshlarning shaxsiy hayotiga ham, moliyaviy farovonligiga ham jiddiy zarar etkazishi mumkin.

Shu munosabat bilan yoshlarning axborot savodxonligini oshirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish zarur. Axborot xavfsizligi bo'yicha konferentsiyalar, seminarlar va treninglar tashkil etish ushbu sohadagi bilimlarni kengaytirishga yordam beradi. Bu nafaqat maktab o'quvchilari va talabalar uchun, balki onlayn muhitda ishlaydigan tashkilotlar xodimlari uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, shaxsiy kompyuterlar va mobil qurilmalarda dasturiy ta'minot va operatsion tizimlarni muntazam yangilab turish muhim omil hisoblanadi. Bu xakerlar tomonidan ishlatilishi mumkin bo'lgan zaifliklarning oldini olishga yordam beradi.

Shuningdek, axborot xavfsizligining ijtimoiy jihatlariga e'tibor qaratish lozim. Yoshlarga onlayn muhitda o'zini tutish qoidalariga rioya qilish, shubhali xabarlar va

¹ *Shavkat Mirziyoyevning «Kamolot» harakatining IV qurultoyidagi nutqi*



havolalarga ishonmaslik, shaxsiy ma'lumotlari va parollarini baham ko'rmaslik zarurligi to'g'risida tushuncha berish muhimdir.

Shunday qilib, globallashtirish sharoitida yoshlarni axborot xavfsizligidan himoya qilish ta'lim ishlari, texnik choralar va ijtimoiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladigan dolzarb vazifadir.

Globallashtirish tez-tezlashmoqda: axborot texnologiyalari va internet paydo bo'lishi bilan dunyo har qachongidan ham o'zaro bog'liq bo'lib qoldi. Bu geografik chegaralar va madaniy farqlarning xiralashishiga olib keldi. Yoshlar turli manbalardan, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar va onlayn forumlardan juda ko'p ma'lumotlarga duch kelishadi. Bu ular uchun juda katta bo'lishi mumkin, chunki ular ushbu raqamli landshaftda harakat qilish uchun kurashmoqdalar.

Yoshlar axborot hujumlarining salbiy ta'siriga tobora ko'proq moyil bo'lmoqdalar: axborot hujumlari turli shakllarda bo'lishi mumkin, jumladan soxta yangiliklar, targ'ibot, nafrat so'zlari va kiberhujum. Bular hali ham o'zini va shaxsiyatini his qilishni rivojlantirayotgan yoshlarning aqliy va hissiy farovonligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, ular ko'pincha faktik va soxta ma'lumotlarni farqlash uchun tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega emaslar, bu ularni zararli aktyorlar uchun oson nishonga aylantiradi.

Yoshlarni bunday hujumlardan himoya qiluvchi chora-tadbirlarni amalga oshirish juda muhim: hukumatlar, o'qituvchilar, ota-onalar va boshqa manfaatdor tomonlar yoshlar o'rtasida mas'uliyatli raqamli fuqarolikni targ'ib qiluvchi siyosat va tashabbuslarni ishlab chiqish uchun birgalikda ishlashlari kerak. Bunga ularga ma'lumotni tekshirishni o'rgatish, ularni suiiste'mol qilish yoki ta'qib qilish to'g'risida xabar berish vositalari bilan ta'minlash va konstruktiv muloqot va munozaralarda qatnashishlari mumkin bo'lgan xavfsiz joylarni yaratish kiradi.

Bunday chora-tadbirlar yosh avlodning sog'lom va muvozanatli rivojlanishiga yordam beradi: yoshlarni axborot hujumlaridan himoya qilish orqali biz ularga hayotning barcha jabhalarida yaxshi xizmat qiladigan chidamlilik, hamdardlik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga yordam bera olamiz. Bu ularga nafaqat shaxs sifatida foyda keltiradi, balki ko'proq ma'lumotli, faol va ijtimoiy mas'uliyatli fuqarolarni yaratishga hissa qo'shadi.

Hozirgi vaqtda barqaror rivojlanayotgan global tarqalish va raqamlashtirish jarayonlari mavjud bo'lib, bu turli ijtimoiy guruhlarga, shu jumladan yoshlar o'rtasida axborot hujumlarining ommaviy tarqalishi bilan bog'liq. Yoshlarni axborot hujumlaridan himoya qilishning dolzarbligini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi.



Yoshlar axborot xavfsizligi sohasidagi aholining eng zaif guruhlaridan biri hisoblanadi, chunki uning ishtirokchilari o'zlarining hayotiy qamrovlarini shakllantirish jarayonida va ta'sir ta'sirini har doim ham to'g'ri baholamaydilar. Bundan tashqari, yoshlar internetning faol foydalanuvchisidir, bu esa ularni axborot hujumlarining sezilmaydigan turlariga nisbatan afzalroq qiladi.

Yoshlarni axborot hujumlaridan himoya qilish ularning jismoniy va ruhiy salomatligini kuzatish, shuningdek, qadriyatlar qoidalarini shakllantirish nuqtai nazaridan alohida o'rin tutadi. Yoshlarni axborot hujumlaridan himoya qilish choralari orasida savodxonlik darajasini oshirish, internetdan foydalanish uchun xavfsiz sharoitlar yaratish, ma'rifiy ishlar olib borish va boshqa ko'p narsalarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Umuman olganda, global jarayonlarda yoshlarni axborot hujumlaridan himoya qilishning dolzarbligi shubhasizdir. Ushbu muammoni hal qilish uchun davlat, qator, ota-onalar va yoshlarning o'zlari chiqishlari kerak. Faqat bunday hollarda jamiyatimizning xavfsizligi va kelajagini ta'minlash mumkin edi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin ma'naviy-ma'rifiy ishlarga davlatimiz siyosatining muhim ustuvor masalalaridan biri sifatida qarala boshladi. Yurtimizda mustaqillik shamollari esa boshlagan davrdanoq, kishilarni dunyoqarashi, ongi, tafakkuri, maqsadi va intilishlarida, qiziqishlarida, bir so'z bilan aytganda ma'naviy-mafkuraviy olamida, ruhiy tabiati va hatto qiyofasida ulkan o'zgarishlar paydo bo'la boshladi.

Xulosa

Globalashuv jarayoni tobora faollashib borayotgan bu dunyoda yoshlarni axborot hujumlaridan himoya qilish juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Internetda xavfsizlikni ta'minlash zarurati tobora kuchayib bormoqda, ayniqsa kiberhujum va samarali faoliyat uchun axborot texnologiyalaridan foydalanishning muhim sohalarida.

Yoshlar axborot xavfsizligi sohasida ayniqsa zaif guruhdir, shuning uchun ular ko'pincha o'z ma'lumotlari va shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish uchun etarli tajriba va bilimga ega emaslar. Bundan tashqari, yoshlar ko'pincha shaxsiy ma'lumotlariga kirishning turli usullaridan foydalanadigan kiberjinoyatchilar uchun auditoriyadir.

Shu munosabat bilan yoshlarni axborot hujumlaridan himoya qilishning dolzarbligini anglash va kiberxavfsizlik sohasidagi ma'lumotlar va treninglardan foydalanish muhimdir. Ta'lim ishlarini olib borish va yoshlarning internetdagi mumkin bo'lgan tahdidlar va ularning ma'lumotlarini himoya qilish usullari to'g'risida xabardorligini oshirish kerak.



Shuningdek, jamoat tashkilotlari yoshlarni axborot hujumlaridan himoya qilish uchun aksiyalarni ishlab chiqishi va amalga oshirishi muhimdir. Bunga Internetda xavfsizlikni ta'minlaydigan maxsus dasturlar va xizmatlarni yaratish va ushbu sohada yoshlarning o'sishini oshirishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish va o'tkazish orqali erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni axborot hujumlaridan himoya qilish globallasuv jarayoni davom etayotgan va ko'proq odamlar axborot texnologiyalaridan foydalanadigan dunyoda tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Yoshlarning kiberxavfsizlik haqida ma'lumot olish va xabardor qilish zarurati, shuningdek, internetda mumkin bo'lgan tahdidlardan himoya choralarini joriy etish va qo'llash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Otamurotov S. "Globallasuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik" Toshkent 2023.
2. Mohigul Shavkat qizi Norboyevaning "Axborot va undan yoshlarning foydalanish xususiyatlari" maqolasi.
3. Shavkat Mirziyoyevning Toshkentda bo'lib o'tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash- davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi 15.06.2017. Toshkent.
4. Nabijonova D. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish psixologiyasi Toshkent 2002
5. "Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari" o'quv-amaliy qo'llanmasi. 2017.



Ma'naviy va moddiy hayot tushunchalarining bir -biri bilan uzviy bog'liqligi.

Chorshanbiyeva Maftuna Jumanazar qizi

Termiz davlat pedagogika instituti "Tarix" fakulteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi 1- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma'naviy hayotning inson hayotida tutgan o'rni va ahamiyati, moddiy hayotning ma'naviy hayot bilan qanchalik bog'liq ekanligi, ma'naviy va moddiy hayotning uzviyligiga putur yetganda kelib chiqadigan salbiy holatlar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek ushbu maqola orqali buyuk insonlarning bu boradagi qarashlari ham aks etadi.

Kalit so'zlar: ma'naviy hayot, ma'naviyat masalasi, moddiy boyliklar, materialistlar, idealistlar, yuksak ma'naviy hislatlar

Bugungi globallashtirilgan jamiyatda inson ma'naviyati yuqori o'rinni egallab bormoqda. Chunki inson ma'naviyati doim yuqori o'rinda baholangan. O'zi ma'naviyat tushunchasiga to'xtalsak, ma'naviyat - bu bizning turli xil ma'rifiy, diniy, axloqiy qarashlarimizning jamlanmasidir. Ma'naviyat tushunchasi faqat shu izhlar bilan cheklanibgina qolmay, juda keng qamrovli tushunchadir. Inson hayoti davomida ma'naviy va moddiy boyliklarga ehtiyoj sezadi. O'sha ehtiyojlarni qondirishga bo'lgan harakatlar natijasida inson komillik sari boradi.

Ma'naviy hayot - insonning ma'naviy jihatdan yuksalishi, o'sishidir. Ma'naviy hayot o'z navbatida moddiy hayot bilan chambarchas bog'liqdir. Qadimdan olimlar moddiy va ma'naviyatning bir -biridan ustun ekanligi, qay birining birlamchi tushuncha ekanligi haqida fikrlar yuritganlar. Ular qay birini asosiy o'ringa qo'yishga qarab ikki guruhga bo'lingan. Bular idealistlar va materialistlar. Idealistlar jamiyat rivojida ruhiy va moddiy bo'lmagan omillarni ustuvor deb bilishgan bo'lsa, materialistlar esa moddiy omillarni asosiy o'ringa qo'yishgan. Lekin inson hayotida moddiy va ma'naviy boyliklar bir butunlikni tashkil etadi. Ularning birini biridan ustun qo'yish esa bir yoqlaman qarash bo'lib qoladi. Ma'naviy va moddiy hayotning o'zaro uzviyligi haqida ko'plab sharq va g'arb olimlari o'z qarashlarini o'zlarining hikmatli so'zlarida, kitoblarida, o'z ta'limotlarida aks ettirishga. Bunday olimlar qatoriga Platon va xitoy donishmandi Konfutsiy larni keltirishimiz mumkin. Masalan, Konfutsiy o'zining konfutsiylik ta'limotida ma'naviy hayotni rivojlantirishni targ'ib qilib, ta'limotida odob qoidalari, axloqiy fazilatlar, insonparvarlik alohida o'rin egallaydi. Yunon faylasufi Suqrot ham ma'naviy boyliklarni moddiy boyliklardan ustun



qo'rganligini uning hikmatli so'zlarida ham ko'rishimiz mumkin. Dunyoda globallashuv jarayoni ketar ekan insonlarning ham ma'naviy, ham moddiy boyliklarga ehtiyoji ortib bormoqda. Ularning har ikkisi bir shaxs uchun bir butunlikni hosil qilishi lozim. Bu so'zlarning isboti o'laroq birinchi prezidentimiz Islom Karimovning "Insonga xos orzu- intilishlarni ro'yobga chiqarish, uning ongli, hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak o'ylaymanki, o'rinli bo'ladi"[1:65] - degan so'zlarini keltirishimiz mumkin. Haqiqatdan ham, bitta qanot bilan qush ucha olmaganidek, inson ham ma'naviyatsiz, yo moddiy hayotsiz kamolotga erisha olmaydi. Chunki inson ikkala jabhada ham birday yutuqlarga erishib, harakat qilmas ekan u yuksaklik sari bora olmaydi. Buni nafaqat shaxs misolida, davlat misolida ham ko'rishimiz mumkin. Masalan: iqtisodsiz siyosatning bo'la olmasligi, jamiyat ma'nan rivojlanmas ekan munosib o'rinlarni egallay olmasligi. Shuning uchun ham mustaqillikka erishganimizdan so'ng va hozir ham moddiy va ma'naviy sohada olib borilayotgan islohotlar bir zaylda olib borilib, hech biri e'tibordan chetda qoldirilmayabdi. Chunki inson moddiy va ma'naviy rivojlanishning tarixini idrok etsa, moddiy ham ma'naviy olamini yuksaltirib, kengaytirib borish haqida jon kuydursagina o'z milliy qadriyatlarini, o'zligini anglaydi, o'zligini, milliy qadriyatlarini anglamagan insonlar esa bugungi globallashgan jamiyatda turli xil yot g'oyalar ta'siriga tushib qoladi. Yana shuni ham aytib o'tish joizki, moddiy boyliklarimiz ko'p bo'lsa -yu, ma'nan qashshoq bo'lar ekanmiz, bizda hech qachon yuksalish bo'lmaydi. Qancha boylik to'plasak ham, ularni ma'rifat yo'liga ma'naviyat bilan sarf qilishimiz kerak. Bu borada rus savdogari Pavel Tretyakovning ham bir so'zlari bor : "Biz moddiy boyliklarga halol yo'l bilan erishib, uni yuksak ma'naviyat bilan sarflashimiz kerak". Bu insonning o'zlari ham hayotida shu so'zlarga amal qiladilar va to'plagan mablag'larini hayriya ishlariga sarflaydilar. Bundan tashqari tarixdan ham ma'lumki, yuksak ma'naviyatli insonlar hokimiyat boshqaruviga kelganlarida ham o'z boyliklarini ezgu ishlarga sarflaganlar. Bunday insonlarga misol qilib, Amir Temur, Alisher Navoiy va Ulug'bek kabi buyuk bobokalonimizni aytishimiz mumkin. Ular o'z davrlarida o'zlarining mablag'laridan hayriya ishlarini, obodonlashtirish, bunyodkorlik ishlarini olib borishgan. G'azal mulkning sultoni bo'lgan Alisher Navoiy o' do'sti Husayn Boyqaro bilan davlat ishlarini boshqarganda adolat tamoyillariga asoslangan. Alisher Navoiy shunchalik saxiy bir inson bo'ladilarki, o'z mablag'laridan ma'rifat maskanlarini qurdiradilar va hamma insonlarga yordam berishga harakat qiladilar. Bu gaplarimizning isboti sifatida Mirzo Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy" risolasida keltirilgan quyidagi so'zlarni keltirishimiz mumkin : "Alisherbekning har yilgi daromadi o'n sakkiz ming



“shoxruhiya” dinorni tashkil qilib, bu mablag'larning barchasini hayriya ishlar evaziga sarf qilgan”[3:16-23]. Navoiy bobomizning bunday saxovatli ishlari o‘sha davrda ham, hozir ham yuksak baholanadi. Zero, bugungi kunda qancha moddiy boylik to‘plasa ham, ma‘nan o‘zligicha qolib ketayotgan insonlar ham kam emas.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, moddiy va ma‘naviyat barkamolligidir. Ya‘ni ikkalasi qachon bir insonda jam bo‘lsa, barkamol shaxs shakllanadi. Agar birining o‘rnida bo‘shliq bo‘ladigan bo‘lsa, u insonni oqsoq insonga qiyoslasak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki unga doim o‘sha oqsoqligi, ya‘ni kamchiligi pand beraveradi. Yuksak ma‘naviyatli yoshlar mamlakatimiz taraqqiyotining poydevori. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek : “Kimki ma‘naviyat masalasi- bu faqat Ma‘naviyat va ma‘rifat markazlari yoki tegishli idoralar ishi deb o‘ylasa, xato qiladi”. Chunki xalqni, jamiyatni, yoshlarni ma‘naviyatli qilish barchamizning burchimizdir. Xalqimizning bir maqoli ham bor : “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona”. Ya‘ni bir bolaning ma‘naviyatli, komil inson bo‘lib voyaga yetishida yetti mahallaning xizmati bor, hech kim bularga befarq bo‘lmasligi kerak. Zero, bugungi axborotlashgan jamiyatda ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalyotgan g‘oyalarning aksariyati yoshlar ma‘naviyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, milliy qadriyatlariga putur yetkazmoqda. Jamiyat hayotida oilaga e‘tiborsizlik, oilaviy ajrimlar, mehnatga, oilaga yengil qarash, faqat o‘zini o‘ylash kabi salbiy holatlarni keltirib chiqarmoqda. Shu kabi holatlarning oldini olish maqsadida yurtimizda yoshlar bo‘sh vaqtlarini samarali o‘tkazishlari uchun kitobxonlik tanlovlari, sport musobaqalari tashkil etildi. Yoshlarni hunarli qilish maqsadida kasb-hunar maktablari tashkil etildi. Bundan ko‘zlangan maqsad esa yoshlarning o‘zlarining hunarlari orqali o‘zlarini o‘zlari moddiy ta‘minlay olishlarini yo‘lga qo‘yishdir. Aslida olib borilayotgan barcha islohotlar biz yoshlar uchun ekan, biz bu imkoniyatlardan unumli foydalanib, mustaqil O‘zbekistonimizning barkamol avlodlari, mustahkam poydevorlari bo‘lishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Islom Karimovning " Yuksak ma‘naviyat - yengilmas kuch" asari 65-70-betlar
2. M. Qarshiboyev, R .Qo‘chqorov, O. Musurmonova 9-sinf "Milliy istiqloq g‘oyasi, ma‘naviyat asoslari". 98-104 -betlar
3. Vaxob Rahmonov, Yanglish Egamova " Tarixi Rashidiy va uning mualliflari haqida" 16-23-betlar
4. Konfutsiy "Hikmatlar" ruschadan Komiljon va Oybek Jo‘rayevlar tarjimasida 5-6-7-betlar. 2010-yil
5. Muhammadjon Qurbonov "Bizni birlashtirgan g‘oya" 2016 y. 38-39-betlar.



Alisher Navoiy ijtimoiy-siyosiy qarashlarida odil hukmdor va raiyat masalalari

Xo'shboqova Dilchehra

Termiz davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat
asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning ijtimoiy siyosiy qarashlarida odil hukmdor va raiyat masalalari hamda xalq farovonligi yo'lida amalga oshirgan ishlari to'g'risida qisqacha so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: adolat, odil hukmdor, xalq, farovonlik, yurt osoyishtaligi

Butun o'zbek va boshqa turkiy xalqlarning shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi Alisher Navoiy umrini turkiy til mavqecini ko'tarish, turkiy adabiyot imkoniyatlarini dunyoga tan oldirish, turkiy davlatchilik asoslarini mustahkamlash, jamiyatda haqiqat va adolat mezonlarini qaror topdirishga bag'ishlagan. Uning yozgan asarlari hayotiyli bilan ahamiyatlidir. Uning qaysi asarini olmaylik, unda insonning ma'naviy tarbiyasi, ijtimoiy adolat, hukmdorning yurtni qanday boshqarishi, xalq farovonligi va boshqa shunga o'xshash mavzularning nafaqat o'sha davrdagi, balki bugungi kunga ham tegishli bo'lgan masalarga doir qarashlari aks etgan. U o'zi yozgan asarlari bilan o'z ona tilini dunyoga tarannum etdi. Turkiy tilning boshqa tillardan kam emasligini isbotlab berdi. Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida Navoiyga shunday ta'rif beradi: "Olamda turkiy va forsiy so'zlovchi biron bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va etiqod bilan qaramasa"[1:30]. Darhaqiqat, Navoiy turkiy tildan tashqari Forsiy tilda ham benazir asarlar yaratdi. Forsiy tilda yozgan asarlarini "Devoni Foni"ga jamladi. Uning hayot yo'liga nazar tashlaydigan bo'lsak, faqatgina ijod bilan shug'ullanmaganligini ko'rishimiz mumkin.

Maktabdosh do'sti Husayn Bayqaro taxtni egallagandan so'ng, Navoiyning qarshiligiga qaramasdan, avval muhrdor so'ng esa, vazir lavozimiga tayinlaydi. SHundan boshlab, Navoiy siyosat va xalq hayotiga kirib keldi. Navoiyning odil hukmdor haqidagi qarashlari hayotiyli bilan hamon qadrlidir. U tuli asarlarida odil podshoh timsolini yaratdi va shunday podshoh siyosati tufayli vujudga kelgan kuchli davlatchilik g'oyalarini tafakkuri yordamida asarlariga singdirdi. Bunday asarlariga "Hayrat ul-abror", "Sadiy Iskandariy", "Farhod va Shirin" kabi dostonlarini keltirishimiz mumkin. "Hayrat ul-abror" dostonida ijtimoiy adolat masalalariga ko'proq yondoshgan bo'lsa, "Sadiy Iskandariy" dostonida shoh Iskandar timsolida podshoh qanday bo'lishi kerakligi, xalqni qay yo'l bilan boshqarish kerakligi haqidagi



fikrlari mujassamlashgan. Uning nazdida xalq go'yo qo'y uyuri, podshoh esa cho'pondir. Agar cho'pon hushyor bo'lmasa, qo'ylari och bo'rilarga yem bo'ladi. Navoiy bu fikri bilan hukmdor nafaqat xalqni adolat bilan boshqarmog'i, balki mamlakatda xalq bilan hukmdor o'rtasida vositachi bo'lgan amaldorlarni ham nazorat qilmolik kerakligini ham takidlagan. Navoiy hukmdor mamlakatni adolat bilan boshqarishi, qat'iyatli bo'lishi, siyosat yuritishi va hukm chiqarishda ehtirolarga berilmay, aql ovozigga quloq tutishi, zarur o'rinlarda kechirimli bo'lishi, hech qachon adovat saqlamasligi, har bir ishini kengash asosida qilishi, doimo el-yurt axvolidan bohobar bo'lishi, adolatli va muruvvatli bo'lishi kerak deb bilgan. U mamlakat obodligining sababini ma'naviy barkamol podshohning odil siyosati deb bilgan.

SHoir shohni oqayotgan daryoga, xalqni esa daryo atrofidagi anhorlarga o'xshatib, shunday fikr bildirgan: "Daryo suvidan ham shu kabi kayfiyat va hosiyat bo'ladi. U achchiq bo'lsa, bu achchiq uchun bu chuchuk-bu tiniq". Podshoh diyonatli, odil va oqil siyosatdon bo'lsa, atrofiga halol, taqvoli kishilarni yig'ib, raiyat farovonligi, yurt obodonchiligi uchun qayg'urishi, badnafs va fosiq kishilarning tazyiqidan himoya qilishi kerak.

Navoiyning fikricha " odil podshoh Haqdan xaloyiqqa rahmat erur". Bunday odam mamlakatda omonlik, tinchlik va osoyishtalik qaror topishiga sababchi bo'ladi. Navoiy umri davomida xalq bilan, uning dardi bilan yashadi. Vazir lavozimida ishlagan chog'larida ham faqat xalq tinchligi va osoyishtaligi uchun ko'plab ishlar qildi. O'z hisobidan ko'plab masjid, madrasa, honaqqoh, hammom, ko'prik va shu kabi imoratlarni qurdirdi. Adolat istab kelgan har bir kishining arzlarini iloji boricha o'rganib chiqib yechim topdi. Har doim Halq tomonida bo'ldi. Bu so'zimizning isboti sifatida Oybekning "Navoiy" romanida Navoiy tomonidan shunday jumla keltirilgan: "Haqiqat olomon tomonidadir. Haq so'zni aytgan og'izlarni qonatmoq emas, haqiqat tamalini qulatmoqqa ko'tarilgan qo'llarni kesmoq kerak"[4:84]. Navoiy har doim el-yurt manfaatini o'ylaganini shu jumladan ham anglashimiz mumkin. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Navoiy xalqining haqiqiy fidoiy farzandi. U qoldirgan adabiy meros bugungi kun avlodlari uchun yo'riqnomadir. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng Navoiy asarlarini o'rganish, ularni keng ommaga yetkazishga katta etibor berildi. Navoiy xalqimizning badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, shu bilan birgalikda turkiy tilni o'z asarlari bilan dunyoga tarannum etgan o'lmas so'z san'atkoridir. Biz shunday buyuk ajdodlarning avlodi ekanligimizdan faxrlanamiz.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.Karimo “Yuksak ma'naviyat-yenglimas kuch”. Ma'naviyat nashriyoti 2008-yil.
2. A.Navoiy “Hayrat ul-abror”. Toshkent G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti 1989-yil.
3. Z.G‘afurov “O‘zbekistonda siyosiy va madaniy-marifiy ta'limlari taraqqiyoti” 2001-yil
4. Oybek “Navoiy” “Toshkent” “SHarq” nashriyot matbaa Aksiyadorlik jamiyati bosh tahririyati 2004-yil.
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/vybornyy-yavlenie-i-problema-sovershenstvovaniya-elektrokultury-naseleniya>



Jamiyatda axborot xavfsizligini taminlashda axloqiy tarbiya omilidan foydalanish muammolari

Termiz davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 1-kurs talabasi Murodova Bibisora

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyat tushunchasi, axborot xavfsizligini taminlash, axloqiy tarbiya, axborot xavfsizligining muhimlik darajasi, axborot xavfsizligida tarbiya.

Kalit so'zlar: axborot, axborot xavfsizligi, jamiyat, axloq, tarbiya, texnologiya.

Bugungi hayotimizning hamma sohalarida axborot-kommunikatsiya va komyuter texnologiyalarining o'rni beqiyos darajada katta ekanligi barchamizga ma'lum. Hozirda axborot sohasida juda katta o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Bu o'zgarishlarning asosini axborotlashtirish telekommunikatsiya va komyuter texnologiyalari tashkil etadi. XXI asr axborotlashgan jamiyat asridir. "Axborot ijtimoiy-iqtisodiy madaniy tarqqiyotning muhim omilidir. Shu sababli ham u inson taffakuriga turli yo'nalishlarda ta'sir etuvchi insoniyatning hayoti va taqdirini u yoki bu tomonga burib yuboruvchi goh ijobiy goh salbiy mohiyat kasb etuvchi qudratli vositaga aylandi"[1:3].

Axborotning butun jamiyatda muhimlik darajasi qadim zamonlardan ma'lum shuning uchun ham qadimdan axborotni himoyalash uchun turli xil usullar qo'llanilgan. Ulardan biri sirli yozuvdir. U bizga tarixdan ma'lumki Amerikaning qadim davlatlaridan Inklarning "Kipu" tugunli xati yozuv sir tutilgan. Undagi xabarni xabar yuborilgan manzil egasidan boshqa shaxs o'qiy olmagan. Asrlar davomida bu san'at sirli yozuv jamiyatning yuqori tabaqalari davlatning elchixonalar rezidensiyalari va razvedka missiyalaridan tashqariga chiqmagan. Faqat bir necha o'n yil oldin jamiyatimizda hamma narsa tubdan o'zgardi, ya'ni axborot o'z qiymatiga ega bo'ldi va keng tarqaladigan mahsulotga aylandi. Shu tarzda axborotni himoyalash zaruriyati tug'iladi. Axborotni qayta ishlash sanoatning paydo bo'lishi axborotni himoyalash sanoatning paydo bo'lishiga olib keldi. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlarida axborotlar o'zining hayotiy davriga ega bo'ldi. Bu davr uni yaratishi undan foydalanish uning xavfsizligini ta'minlash, ya'ni axborot xavfsizligini taminlashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov va O'zbekiston Respublikasining prezidenti SHavkat Mirziyoyevning chiqishlarida va asarlarida ma'naviy tahdidlar, unga qarshi kurashish zaruriyati bu boradagi vazifalar va axborot xavfsizligida milliy xavfsizlik masalalari yoshlar orasida axborot madaniyatini shakllantirish axborot olish erkinligini ta'minlash va bunda axloqiy tarbiya vositalaridan foydalanish ya'ni axloqiy tarbiya bu shaxsni har tomonlama



rivojlantirishning muhim tarkibiy qismidir. U yoshlarga axloqiy tasavvur va bilimlarni singdirish ularda shaxsning axloqiy his-tuyg'u va sifatlarni ijobiy munosabatlar va xulq madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan jarayon hisoblanadi. Hozirgi vaqtda biz o'zimizni bilimlarimizni yanada rivojlantirib, axloqiy me'yorlarga amal qilib axloqiy qoidalarni tushunib axborot xavfsizligini taminlashimiz kerak.

Jamiyatimizning hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrida biz insonlarning hech birimiz kundalik turmush tarzimizni axborot va axborot ulashuvchi vositalarisiz tasavvur qilolmaymiz. Ushbu axborot olish jarayonida biz internet, ijtimoiy tarmoqlar, tilvidinya, gazeta junallar, kiitoblardan keng foydalanamiz va bu jamiyatimizning rivoji uchun juda muhim hisoblanadi. Yana shuni aytishim kerakki "Fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasi insonning axborot olish axborotni va o'z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi va erkinligini o'zida mujassam etgan bo'lib bu O'zbeistonda demokratik jamiyat asoslarini barpo etishning muhim sharti ta'biri joiz bo'lsa tamal toshi hisoblanadi" - degan edi birinchi prezidentimiz Islom Karimov. Axborot xavfsizligi deganda tabiiy yoki sun'iy xarakterdagi tasodifiy yoki qasddan qilingan ta'sirlardan axborot va uni qo'llab-quvvatlab turuvchi infrastukturaning himoyalanganligi tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda 439-2sonli "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonunida axborot xavfsizligi axborot borasidagi xavfsizlik deb belgilangan va u axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalanganlik holatini angatadi[4]. Axborot sohasida jamiyat manfaatlari bu sohada shaxs manfaatlarini ta'minlashda demokratiyani mustahkamlashda ijtimoiy-huquqiy davlatni qurishda ijtimoiy hamjihatlikni qo'llab-quvvatlashda o'z aksini topadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak axborot xavfsizligida axloqiy tarbiya juda muhim rol o'ynaydi chunki biz yoshlarimizning ongiga albatta axborot xavfsizlik sohasidan qanday foydalanishni, u haqida bilim va tasavvurlarni tushuntirishni axloqiy tarbiya vositalari orqali anglatishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'affarova G "Axborot va axborotlashtirish jarayonlarining falsafiy metadalogik muammolari. fals. Fan.nomz...dis-Toshkent,2008 3-bet.
2. Yaxyo Muhammad Amin "Internetdagi taxdidlardan himoya asari" Toshkent 2016
3. Aloqa va axborotlashtirish sohasida axborot xavfsizligi:atamalar va ta'riflar
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Axborotnomasi –T2003N1
5. Otamurotov S.Glaballashuv va milliy ma'naviy xavfsizlik-T;2013
6. Jummaniyozov X.Sobirova M. Nigmanova U. Glaballashuv asoslari-T. 2015



G'OYALARNING JAMIYAT HAYOTINI TARTIBGA SOLISHDAGI TA'SIRI

Termiz davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat
asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 1-kurs talabasi

Normurodova Madina

ANNOTASIYA: Ushbu maqolada g'oyalarning kelib chiqishi, xususiyati, davlat va jamiyat, insonlar hayotini tartibga solishdagi ta'siri haqida ezgulikni ulug'lab tinchlikni qadrlaydigan, mamlakat rivojiga o'z hissasini qo'sha oladigan bunyodkor g'oyali fuqarolarni tarbiyash uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar ko'rsatilgan.

KALIT SO'ZLAR: G'oya, ma'naviyat mafkura, globallashuv, bunyodkor g'oya, vayronkor g'oya .

KIRISH. Hozirgi kunda yangilanish sari jadal odimlar bilan borayotgan jamiyatimiz taraqqiyotining rivojlanishidagi eng asosiy muammo bu-farzandlarimizni ma'naviy, mafkuraviy dunyoqarashini boyitish, o'zligini anglashga, vatanparvarlik tuyg'usini uyg'otishga ko'maklashish hisoblanadi. Bunday vaziyatda biz kabi ma'naviyat targ'ibotchilarining harakat qilishini talabtala botchilarining harakat qilishini talab etadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov quyidagi so'zlarni takidlaganlar: "Yer yuzida qancha inson yashaydigan bo'lsa, barmog'ining izi ham, ichki dunyosi ham bir xil bo'lgan ikkita odamni topish, uchratish qiyin. Tabiiyki bu insonlarning fikrlashi, yashash tarzi ham bir-biridan farq qiladi"[1]. Shunday ekan hamma odamlarga ham ularning orzu-istaklari, intilishlari, g'oyalari takrorlanmas ekanligini tu-shuntirib, o'ziga bo'lgan ishonchini kuchaytirishimiz kerak.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

G'oya-insonning tafakkur olamida paydo bo'ladigan, butun bashariyatni mushtarak maqsadlar sari yetaklaydigan fikr hisoblanadi. Bizning fikrlarimiz zamirida faqat amaliy yechimini topgan narsalar emas, balki, yangi rejalar, o'zgacha ixtirolar, taxminlar rivojlanish bosqichlari o'z aksini topadi. Bu jarayonda biz ma'lum bo'lgan bilimlarni aqlimizda sintez qilib, umumlashtirgan holda xulosalar chiqaramiz. Aflotunning fikricha: "G'oya haqiqiy borliq, biz biladigan va yashayotgan dunyo-uning soyasidir"[2]. Yaratilgan barcha tajribalar g'oyalar orqali sodir bo'ladi, uning amaliy isboti in'ikosidir. Demak inson g'oyalar va soyalar o'rtasidagi shaxs hisoblanadi.

Har bir davrning o'z ilgari suradigan g'oyasi bo'ladi. Zamon talabiga qarab ularning tushunchalari, mohiyati o'zgarib boraveradi. O'rniga yangilari paydo bo'lib, xalq ongiga singishadi. Ammo ahli bashar uchun qadrlil bo'lgan g'oyalar vaqt qozonida qaynab sayqallanib tobora rivojlanib boyib boradi. Keyinchalik umumbashariy qadriyat sifatida xalq qalbiga singadi. Shundan anglashimiz mum-kinki hozirgi ayni jadal



globallashuv jarayonida inson ongiga ta'sir ko'rsatadigan birinchi omil bu - g'oyalardir. O'z navbatida g'oyalar ham xususiyatiga ko'ra turlarga bo'linadi. Bular: badiiy, bunyodkor va vayronkor, ilmiy va xayoliy, dunyoviy va diniy, tarbiyaviy, axloqiy va estetik, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va boshqalar.

Insonning his-tuyg'ulari o'y-xayollari, emotsiyalariga katta ta'sir ko'rsatadigan g'oya bu -badiiy g'oyadir. Xalqimizning o'tmishi, ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan urf-odat, an'ana va qadriyatlarimiz, bugungi kunimiz va kelajak istiqbollarimiz, avlodlarga mana shu badiiy g'oya asosida doston, lapar, ertaklarimiz orqali yetib boradi.

Tarixdan olgan tajribalar, bugungi taraqqiyot zamonidagi shu narsa ma'lum bo'ladiki, dunyodagi g'oya va mafkuralar inson qalbida doimo ikki tuyg'u - bunyodkorlik va buzg'unchi, vayronkorlik g'oyalari asosida namoyon bo'ladi. Insonni yaratuvchanlikka, ezgu maqsadlar sari olg'a borishga davat etadigan kuch bu-bunyodkor g'oyadir. Biz tarixga qarasak azal-azaldan ezgulik va yovuzlik, bunyodkor va vayronkor g'oyalar o'rtasida qarama qarshi kurash bo'lgan.

Tajovuskorlik, buzg'unchilik, aqidaparastlik, ekstremizm, terrorizm kabi illatlarga qarshi tinchlik, adolat, mustaqillik, millatparvarlik, birdamlik bilan javob qaytarilgan va har doim ezgulik g'alaba qozongan. Bu ikki tushuncha orasidagi olshuvni birinchi prezidentimiz I.Karimov quyidagicha ta'riflaydilar : "Mening nazarimda odamning qalbida ikkita kuch - bunyodkor va hamisha kurashadi. Afsus bilan ta'kidlashimiz lozim:tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, tabiatdagi insoniylikdan ko'ra vaxshiylik, ur-yiqit kabi hatti harakatlarni qo'zg'atib yuborishi osonroq" [3].

Bunyodkor g'oya bung'unchi illatlarga o'z ta'sirini ma'rifat asosida talqin qilishga harakat qiladi. Chunki bunday g'oyali insonlar o'z haq- huquqini bilgan, mafku-rasi mustahkam bo'ladi. Bunday xalqni esa hech qachon maxf etib bo'lmaydi

XULOSA. Har qanday yovuzlik, tubanlik botqog'iga botayotgan millatni, unda yashayotgan xalqning birgina Milliy ruhi saqlab qola oladi. Shunday ekan biz o'sib kelayotgan farzandlarimizning qalbiga o'zlikni anglash, ozodlik, vatanga sadoqat, tinchlikka shukronalik hissini singdirib borishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Porloq kelajagimiz sog'lom fikrli yoshlar qo'lida.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T: 2006.
2. Abdulvay Valiyev O'zME Birinchi jild Toshkent 2000.
3. Qurbonov D. "Adabiyot nazariyasi,, T:"Adabiyot" 2002.
4. Plato //Encyclopaedi Britannica 2002.



**Abdulla Avloniyning, “Turkiy Guliston yohud axloq” asaridagi yomon
illatlarning shaxs ma’naviyatini shakllantirishdagi salbiy ta’siri**

**Termiz davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti Milliy g’oya , ma’naviyat
asoslari va huquq ta’limi yo’nalishi 1-kurs 101-guruh talabasi
Norqulova Dilnoza Murodovna**

Annotatsiya: Ushbu maqola Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yohud
ahloq” asaridagi yomon illatlarning shaxs ma’naviyatini shakllantirishdagi salbiy ta’siri
haqida qisqacha fikr yuritadi.

Kalit so’zlar: G’azab, adolat, dangasalik, jaholat, bilimsizlik.

Inson barkamolligi uning tashqi ko’rinishi bilan emas ma’naviy dunyosiga qarab
belgilanadi. Jamiyatdagi insonlarning ma’naviyati va dunyoqarashi yildan yilga o’sib
bormoqda. Shaxs ma’naviyati bu avvalo, insonning ichki olami, dunyon qarashi, orzu-
istaklari va ijobiy xislatlaridir. Jamiyatda sog’lom fikrli insonlarni tarbiyalash uchun
ularning ma’naviyatiga ta’sir etuvchi omillarga e’tibor qaratish lozim. Hozirgi kunda
yaxshi illatlarga nisbatan, yomon illatlarning ta’siri ko’payib bormoqda. XIX asrning
oxiri XX asr boshlarida yashab, ijod qilgan, jaded adabiyotining yirik
namayondalaridan biri Abdulla Avloniy o’zining “Turkiy Guliston yohud axloq”
asarida shunday yomon illatlarning biri uchtagiga ta’rif berib o’tiladi. Bular g’azab,
shahvat, jaholat, safohat, hamoqat, adolat, xasosat rahovat, anoniyat, adovat, g’iybat,
hasad, zulm, hizb va shu kabilardir .

Adib o’zining ushbu asarida g’azabga to’xtalib shunday deydi “G’azab deb bir
kishi ikkinchi ila shiddat va hiddat ila muomala qilishmakni aytilur”¹. G’azab bir
insonning boshqa biriga og’irlik va tezlik bilan qiladigan muomalasidir. G’azab otiga
mingan insonning ko’ziga hech nima ko’rinmay suhbatdoshiga bor nafratini sochadi.
Shu vaqtda uning o’zi bilib yoki bilmagan holda qilgan g’azabi, atrofdegilarning unga
nisbatan bo’lgan ijobiy fikrlarning o’zgarishiga olib keladi . G’azabdan ehtiyot bo’lish
lozim. Uni jabr va zulm qilishdan ishlatib ko’pchilik o’ziga ziyon keltiradi. G’azab
chiqqan vaqtda aql parishon bo’lib insonning ixtiyori qo’lidan ketadi. Bu illat qalb
kasalligidir. U sababli insonning ichki dunyosiga zarar yetadi. G’azab g’azabga duchor
bo’lgandan, g’azab qilganga ko’proq zarar keltiradi. Inson qanchalik aqlli va dono
bo’lmasin bu illatlarning borligi uning mavqeini tushurdi.

¹ Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yohud axloq” 1917 Toshkent.Tip.Par.Sots. revolyuts”.



Abu Hurayra (r.a) dan “Bir kishi Nabiy (s.a) vasallamga : - menga nasihat qilingandi. Shunda Payg‘ambar s.a.v – G‘azab qilma deb javob beradi”². G‘azab inson tabiatida mavjud bo‘lgan illat bo‘lib, u yaxshilik maqsadida qilinsa, ya’ni o‘z obro‘yi sha’ni va qadr-qimmatni saqlashda, yomon ishlarga qarshi qilinsa to‘g‘ridir.

Hozirgi kunda atrofimizdagi insonlarda shuningdek o‘zimizda ham bor bo‘lgan yomon illatlardan biri bu dangasalikdir. Abdulla Avloniy o‘zining asarida dangasalikni “atolat” deb ataydi. Bu bilimda u dangasalik va sa’y-harakatni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yadi. “Atolat deb dangasalikni va yolqovlikka aytilur. Atolat insonning saodatligining zo‘r ofatidir . Vatanparlikdan paydo bo‘ladurg‘an yomonlik maishat jihatdan naslga ham, ta’sir qiladur”³. Bu fikrlari orqali dangasalik va yalqovlikni qaralaydi. Avloniy baxtga, biror muvaffiqiyatga faqat sa’y-harakat va mehnat bilangina erishish mumkinligini ta’kidlaydi .

Dangasalik bir ishni uzoq vaqt davomida cho‘zib yurish, bahona izlash o‘zini boshqa narsalar bilan intilishlarimiz va orzularimizni yo‘qqa chiqaruchi biz oson qabul qiladigan illatdir. Dangasa insonlar bu hayotdagi passiv insonlardir. Ular o‘zlari bilgan holda imkoniyatlari va muvaffiqiyatlarini yo‘qotadilar. Dangasalik tufayli o‘zlariga jismonan ham aqlan ham zarar yetkazishadi. Buning natijasida bilimsizlik va jaholat ko‘payadi. Bu illat o‘g‘irlikka o‘xshaydi. U bizdan vaqtimizni, qobiliyatimizni va eng asosiysi obro‘yimizni ham o‘g‘irlyadi.

Dangasa insonlarning tillari uzun bo‘ladi ammo ishida o‘shish bo‘lmaydi. Jamiyatdagi o‘z o‘rnini ham yo‘qota boshlaydi. Galina Kulixova: “Bugun qilishni istamagan ishni ertaga qoldirmang – ertaga yana qilishni xohlamaysiz”. – deb ta’kidlab o‘tadi. Insonlar doimiy bajarayotgan ishlaridan ba’zida zerikib, erinchoqlik qilib bu ishni keyingi qo‘yib qo‘yadilar, natijada ular o‘zlarining vaqtini hamda kelgusi muvaffiqiyatlarini ham yo‘qqa chiqaradilar. Bugun qoldirilgan ish ertaga ham bajarilmaydi. Bu holat ish bajaruvchiga ham jamiyatga ham zarar keltiradi .

Xulosa qilib aytganda, yomon illatlar barchamizda bor. Ulardan iloji boricha xolos bo‘lishga harakat qilishimiz lozim. Bu illatlar bizning jamiyatdagi o‘rnimizga faoliyatimizga bevosita ta’sir qiladi. G‘azab, nafrat kabi illatlar ko‘plab munosabatlarning yomonlashuviga olib keladi. G‘azab kelganda uni jilovlay olish lozim. Bir zumlik g‘azab hayotimizda chigalliklar keltirib chiqaradi. Dangasalik bu befarqlik ham bilimsizlikdir. Dangasalik bora – bora jaholatga olib keladi, dangasa inson faoliyatidan ko‘ra uyquni afzal ko‘radi. Biz bu illatlardan uzoq bo‘lishimiz va ko‘proq ijobiy hislatlarga ega bo‘lishimiz lozim .

² Yahyo ibn Sharofiddin ibn Murrui ibn Hasan al-Hizomiy al-Huvroniy an-Navaviy “ARBA'IN HADIS” ziyo.uz.

³ Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yohud axloq” 1917 Toshkent.Tip.Par.Sots. revolyuts”.





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yohud axloq” 1917 Toshkent.Tip.Par.Sots. revolyuts’.
2. Yahyo ibn Sharofiddin ibn Murriy ibn Hasan al-Hizomiy al-Huvroniy an-Navaviy “ARBA'IN HADIS” ziyo.uz.
3. <https://saap-sale.ru>



Ma'naviyat shakllanish bosqichlarida urf-odat, an'ana va qadriyatlarning tutgan o'rni.

Nurmatova Mohichehra

Termiz davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma'naviyatning shakllanishiga ta'sir etadigan omillar xususida so'z boradi. Milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarning shaxs ma'naviyatining rivojlanishiga ko'rsatadigan ijobiy ta'sirlari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, milliy ong, urf-odat, an'ana, qadriyat, milliy ruh, milliylik, ma'naviy meros.

Barcha zamonlarda har bir jamiyatning bosh omili dunyodagi eng oliy mavjudot bo'lmish inson hisoblangan. Bunga sabab esa, insoniyatning aqliy salohiyati, tafakkuri, ma'naviy dunyoqarashi bilan boshqa jonzotlardan ustun turishidir. U ushbu xususiyatlar bilan nafaqat ongsiz mavjudotlardan farqlanadi, balki, butun dunyo tamaddunini ham belgilab beradi. Bu jaroyonda esa avvalo shaxs ma'naviyati dunyo qarashi asosiy rollarga chiqadi. "Ma'naviyat-insonning, xalqning, davlatning kuch-qudratidir"[1:9]. Negaki, ma'naviyat teran, oq qorani ajratadigan, o'zining shaxsiy fikri, qarashlariga ega bo'lgan, kelajak hayotini belgilay oladigan bir so'z bilan aytganda, ma'naviy barkamollikka erishgan shaxsgina butunjahon raqobat maydonida qadr -qimmatini belgilab, o'z o'rnini topa oladi. Bu esa o'z navbatida u yashaydigan muhit, jamiyat, davlat mavqeyini ham ma'lum darajada belgilaydi.

"Ma'naviyat –insonning qon -qoni, suyak- suyakgiga yillar davomida ona suti, oila tarbiyasi, ajdodlar o'giti, vatan tuyg'usi, bu hayotning bazida achchiq ba'zida quvonchli saboqlari bilan qatra- qatra bo'lib singib boradi"[2:156]. Hech bir shaxs o'z-o'zidan ma'naviyatli yoki bilimli, tajribali bo'lib qolmaydi. Bunga yillar davomida qilingan sa'y harakatlar, mashaqqatli mehnat va qaysidir ma'noda boshqalarning ta'siri natijasida erishiladi.

Ulug' donishmand Umar Xayyom: "Ma'naviy taraqqiyotning markazida doimo inson taqdiri va kamoloti yotadi" - deb alohida qayd qilgan edi. Shaxs ma'naviyatining shakllanishida ijtimoiy munosabatlarga kirishuvda uning xulq -atvorini belgilovchi, shakllantiruvchi va boshqarib turuvchi milliy ruh asosiy rol o'ynaydi. Bu esa yillar silsilasida sayqallanib, avloddan avlodga o'tib kelayotgan milliy meros, ya'niki, milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Barchamizga ma'lumki, Sobiq Sho'rolar davrida uzoq vaqt davomida milliy va ma'naviy tarbiya chetga surib qo'yildi. Oqibatda esa bolalar tarbiyasida anchayin oqsashlar kuzatilgani hech



birimizga sir emas. Vaholanki, bola, o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida oilada, jamiyatda oladigan tarbiya juda muhimdir.

Bu xususda taniqli o'zbek ma'rifatparvari Abdulla Avloniy shunday deydi: "Al-hosil tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo falokat, yo saodat yo halokat masalasidir". Har bir jamiyatning ertangi kunini unda istiqomat qilayotgan kishilar belgilab beradi. Bu esa o'z o'rnida insonlarning dunyoqarashi, tarbiyasi va tajribasi bilan chambarchas bog'liq.

Faqatgina yuksak ma'naviyatli, o'tkir zehni, keng dunyoqarashga ega bo'lgan shaxslar boshqalar haqida qayg'uradi, ular uchun yelib yuguradi, ijtimoiy hayotda o'zining faolligini ko'rsata oladi. Bu bborada "ma'naviyat yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi"[3:9]-degan edi Prezident Islom Karimov. Ushbu fikrlarda anglaniladiki, shaxs tarbiyasi, ya'niki, ma'naviy tarbiya xususiy ish emas, balki ijtimoiy umummilliy ishdir. Har bir o'zbek oilasi bu masalaga jiddiy e'tibor qaratadi. Bu jarayonda ular tarixiy xotira, milliy ma'naviy meros, urf-odat, qadriyat va marosimlardan keng foydalanishadi.

O'zbek millatining urf-odatlarini nafaqat oilada, balkim har bir sohada o'z aksini topgan va har bir jamiyat a'zosining hayotida katta ahamiyatga ega. Misol uchun masjid, choyxonalar, bozor, nahorgi osh, milliy bayramlar, Navro'z, bayrami kelin salom va boshqalar kundalik turmushimizning ajralmas qismidir. Biz ularsiz hayotimizni mazmunga boy holda tasavvur qila olmaymiz.

Urf-odat–kishilarning kundalik turmushga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti xarakterlar, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan ko'nikma va xulq-atvor qoidalaridir. Bu qoida ma'lum ma'noda shaxs ijtimoiylashuvining asosi bo'lib xizmat qiladi. Hech bir shaxs bu kabi ruhiy oziq manbalaridan ayro holda yashay olmaydi. Chunki inson tug'ilgandan to vafot etgunga qadar ma'lum ma'noda shu urf-odat va an'analar ta'sirida yahaydi. Masalan bola tug'ilganda o'tkaziladigan beshikka solish keyinchalik esa xatna (sunnat) qilish muchal to'yi, fотиha, nikoh to'ylari, Payg'ambar yosh, bundan tashqari turli bayramlar va marosimlar xalq sayllari, gul bayrami Qurbon hayiti, Ramazon hayiti, Mavlud...Bularning barchasi kishilar hayotining, kundalik turmushining ajralmas qismiga aylangan. Barcha o'zbek oilalariga xos bo'lgan milliy urf-odatlarimizga aylanib qolgan beshik to'yi— chaqaloqni birinchi marta beshikka solish bilan bog'liq marosimdir. Bu har bir oilaning imkoniyat darajasida bolaning ota-onasi, yoshi ulug' kishilar va qo'ni-qo'shni, qarindoshlar ishtirokida o'tkaziladi. Chaqaloq uchun zarur bo'lgan anjomlar oilaning yaqin qarinqoshlari tomonidan beriladi. Mehmonlarga alohida hurmat ko'rsatilib, sovg'a-salomlar ulashiladi. Chaqaloqning ota-onasi, bobo-buvilariga ham hadyalar beriladi.



An'anaga ko'ra olib kelingan beshikni avval chaqaloqning bobosi yelkasiga qo'yadi, keyin o'g'lining o'ng yelkasiga o'tkazadi, u esa beshikni chaqaloqning onasiga beradi. So'ngra keksa kampirlar ishtirokida chaqaloqni yo'rgaklash va beshikka solish marosimi o'tkaziladi. Uni ko'rish uchun kirganlarga ham sovg'alar, shirinliklar tarqatiladi. Bu kabi milliy marosimlar kishilar ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularni milliy ruhda tarbiyalash, ma'naviyatini yuksaltirishning muhim omili hisoblanadi.

O'zbek xalqining o'ziga xos tarzda shakllangan, rivojlangan, qadimdan tarkib topgan va hozir ham keng amal qilinadigan an'ana va qadriyatlari ham mavjud bo'lib, hayotining turli jabhalarini qamrab olgan. Ular asosan, ko'cha-ko'yda, muomola madaniyatida, mehmondo'stlik, yoshi ulug'larni hurmat qilish, qarindosh-urug'larga oqibatli bo'lish kabi jihatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Bu kabi odatlar har bir kishiga yoshligidan avvalo oilada yaqin insonlar tomonidan singdiriladi. Shaxsning ijtimoiylashuvida, jamiyat hayotiga singishib borishida bu kabi milliy an'analarning ahamiyati juda katta.

An'ana kishilar ongida, hayotida o'z o'rnini topgan ijtimoiy hodisa bo'lib, avloddan-avlodga o'tadigan takrorlanadigan tartib va qoidalardir ular xalqning ma'naviy, ruhiy hayotining ajralmas qismi sifatida o'ziga xosligini ifodalagan. Milliy an'analarning kishilar hayotiga ta'siri nisbatan kuchliroqdir chunki bitta an'ana bir nechta udum urf-odat va marosimlarni o'z ichiga qamrab olgan bo'lishi mumkin. Masalan birgina mehmon do'stlik an'anasi bir nechta urf –odatlar udumlar orqali to'la namoyon bo'ladi A.Ibrohimov aytganidek. "Odam odamlardan odamiylikni o'rganadi" o'zbek oilalarida o'tadigan biron bir yig'ilish, marosim, to'y – tantana yoki hashar, obodonlashtirish ishlari kattalarsiz, ularning maslahatisiz o'tmaydi. Uzoq safarga ketayotgan har bir kishi keksalarning duosini olib keyin yo'lga o'tlanadi bu kabi odat an'analalar xalqimizga xos bo'lgan, asrlar davomida shakllanib kelayotgan milliy ruhning yorqin namunasi.

Ma'naviy madaniyat yoxud ma'naviyatning mag'zini qadriyatlar tashkil etadi. Ularda zamonning ruhi, imkoniyatlari, o'sha zamonda yashagan odamlarning orzu-umidlari, istaklari, talab va ehtiyojlari o'z ifodasini topadi. O'zbek xalqining eng qadimiy davrlardan boshlab hozirga qadar davom etib kelayotgan, o'z ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan qadriyatlardan yana biri ota onani e'zozlash, ularga izzat-ikrom ko'rsatib, hurmatini joyiga qo'yishdan iborat. Bu insonlar ongiga oila muhitida ko'cha- ko'yda singdirilib boriladi. Ota – onaga cheksiz hurmat, ularning xizmatini qilib duolarini olish mehr ko'rsatish insonlarning qon-qoniga singib ketgan tushunchadir. Milliy an'ana, qadriyatlar o'z- o'zidan paydo bo'lib qolmayd ular yillar



davomida kishilar hayotining ajralmas qismi sifatida mavjud bo'lgan, kundalik ehtiyojlarda ularga murojat qilishgan.

Xulosa qilib aytganda, millatimizning asriy an'ana, urf-odatlarisiz shaxs ma'naviyatini shakllantirish mumkin emas. Bular o'zining betakror tabiati bilan kishilarning ma'naviy dunyosiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ammo tan olish kerakki, oxirgi paytlarda insonlar o'rtasida milliy qadriyatlarimiz borasidagi qarashlar biroz xira torta boshladi. Turli noto'g'ri talqinlar paydo bo'ldi. Bunga asosiy sabab sifatida Sobiq Ittifoq davridagi zulmni keltirishimiz mumkin. Negaki, xalqimiz uzoq yillar davomida ma'naviy ozuqadan bebahra qolishdi. Ularning ongiga yot g'oyalar singdirilib, milliy qadriyatlarimizni o'zida mujassam qilgan o'zbek xalq dostonlari, maqol va rivoyatlari kuy qo'shiqlariga e'tibor berilmadi. Natijada ayrim yoshlar o'zbek xalqining milliy qadriyatlarini chuqur o'rganish, tahlil qilish, mohiyatini to'la anglab yetishdan mahrum bo'lib qoldilar. Hayriyatki, Mustaqilligimiz tufayli bu holatlarga nuqta qo'yildi. Istiqlol yillarida mamlakatimizda milliy qadriyatlarni tiklash borasida ko'plab ishlar amalga oshirildi. Milliy markazlar ochilib, faoliyati yo'lga qo'yildi. Turli ko'rik - tanlovlar uyushtirilib, yoshlarimizning milliy qadriyatlar bilan hamohang tarzda ulg'ayishiga imkoniyatlar yaratildi. Bularning barchasi yoshlarning axloqiy madaniyatini oshirishga, ma'naviy dunyo qarashini shakllantirishga xizmat qiladi. Ma'naviyati teran, e'tiqodi mustahkam, milliylikni qadirlaydigan insonlarga har bir jamiyatning taraqqiyot mezonini hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent 2000.
2. I. Karimov." Yuksak ma'naviyat yengilmas - kuch" . Toshkent. 2008.
3. I. Karimov . "Istiqlol va ma'naviyat" Toshkent 1994.
4. I. Karimov." Yuksak ma'naviyat haqiqat mezonini" Toshkent 2022.
5. " Hurriyat" gazetasi Toshkent 2019.



Avestoda oila va nikoh masalalarining axloqiy, huquqiy tahlili

Salayeva Aziza

Termiz davlat pedagogika instituti, Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi birinchi bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimiy yozma manba hisoblangan Avestoda oilaviy nikoh, bola tarbiyasining axloqiy, huquqiy tahlili haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: nikoh, oila, axloqiy tarbiya, zardushtiylik, ezgu fazilatlar, pok niyat
Har bir inson hayotining ajralmas bir bo'lagi bu - uning oilasi hisoblanadi. Hayotga bo'lgan qarashlar ham dastavval oilada paydo bo'ladi. Oila-bu shunchaki oddiy so'z emas, bu shunday muqaddas tushunchaki, biz uning naqadar buyuk ne'mat ekanligini, yillar o'tavergan sayin chuqur his eta boramiz. Oila bu bizning hayotga ilk bora nazar slogan diyorimizdir. Oila ota-ona, bobo-buvi, aka-uka, opa-singil, qarindosh-urug'lardan iborat mehr, muruvvat asosiga qurilgan muqaddas maskandir. Bu maskanda biz kamol topganmiz, oiladagi go'zal tarbiya esa bu bizning kelajakda qanday inson bo'lishimizni belgilab beruvchi muhim belgidir.

Malumki, oila degan so'z yaqindagina paydo bo'lganmas. U bashariyat tarixining ibtidosi hisoblangan desak ham bo'ladi. Qadim davrlardan ham oila juda muqaddas hisoblangan. Turli mamlakatlarda oilalarga xos bo'lgan o'ziga xos jihatlari, unsurlari mavjud. Bu esa bu mintaqalarda qadimdan shakllangan oila borasidagi milliy qadriyatlar, urf-odatlar bilan bog'liq. Nafaqat qadriyatlar balki, qadimiy yozma manbalarning ham oilaviy munosabatlarning mustahkam bo'lishi uchun, o'rni muhimdir. Ana shunday qadimiy ma'naviyatimizda, madaniyatimizda, milliy o'zligimizning tarixiy taraqqiyotining eng muhim davrida shakllanib, rivoj topgan manba bu "Avesto",dir. Bu tarixiy manba jahon madaniyatining, jumladan, Markaziy Osiyo va Eron xalqlari tarixining noyob yodgorligidir. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: "Biz uchun Avesto kitobi nafaqat tarixiy yodgorlik, balki, millatimizning va unga xos bo'lgan, qadriyatlar va madaniyatning tomirlari ming - ming yillarga borib taqalishini tasdiqlaydigan tarixiy hujjat sifatida qadrlidir" degan jumalari haqiqatdan ham Avestoning g'oyalari necha ming yillardan beri insonlar taqdirini belgilashda katta nufuzga ega bo'lganligini ko'rsatadi. Haqiqatan ham zardushtiylik dinining muqaddas kitobi Avestoda aks ettirilgan ko'pgina urf-odatlar, rasm-rusmlar hozirga qadar saqlanib qolgan. Xususan Navro'z bayramini shod-u xurram kutib olishimiz, kelin-kuyovning olov atrofida aylanishi, isiriq tutatish, non uvog'ining muqaddasligi kabilar tadbirlar xalqimiz qon-qoniga singib ketgan.



Avestoda oila, sog'lom turmush tarzi, farzandning pokizaligi, uning axloqiy, ruhiy, jismoniy sog'lomligiga, ma'naviy tarbiyasi xususida qayg'urish zarurligi birinchi o'ringa qo'yilgan. Odamlar faqat axloqiy yo'l - yo'riqlarni o'zlashtiribgina qolmasdan, balki yaxshi yor, aqlli farzand, chinakam baxtli oilaviy turmush to'g'risida ham o'ylashi zarurligi haqida alohida uqtiriladi. Har bir shaxs o'ziga solih farzand tilab, quyidagi so'zlarni aytgan. "Menga barkamol va ogoh, vatansevar va anjumanoro, ahil, ezgu, andishali, zulmatdan, tanglikdan, qutqaruvchi farzandlar bag'ishla, toki ular manzil, shahar, o'lka va uning nomi hamda ovozasini ko'tarsinlar"[1:121]. Avestoda oila qurish va u bilan bog'liq masalalarga jiddiy e'tibor berilgan. O'smirlar o'n besh yoshdan balog'at yoshiga yetgan hisoblangan va oila qurish huquqiga ega bo'lishgan.

Oilada har bir yosh davrda bolaga bo'lgan munosabatni o'zgartirib rivojlantirib borish asosiy masaladir. Kichik yoshdagi bolaga katta yoshdagi bolaga qilgan muomlani qilmaslik yoki aksincha balog'at yoshidagi bolani faqat bola kabi munosabatda bo'lmay o'zida jamiyatning teng huquqli va ma'suliyatli a'zosi sifatida qarashini shakllantirishga yordam berish lozim. Farzandga albatta ota-ona ibrat bo'lishi kerak.[5]

Oila qurish jamoa, ota-onalar izmida bo'lgan va ular jamoa maslahati bilan bo'lajak kelin va kuyovni tanlashda obdon o'ylab ish ko'rishgan. Bugungi oila qonunchiligimizda nikoh tuzishga monelik qiladiga holatlardan biri sifatida qaralgan nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar nikoh tuzilishiga yo'l qo'yilmaydigan ta'qiq o'sha davrda Avesto qonunlarida ham mavjud bo'lgan.[2:45] Ya'ni yaqin qarindoshlar va o'zga dindorlar bilan oila qurish qat'iy man etilgan. Kimki bu qonunni buzsa, o'lim jazosiga mahkum etilgan. Bolalarning sog'lom tug'ilishi, ularda hech qanday nuqson bo'lmasligiga katta ahamiyat berilgan.

Sog'lom avlod tug'ilishi uchun ota-onalarning sharob ichmasligi, hushdan ketkizuvchi, kayf qildiruvchi boshqa giyohvand moddalarni iste'mol qilmasligi lozim bo'lgan. Insonning har doim halol mehnat evaziga noz-ne'matlarga ega bo'lishi uqtirilgan.

Farzandlarning huquqiy maqomiga alohida e'tibor berilgan. Hozirgi kunda muhtoj oilalarga, ko'p bolali ayollarga ijtimoiy yordam sifatida beriladigan imtiyozlar qadim davrda Avestoda ham mavjud bo'lgan. Ikki-uchtadan farzand tuqqan ayollarga imtiyozlar berilib, sigir yoki sariq tuya bilan mukofotlangan. Ko'p bolali ayollarga davlat xazinasidan nafaqa tayinlangan. Shuningdek, ayol yoki oila boshlig'i hisoblangan erkak farzandlarini o'z holiga tashlab qo'yib, sarson-sargardon qilsa, bunday qilganliklari uchun qamchin va darra bilan kaltaklangan, hatto o'lim jazosi ham qo'llanilgan.



Zardushtiylik ta'limotida bolalarning ta'lim tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan. "Tarbiya hayotning eng muhim tayanchi bo'lib hisoblanishi lozim deb qaralgan" Zardushtning o'zi ham bolalar ruhiyatiga rost so'z, pok aqida, halol niyatni singdiradigan ustoz muallimlar peshvosi sifatida madh etilgan. Bolalarga diniy tarbiya berish ularning yetti yoshida boshlangan. Jamiyatda har tomonlama yetuk shaxslarni yetishtirish uchun ularga ko'plab hunarlar o'rgatilgan. O'g'il bolalarga o'ttiz ikki xil harbiy hunar o'rgatilgan. Qiz bolalar ip yigirish, liboslar tikish, o'g'il bola bilan kurash tushish, chavandozlik, qilichbozlik, suvda suzish, kamondan o'q uzatish kabi jismoniy-harbiy malakalarni egallashi majburiy bo'lgan. Avestodagi qizlarga yuklatilgan bunday majburiyatlar qizlarni jasur va matonatli qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Bu qadimiy manbadan ham oilaning naqadar muqaddas sanalganligini ko'rishimiz mumkin. Qadim davrdan shakllangan oilaviy munosabatlardagi ko'pgina unsurlar bugun ham mavjud, ular hech qachon eskirmaydi.

Hamisha insonlarni yaratuvchanlikka, ezgulikka chorlovchi zardushtiylik dinidagi axloqiy qoidalar asrlar o'tsa ham xalqlarning urf-odatlariga, madaniyatlariga singib boraveradi. Biz bugungi kunda oilalarimizning bardavonligini ta'minlashda, jamiyatning ilg'or shaxslari bo'lib kamol topishimizda albatta azaldan shakllangan oilaviy rasm-rusmlarning ham muhim o'rni bor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqar Mahkamov "Avesto tarixiy-adabiy yodgorlik" – T: Sharq.2001, 121-bet
2. Xasanov S. Xorazm ma'rifati-olam ko'zgusi-Toshkent: "O'qituvchi", 1996.
3. M. Isxoqov "Avestoning Yashid kitobiga tarjimasi" – Toshkent 2004
4. Xalimboy Boboyev „Avesto va uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni"- xorazm nashriyoti 2002-yil
5. <https://fayllar.org/pedagogical-sciences-and-teaching-methods--021--part-v5.html>



“Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” g‘oyasining jamiyat hayotidagi ahamiyati

Termiz davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi Sevarova Maftuna

Annotatsiya: Biz insonlarni “Insonni o‘zgartirmasdan jamiyatni o‘zgartirib bo‘lmaydi” degan umummilliy g‘oya atrofida birlashtirib, “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” dadil qadam tashlashga ruhlantirishimiz lozim. Negaki, milliy yuksalish har bir fuqaroning shaxsiy rivojlanishi, ularning turmush tarzi yaxshilanishi bilan uzviy bog‘liqlikdagi jarayondir.

Kalit so‘zlar: milliy tiklanish, taraqqiyot, renessans, milliy yuksalish, milliy qadriyatlar, islohotlar.

Bugungi kunda shiddat bilan kechayotgan global o‘zgarishlar butun dunyodagi xalqlar va millatlarning hayotiga aloqador bo‘lib, turli xil qarashlarni yuzaga keltirmoqda. Insoniyatning butunlay o‘zgacha muhit, yangicha talab va xavf-xatarlar kuchaygan bir sharoitda yashashiga to‘g‘ri kelmoqda. Ushbu holatda uzoq vaqt davomida sinovdan o‘tgan va hayotning turli qiyinchiliklarida toblangan har qaysi xalq va millat birligi, hamjihatligini yanada oshiradi va uning manfaatlariga xizmat qiladi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, mustaqilligimizni mustahkamlashga qaratilgan muhim tashkiliy-huquqiy asoslar yaratildi. Jumladan, qonun bilan tasdiqlangan davlat ramzlari, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Shu bilan birgalikda, endilikda O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti, YUNESCO, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, Islom Hamkorlik Tashkiloti kabi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarga a‘zo bo‘ldi va xalqaro maydonda o‘z o‘rni, obro‘-e‘tiboriga ega bo‘ldi.

